

37
H 25

HAMRAYEVA GULNOZ RUSTAMOVNA

O'QUV REJA, BAHO VA BAHOLASH

O'QUV QO'LLANMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

HAMRAYEVA GULNOZ RUSTAMOVNA

**O'QUV REJA,
BAHO VA BAHOLASH**

O'QUV QO'LLANMA

**5350400-AKT SOHASIDA KASB TA'LIMI BAKALAVR TALABALARI
UCHUN**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**«Mahalla va oila nashriyoti»
Toshkent – 2021**

UO'K 37.091(075)

KBK 74r

H 25

Muallif: G.R.Hamrayeva “O‘quv reja, baho va baholash”
(практикум) o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi TATU. 2021. – 172 b.

O‘quv qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnolgiyalari universiteti ilmiy – uslubiy kengashining qarori
bilan chop etishga tavsiya etiladi (2021 “___” “___” – sonli
bayonnnomasi).

ISBN 978-9943-7778-5-9

© HAMRAYEVA GULNOZ RUSTAMOVNA. 2021 y.

© «Mahalla va oila nashriyoti». 2021 y.

Annotasiya

O‘quv qo‘llanmada ta’lim tizimini tashkil qilishda me’yoriy – xuquqiy xujjalalar ahamiyati, ta’lim sifati tushunchasi, baho sifatini boshqarish elementi, shuningdek, Kredit tizimi doirasida bilimlarni baholash tartibi bataysil bayon etilgan. Shuningdek, bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida o‘quv reja, baho va baholash fanini o‘rgatishning zamonaviy yondashuvlari ifoda etilgan.

O‘quv qo‘llanma 5350400 - AKT sohasida kasb ta‘limi yo‘nalishi talabalarining o‘quv jarayonida foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

Аннотация

В учебном пособии подробно изложено о значении нормативно-правовых актов в организации системы обучения, понятии качества обучения, элементе управления качеством оценки, а также, порядке оценки знаний в рамках кредитной системы. Кроме того, определены современные тенденции обучению предмету учебного плана, оценок и оценки знаний в педагогической деятельности будущих преподавателей профессионального образования.

Учебное пособие назначено для использования в образовательном процессе студентов направления профессионального образования в сфере ИКТ 5350400.

Annotation

The handbook sets out in detail the significance of legal acts in organization of the training system, the concept of the quality of training, the element of the quality control of assessment, as well as the procedure for assessing knowledge within the credit system. In addition, it determines the modern trends in teaching the subject of the curriculum, grades and assessments of knowledge in the pedagogical activities of future teachers of vocational education.

This handbook is intended for use in the educational process of students in the direction of professional education in the field of ICT – 5350400.

MUNDARIJA

KIRISH.....	9
I-MODUL. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI TASHKIL QILISHDA ME'YORIY – XUQUQIY XUJJATLARNI YURUTISH.....	11
1- Amaliy mashg‘ulot: Ta'lism tizimini tashkil qilishda me'yoriy – xuquqiy xujjatlar.....	11
2- Amaliy mashg‘ulot: Ta'lism jarayonida o'quv rejaning ahamiyati va o'rni.....	19
3- Amaliy mashg‘ulot: Ta'lism maqsadlari taksonomiyasi va o'qitish natijalar.....	27
4- Amaliy mashg‘ulot: Zamonaivy ta'lism jarayonida pedagogik nazorat.....	37
II-MODUL. TA'LIM SIFATINI BAHOLASH.....	47
5- Amaliy mashg‘ulot: Ta'lism sifati tushunchasi. Baho sifatni boshqarish elementi sifatida.....	47
6- Amaliy mashg‘ulot: Baholashda reyting tizimi.....	57
7- Amaliy mashg‘ulot: Baholashda portfolio vazifasi.....	67
8- Amaliy mashg‘ulot: Kredit tizimi doirasida bilimlarni baholash tartibi..	81
III-MODUL. TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA PEDAGOGIK NAZORAT TURLARI.....	93
9- Amaliy mashg‘ulot: Pedagogik nazorat shakllari.....	93
10- Amaliy mashg‘ulot: Pedagogik testlar.....	101
11- Amaliy mashg‘ulot: Anketa o'tkazish – pedagogik tadqiqot metodi sifatida.....	111
12- Amaliy mashg‘ulot: Ta'limning amaliy natijalarini baholash vositasi sifatida kurs ishi va kurs loyihasini o'mni va o'tkazish tartiblari.....	118
IV-MODUL. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK MONITORING O'RNI.....	130
13- Amaliy mashg‘ulot: O'quv yutuqlarini baholashning zamona viyvositalari.....	130
14- Amaliy mashg‘ulot: Pedagogik monitoring funksiyalari...	138
15- Amaliy mashg‘ulot: Baholash va axborot texnologiyalari...	144
TEST.....	153
GLOSSARIY.....	161
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'Y XATI.....	169

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	9
МОДУЛЬ-І. ПРОИЗВОДСТВО НОРМАТИВНО - ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ.....	11
1- Практическое занятие: Нормативно-правовые документы при организации системы образования.....	11
2- Практическое занятие: Значение и роль учебного плана в образовательном процессе	19
3- Практическое занятие: Таксономия образовательных целей и результаты обучения	27
4- Практическое занятие: Педагогический контроль в современном образовательном процессе	37
МОДУЛЬ -ІІ. ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ	47
5- Практическое занятие: Понятие качества образования. Оценка как элемент управления качеством	47
6- Практическое занятие: Рейтинговая система в оценке знаний.....	57
7- Практическое занятие: Задачи портфолио в оценке знаний	67
8- Практическое занятие: Порядок оценки знаний в рамках кредитной системы.....	81
ГЛАВА ІІІ. ВИДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ ПРИ ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ.....	93
9- Практическое занятие: Формы педагогического контроля.	93
10- Практическое занятие: Педагогические тесты.....	101
11- Практическое занятие: Анкетирование как метод педагогического исследования.....	111
12- Практическое занятие: Курсовая работа как средство оценки практических результатов образования, значение курсового проекта и порядок его проведения.....	118
ГЛАВА ІV. ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ.....	130
13- Практическое занятие: Современные средства оценки учебных достижений.....	130
14- Практическое занятие: Функции педагогического мониторинга.....	138

15- Практическое занятие: Оценка и информационные технологии.....	144
ТЕСТ	153
ГЛОССАРИЙ	161
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	169

CONTENT

INTRODUCTION	9
MODULE - I. PRODUCTION OF REGULATORY AND LEGAL DOCUMENTS IN ORGANIZATION OF A MODERN EDUCATION SYSTEM.....	11
1- Practical lesson: Regulatory and legal documents for the organization of the education system.....	11
2- Practical lesson: The value and role of the curriculum in the educational process.....	19
3- Practical lesson: Taxonomy of educational objectives and learning outcomes.....	27
4- Practical lesson: Pedagogical control in the modern educational process.....	37
MODULE -II. ASSESSMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION.....	47
5- Practical lesson: Education quality concept. Evaluation as an element of quality management.....	47
6- Practical lesson: The rating system in the assessment of knowledge.....	57
7- Practical lesson: Portfolio tasks in knowledge assessment.....	67
8- Practical lesson: The procedure for assessing knowledge within the credit system.....	81
MODULE -III. TYPES OF PEDAGOGICAL CONTROL IN ASSESSING THE KNOWLEDGE OF STUDENTS.....	93
9- Practical lesson: Forms of pedagogical control.....	93
10- Practical lesson: Pedagogical tests.....	101
11- Practical lesson: Questioning as a method of pedagogical research.....	111
12- Practical lesson: Course work as a means of assessing the practical results of education, the value of the course project and the procedure for its implementation.....	118
MODULE - IV. THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MONITORING IN INCREASING THE EFFICIENCY OF EDUCATION.....	130
13- Practical lesson: Modern means of assessing educational achievements.	130
14- Practical lesson: Functions of pedagogical monitoring.....	138
15- Practical lesson: Assessment and and information technology TEST.....	144
	153

GLOSSARY.....	161
LIST OF USED LITERATURE.....	169

KIRISH

Ta'lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari axborotlashgan jamiyatda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jahonda Zamonaviy ta'lim dasturlari bo'yicha mutaxassislarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muammolari pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb hisoblanadi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasi rivojlanishining beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalgalashish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga ttabiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalgalashish.

Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilmoqda. Unda, jumladan uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'nalishini davom ettirish, sifatlari ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy extiyoylariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash belgilangan.

Jahonnig rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intelektual resurslarini inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohatlarining amalgalashish yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va xorijiy manbalar, adabiyotidan foydalananilgan holda "O'quv reja, baho va baholash"ni Oliy ta'lim tizimida bakalavriyatura talabalarga o'rgatish samarali natija berishini o'rganildi.

Respublikamizda mustaqillik yillarda kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga quyiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir, jadal ilgarilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma'naviy-axloqiy

sifatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz ta‘lim tizimida kompetensiyaviy talablarga javob beradigan mustaqil va erkin fikrlaydigan, ilg‘or texnik-texnologik tajribalarni puxta o‘zlashtirgan, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi isloh qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariغا muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Shu sababli bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarida texnik fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning amaldagi metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Mazkur o‘quv qo‘llanma “O‘quv reja, baho va baholash” fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, amaliy mashg‘ulot samaradorligini oshirish, “O‘quv reja, baho va baholash” fani bo‘yicha bilimlarni egallash, zamonaviy ta‘lim tizimini tashkil qilishda me’yoriy – xuquqiy xujjatlarni yurutishning o‘rni, talabalar bilimini baholashda pedagogik nazorat turlari va ta‘lim samaradorligini oshirishda pedagogik monitoring haqida bat afsil yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarni dunyo qarashini rivojlantirish uchun Xorijiy davlatlar oliy ta‘lim tizimi va uning qiyosiy tahlili keltirib o‘tilgan.

Talabalar amaliy mashg‘ulot vaqtida o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limga oid me’yoriy – xuquqiy xujjatlarni bilan tanishtirish bilan bir qatorda ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish yo‘llarini ko‘rsatib berish masalalarini qamraydi. O‘quv qo‘llanma “O‘quv reja, baho va baholash” fani o‘qituvchilarini uchun zarur manba sifatida mo‘ljallangan.

*“Yana bir muammoni hal etish o’ta muhim hisoblanadi:
bu pedagoglar va professor-o’qituvchilar tarkibining
professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir.
Bu borada ta’lim olish, ma’naviy ma’rifiy kamolot masalalari
va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga
faol ko’mak beradigan muhitni yaratish zarur”
Sh.M.Mirziyoev.*

I - MODUL. ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI TASHKIL QILISHDA ME’YORIY –XUQUQIY XUJJATLARNI YURUTISH

1- Amaliy mashg‘ulot

Ta’lim tizimini tashkil qilishda me’yoriy –xuquqiy xujjatlar

Ishning maqsadi: Ta’lim tizimini tashkil qilishda me’yoriy –xuquqiy xujjatlarni tahlil qilishga oid bilimlarini mustahkamlash va ko’nikma hosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko’rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o’quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: “Toifalash jadvali”, “Ikki tomonlama kundalik”, “Atamalr izoxini topping”, “Xotira mashqi” metodlari.

Nazariy ma’lumot

Ta’lim tizimini tashkil qilishda me’yoriy –xuquqiy xujjatlarni — vakolatli davlat organlari va mansabдор shaxslarning umummajburii ko’rsatmasi. Ularda huquq normalari (qonun, kodeks, farmon, qaror, yo’riqnomalar va boshqalar) o’rnataladi, o’zgartiriladi va bekor qilinadi.

Normativ me’yoriy – xuquqiy xujjatlar O’zbekiston Respublikasida huquqning asosiy manbaidir. O’zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan “Normativhuquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 2-moddasiga ko’ra, ... umummajburii davlat ko’rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o’zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ me’yoriy –xuquqiy xujjatlar deb hisoblanadi”.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis, O’zbekiston Respublikasining Prezidenti, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlarni qabul qilish huquqiga ega.

Normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy belgilari quyidagilar:

- Vakolatli davlat organi tomonidan umumiy qoidalarga asosan chiqariladi, aniq o'rnatilgan tartiblar asosida qabul qilinadi;

- Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlarni qabul qilish jarayoni huquq ijodkorligi mahsuli bo'lib hisoblanadi;

- Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlar ushbu hujjatning nomidan kelib chiqib umumiy harakterdagi xulq-atvor qoidalarini huquq normalari ko'rinishida mujassamlantiradi;

I – rasm. Normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy belgilari.

Normativ me'yoriy – xuquqiy xujjatlar rasmiy hujjat bo'lib, belgilangan shakl va rekvizitlarga ega:



Rasmiy nomi, raqami, ushbu hujjatni qabul qilgan organning nomi, qabul qilingan va kuchga kirgan vaqt, rasmiy e'lon qilingan joyi va h.k.;

Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlar yuridik kuchga ega.

2 – rasm. Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlar.

Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjat loyihasini ishlab chiqayotgan organ, qoida tariqasida, loyihami tayyorlash yuzasidan komissiya tuzadi;
- Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlar loyihalarini tayyorlashga manfaatdor davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarning vakillari, ayrim fuqarolar jalb etilishi mumkin;
- Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlarni qabul qiluvchi organ bir necha davlat organlari, ilmiy muassasalar va boshqa tashkilotlarga ayrim fuqarolarga muqobil loyihalar tayyorlashni topshirishga yoki ular bilan shartnomalar tuzishga, shuningdek, eng yaxshi loyiha uchun tanlovlardan e'lon qilishga haqlidir;
 - Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ me'yoriy – xuquqiy xujjatlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha ishini muvofiqlashtirib turish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;
 - Normativ m'yoriy –xuquqiy xujjatning matni lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etiladi.

Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlarda uni amalga oshirishning huquqiy vositalari, shu jumladan, moliyalashtirish manbalari, rag'batlantirish, mukofotlash va nazorat qilish chora-tadbirlari va sharhlar ko'rsatilishi mumkin.

Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlar agar uning matnida boshqa izoh berilmagan bo'lsa, muddatsiz amal qiladi.

Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatlar amal qilishining vaqtinchalik muddati butun hujjat uchun yoki uning qismlari uchun belgilanishi mumkin. Normativ me'yoriy –xuquqiy xujjatning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet ellik yuridik shaxslar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga tatbiq etiladi.

Xorijiy davlatlar ta'lim tizimini me'yoriy – xuquqiy xujjatlarni yuritish tartibidan namunalari

Koreya Ta'lim tizimini tashkil qilishda me'yoriy –xuquqiy xujjatlarni yuritilish tartibi.

Koreya "Gaaga konvensiyasi" ning ishtirokchisi bo'lib, u chet el rasmiy hujjatlarini qonuniylashtirish talabini bekor qiladi (1961 yil 5 oktyabr), shuning uchun barcha hujjatlar ushbu konventsija qoidalariga bo'ysunadi. Koreya Tashqi ishlar va savdo vazirligi apostil qo'yishga vakolatli.

Koreya ta'lim tizimini boshqarish va uning qiyosiy tahlili

Barcha oliy o'quv yurtlari (davlat va xususiy) ta'lim muassasalari ta'lim, fan va texnologiyalar vazirligi nazorati ostida. Ta'lim muassasalarini qonuniy akkreditatsiyasi 2001 yildan beri Universitet ta'limi kengashi tomonidan olib boriladi.

Ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish ushbu protsedurani amalga oshirish uchun Ta'lim, fan va texnologiyalar vazirligi tomonidan vakolat berilgan, ixtisoslashtirilgan akkreditatsiya idoralari tomonidan amalga oshiriladi va (masalan, arxitektura, muhandislik, tibbiyot va boshqalarda (2010 yildan beri)).

Ta'lim, fan va texnologiyalar vazirligi ta'lim va fan sohasidagi siyosatni shakllantirishga mas'uldir, mamlakatdagi o'rta va oliy ta'lim darajasida o'quv jarayonini rejalshtiradi, o'qituvchilar va o'qituvchilar malakasini oshirishni tartibga soladi va mahalliy ta'lim organlarini ma'muriy va moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi.

Universitet ta'limi bo'yicha kengashi - bu Ta'lim, fan va texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan xususiy uyushma bo'lib, u oliy o'quv yurtlarini akkreditatsiya qilish tartibini amalga oshiradi.

O'rta maktab o'quv yili martdan dekabrgacha davom etadi va 17 o'quv haftasining ikki semestriga bo'linadi. Akademik o'quv dasturining hajmi kamida 3000 soatni tashkil etadi (uch yil davomida). Kasb-hunar dasturlarining 60% kasb-hunar ta'limi fanlari hisoblanadi. Oliy ta'lif dasturlarining hajmi kreditlar bilan hisoblanadi. Bir kredit nazariy fanlar uchun bitta akademik soatni va amaliy fanlar uchun ikki soatni tashkil etadi. Dasturlar kunduzgi va kechki o'qish shaklida amalga oshiriladi, ammo o'qishning umumiy davomiyligi o'zgarishsiz qolmoqda. 6 yillik bakalavr dasturlari (tibbiyot sohasida) to'rt yillik umumiy dastur asosida ikki yillik amaliy o'quv kurslarini o'z ichiga oladi.

Koreya ta'lif tizimi darajalari

Peru ta'lif tizimi 8 ta ta'lif darajasini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lif, maktabgacha tarbiya (3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun boshlanadi, 3 yil davom etadi);
- boshlang'ich ta'lif (6 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun);
 - o'rta ta'lif (12 yoshdan boshlanadi va 2 yil davom etadi);
 - o'rta ta'lif (15 yoshdan boshlanadi va 3 yil davom etadi. tugatgandan so'ng, yakuniy imtihonlarni topshirish kerak, natijada umumta'lif maktabini tugatganligi to'g'risidagi guvohnoma va kasb-hunar litseyini tugatganligi to'g'risida guvohnoma beriladi);
- kollejdan tashqari universitet darajasidagi oliy ma'lumot (ular 18 yoshida o'qishadi, o'qitish 2-3 yil davom etadi, kamida 80 kredit talab qilinadigan dasturni bajarish uchun. junior kollej diplomini olinadi.);
 - bakalavr darajasini olish (18 yoshga kirish, o'qitish 4-6 yil davom etadi. bakalavr bakalavr darajasini olish uchun kamida 130 kredit talab qilinadi);
 - magistr darajasining magistr darajasi (qabul 22 yoshda, o'qitish 2 yil davom etadi, oxirida yakuniy malakaviy ishni himoya qilish va imtihondan o'tish kerak, natijada magistr darajasi beriladi);
 - doktorlik darajasida, doktorantura (o'qish muddati 3 yil, oxirida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish va doktorlik darajasi tayinlagan yakuniy imtihondan o'tish kerak).

Qiziqarli ma'lumotlar

Yaxshi baholar yomon baholarga nisbatan esda yaxshi qoladi. “A’lo” (5) baho 89% hollarda esda saqlab qolinadi, “Qoniqarli” (3) baho esa 29% hollarda esda qoladi. Shuning uchun ko‘pchilik odamlar o‘zlarining yoshlikdagi yomon baholarini eslay olmaydilar va yaxshi o‘qiganliklarini eslab yurishadi.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. Ta’lim tizimini tashkil qilishda normativ me’yoriy – xuquqiy xujjatlar bilan qanday ishlash kerak?

Toifalash jadvali metodi

Toifa - xususiyat va munosabatlarni muximligini namoyon qiluvchi alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan malumotlarni birlashtirishni taminlaydi.

Tizimli fikrlash malumotlarni tuzilmaga keltirish,tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar toifali sharxlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Aqliy xujum / klaster tuzish/ yangi o‘quv materiali bilan tanishishdan so‘ng kichik guruxlarda, olingan malumotlar lavxalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlaydilar. Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar.

G‘oyalarni malumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin.

Ish natijalarining taqdimoti.

Toifalash sharxining tuzish qoidasi.

1. Toifalar bo‘yicha malumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.

2. Bitta mini – guruxda toifalarga ajratish boshqa guruxda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.

3. Talim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo‘la qolsin.

“Toifalash jadvali”, “Ikki tomonlama kundalik”, “Atamalr izoxini toping”, “Xotira mashqi” metodlaridan foydalaning

I.-jadval. Toifalash jadvali metodi.

Ta’lim tizimini tashkil qilishda normativ me’yoriy –xuquqiy xujjatlar bilan qanday ishlash kerak?

Ta’lim tizimini deganda nimani tushunasiz?	normativ me’yoriy –xuquqiy xujjat nima?	normativ me’yoriy –xuquqiy xujjat bilan qanday ishlanadi?

2-Topshiriq. Normativ me’yoriy –xuquqiy xujjatga qanday asosiy talablar qo‘yiladi?

“Ikki qisqli kundalik” metodi

Bu metod o‘rganilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning tushunchalarini shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi.

Maqsad: O‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg‘otish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tushunchalarni o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash.



O'tkazish bosqichlari:

1-bosqich

- O'quvchilarga mavzu yuzasidan matn o'qish uchun taklif etiladi.

2-bosqich

- O'quvchilarning barchasi matn bilan tanishganiga ishonch hosil qilishgach, ulardan daftarga vertikal chiziq chizish so'raladi. Ikkita ustun hosil bo'ladi.

3-bosqich

- O'quvchilarga daftarning chap ustuniga matndagi tushunchalar va ularning ta'siflarini yozishni aytildi.

4-bosqich

- O'quvchi o'ng tomondagi ustunga muayyan tushunchaga o'zining izohini yozadi, ya'ni o'qilgan matndagi tushunchani o'z fikri bilan qo'shib, unumlashtirib beradi.

5-bosqich

- Topshiriq bajarilgach, o'quvchilar (o'z xolishiga ko'ra) bittadan tushunchani va ularga yozilgan izohni o'qishlari taklif etiladi.

3-rasm. "Ikki qismli kundalik" metodi.

Tushunchalar va ularning izohi o'qilayotganda savol berish yoki mazkur tushuncha yuzasidan o'z izohini berishga ruxsat etiladi, biroq fikrlar takrorlanmasligi so'raladi.

2.-jadval. Ikki tomonlama kundalik.

Ikki tomonlama kundalik	
Normativ me'yoriy — xuquqiy xujjatdan qanday roydalaniladi?	Normativ me'yoriy --xuquqiy xujjatdan qanday talablar qo'yiladi?



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Ta’lim tizimini tashkil qilishda normativ-huquqiy hujjatlarning asosiy belgilari nimalar?
2. Ta’lim tizimini tashkil qilishda normativ me’yoriy – xuquqiy xujjatlar qanday hujjat xisoblanadi?
3. Ta’lim tizimini tashkil qilishda normativ me’yoriy – xuquqiy xujjatlar qanday belgilangan shakl ega?
4. Ta’lim tizimini tashkil qilishda normativ m’yoriy –xuquqiy xujjatning matni qanday tuzuladi?
5. Normativ me’yoriy –xuquqiy xujjatlar amal qilish muddati qancha?
6. Xorijiy davlatlar ta’lim tizimini me’yoriy – xuquqiy xujjatlarni yuritish tartibidan namunalar bilan tanishmisiz?
7. Koreya ta’lim tizimini boshqarish?
8. Koreya ta’lim darajasi va ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni bilasizmi?
9. Koreya universitet ta’limi tizimi bo‘yicha kengashining vazifasi?
10. Normativ me’yoriy –xuquqiy xujjatlarni qabul qilish tartibi?

2 - Amaliy mashg‘ulot

Ta’lim jarayonida o‘quv rejaning ahamiyati va o‘rni

Ishning maqsadi: Ta’lim jarayonida o‘quv rejaning tuzulishi ahamiyati va uning o‘rniniga oid bilimlarini mustahkamlash va ko‘nikma xosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko‘rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o‘quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: SWOT tahlili, FSMU, “Tushunchalar taxlili” metodi.

Nazariy ma’lumot

Ta’lim jarayoni - bu o‘rganish, aloqa, bu jarayonda boshqariladigan idrok, ijtimoiy va tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ko‘paytirish, shaxsnинг shakllanishi asosida u yoki bu o‘ziga xos faoliyatni o‘zlashtirish.

Ta'lim jarayoni samarali bo'lishi uchun, faoliyatni tashkil qilish va faoliyatni tashkil qilishda o'rganish vaqtini ajratish kerak. Ikkinchи komponentni tashkil etish o'qituvchining bevosita vazifasidir. Ta'lim jarayonining samaradorligi har qanday bilim va ma'lumotni o'zlashtirish uchun talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni qanday qurilishiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy hayotimiz dinamikligini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, bilim, ko'nikma va qobiliyatlar ham o'zgaruvchan hodisalar bo'lib, ular o'zgarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayoni axborot makonidagi yangilanishlarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Shunday qilib, ta'lim jarayonining mazmuni nafaqat bilim, ko'nikma, ko'nikmalarni egallash zarurati, balki shaxsning aqliy jarayonlarini rivojlantirish, axloqiy va huquqiy e'tiqod va harakatlarni shakllantirishdir.

Ta'lim jarayonida o'quv rejani joriy etishdan maqsad –ilimga chanqoq yoshlarning manfaatlarini inobatga olish, ularning oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud fanlarni chuqur o'rganishlariga sharoit yaratish, o'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat.

Ta'lim jarayonining tuzilishi

Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lim olish va ta'lim berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lim, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlar ham ega. Ta'lim o'qituvchi tomonidan boshhariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir. O'qituvchining yo'naltiruvchi sifatidagi roli o'quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rindir.

Ta'lim o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U o'quvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rileydi, qanday ishslash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda o'quvchining o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqachai aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

O'quv reja bu - o'quv yurtlarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'quv reja tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdagi o'quv yurtlari uchun o'quv reja yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir o'quv yurti o'quv rejani belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, mamlakatdagi tayanch oliv o'quv yurtlari uchun o'ziga xos o'quv rejasiga ega bo'lishga ruxsat etilgan.

O'quv rejaning umumiy va majburiyligi ta'lif tizimi bosqichlarining uzlusizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejada ta'lifning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan.

O'quv yurtlarining o'quv reja muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda o'quv yurti o'quvchisi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan.

Reja tuzush tartibi

Biror ishni yoki muayyan dasturni tartibi bilan o'z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingen aniq yoki taxminiy mo'ljal (Masalan: ma'ruza rejasi);

Muayyan narsani ko'rib chiqish, yondashish usuli, nuqtai nazar, belgili tartib;

Qilinayotgan ishning to'g'ri chiqishi uchun tortilgan ip, sim, chiziq va sh.k.

4 – rasm. Reja tuzish tartibi.

O'quv dasturi— ta'lif tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat.

O'zbekiston Respublikasida o'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi. Har bir o'quv dasturi uqtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni,

o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat.

O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amaliyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor.

Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan o'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturilari shu usulda tuziladi. Tizimli usuddagi o'quv dasturilarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Maktabning boshlang'ich sinfdan keyingi bosqichlarida qo'llaniladigan bu usulda ortiqcha takrorlarga yo'l qo'yilmaydi, har bir mavzuning o'z o'rnila o'tilishi ko'zda tutiladi. Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Germaniya oliy ta'lim tizimi o'quv rejasi tartibidan namunalar Germaniyadagi oliy ta'lim tizimi

Germaniyada ta'lim to'g'risidagi asosiy qonun har bir fuqaroga o'z shaxsiyatini erkin rivojlantirish va qobiliyatlari va istaklariga qarab mактаб, o'qish joyi va kasbini tanlash huquqini beradi.

va uning qiziqisniari va entiyojariga javob beradigan malakalit ta'lim olishlariga imkon berishdir. Har bir Germaniya fuqarosi umri davomida umumiy, oliy va kasb-hunar ta'limi olish imkoniyatiga ega. Germaniya yuqori darajada rivojlangan davlat hisoblanadi. Bu rivojlanishni yuqori malakali mutaxassislarisiz qila olmaydi. Germaniya hukumati turli ilmiy sohalarda keng ko'lamli professional kadrlarni sifatlari o'qitib tayyorlaydi. Germaniya ta'lim tizimini rivojlantirish uchun har yili katta mablag' ajratadi. Germaniyada ta'lim Germaniya fuqarolari uchun ham, chet el fuqarolari uchun ham bepul.

Germaniya azaldan ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish markazi sifatida tanilgan. Shiller, Gyot, Shlegel, Gumboldt, Kant, Hegel kabi taniqli shoir, yozuvchi, faylasuf va jamoat arboblarining nomlarini bugungi kunda hamma yaxshi biladi. Germaniya Evropa mamlakatlariga tegishli bo'lib, u yerda birinchi universitet o'rta asrlarda tashkil etilgan. Germaniyaning eng qadimgi universitetlari qatoriga 1386 yilda Gaydelberg universiteti va 1388 yilda Köln universiteti kiradi.

Germaniya oliy ta'lif tizimida o'quv rejasi va dasturlarni joriy etilishi

Ushbu o'quv muassasalari, avvalo, o'zlarining eski universitet an'analari va klassik ma'lumotlari bilan mashhur edilar. O'shandan beri universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada o'sdi (bugungi kunda ularning soni 323 tani tashkil etadi), shuningdek, oliy ta'lif tizimi ham o'zgardi. Zamon bilan hamnafas bo'lishga intilib, universitetlar fan va texnikaning so'nggi tendentsiyalarini aks ettiruvchi dasturlarni joriy etmoqdalar. Xuddi shu maqsadda o'quv dasturlari doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilmoqda. Germaniya universitetlarida chet elliq talabalar sonining ko'payib borayotganligini hisobga olib, ingлиз, fransuz tillarida o'qish mumkin. Zamonaviy oliy ta'lif tizimi boshqa davlatlar ta'lif tizimidan keskin farq qiladi. Germaniyada "akademik erkinlik" printsipi e'lon qilindi, unga ko'ra erkinlik nafaqat menejment masalalarida universitetlarga, balki har bir talabaga ham beriladi. Germaniyada umuman majburiy asosda qat'iy o'qitish tizimi mavjud emas. Ya'ni, ko'p narsa talabaning mustaqilligi, mas'uliyati va o'zini tuta olishiga bog'liq. Germaniya universitetining talabasi boshqa talabalar bilan darslarga qatnashmaydi, lekin tanlangan mutaxassislik va uning o'quv dasturiga muvofiq u o'zining o'quv dasturini tuzadi va o'z vaqtini ushbu mutaxassislikka qo'yiladigan umumiyligi talablarga javob beradigan darajada tashkil etadi.

Germaniya Federativ Respublikasida ta'lif tizimini boshqarish organlari - Germaniya Federativ Respublikasi Ta'lif va madaniyat vazirlarining doimiy konferentsiyasi va Germaniya ta'lif muassasalari rektorlari konferentsiyasi. Viloyatlar darajasida o'quv jarayoni tegishli yer vazirliklari tomonidan boshqariladi. Yerlarning har birida Federal qonun asosida tuzilgan ta'lif to'g'risidagi o'z qonunlari mavjud. Germaniya Federativ Respublikasidagi ta'lif tizimi klassik, ko'p bosqichli tuzilma bo'lib, maktab, oliy va kasb-hunar ta'lifini o'z ichiga

oladi. Maktabgacha bolalar muassasalari tarmog'i yomon rivojlangan. Bolalar bog'chalari asosan xususiy mulk bo'lib, ularda uch yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar qatnashadilar.

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, Germaniyada ta'lim tizimi davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida kuchli otilikka kirgan. Germaniyada nemis kompaniyalarining kelajakdagi sheriklarini shakkantirish uchun ham zarurdir, chunki ko'plab chet ellik talabalar o'z vatanlariga qaytib, o'z mutaxassisliklari bo'yicha yaxshi maoshli ish topadilar va tezda martaba pog'onalarida ko'tarilishadi. Germaniya universitetining diplomini olganingizdan so'ng, siz aspiranturada o'qishni davom ettirishingiz yoki ish topishingiz mumkin, masalan Germaniya yoki Evropa Ittifoqi mamlakatlarida. Immigratsiya qonunchiligiga binoan Germaniya universitetlarini muvaffaqiyatlama tamomlagan chet ellik talabalar bir yil ichida mamlakatda ish qidirish imkoniyatiga ega.

Germaniya ta'lim tizimidagi - farqlar

Germaniyadagi oliy ma'lumot o'zbek tizimidan sezilarli darajada farq qiladi. Germaniya oliy ta'limini tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri bu akademik erkinlik bo'lib, u turli xil natija ko'rinishga ega. Nafaqat universitetlarning o'zlarini avtonom tashkilotlar, balki universitet hamjamiyatining har bir a'zosi erkinlik va mustaqillikka ega. Germaniyada o'qishda qat'iy tartib yo'q. Negaki, talabalar Germaniya universitetini o'z xohishlariga ko'ra amalda o'qiydilar, bu tanlov fikr erkinligini beradi, o'z-o'zini boshqarish va mas'uliyatni talab qiladi.

Germaniyada dual ta'lim - Duales Studium

Universitetda nazariyani o'rganish va korxonadagi amaliyot bilan tanishish - maktab bitiruvchilarini orasida dual ta'limni tobora ommalashtirib bormoqda. Bu ham iqtisodiyot uchun ijobiy ko'rsatkichdir. So'nggi o'n yil ichida to'g'ridan-to'g'ri ish joyida o'qishni istagan talabalar soni ikki baravarga oshdi. Germaniyada ishsizlik darajasi pasaymoqda, boshqa Evropa mamlakatlarida esa bu juda muhim nuqtaga yetmoqda!

Ikki tomonlama ta'lim tizimi deb ataladigan tizimning mohiyati shundaki, bitiruvchilar uzoq muddatli ishlab chiqarish amaliyoti bilan qo'llab-quvvatlanadigan oliy ma'lumotli diplom olishadi. Ikki tomonlama ta'lim talabalar, ham kompaniyalar uchun yutuqli

vaziyatning namunasidir. “Bo’sh ish joylariga talab katta, - deydi Kölndagi Germaniya iqtisodiyot instituti xodimi Helmut Klain, - va bu kompaniya uchun odamni dual o‘qitish uchun olib borish va uni bir necha yil ichida boshqaruv lavozimiga qo‘yish strategik jihatdan foydali qadamdir”. Ikki tomonlama tizimni quyidagicha aniq ta’riflash mumkin: talabalar universitetdagи darslarga qatnaydilar va parallel ravishda tasdiqlangan kunlarda kompaniya yoki korxonada ishlashadi, ishlab chiqarish loyihamida qatnashadilar, ish haqi oladilar.

Qiziqarli ma'lumotlar

Agar siz o‘zingizni qancha og‘ir-bosiq tutsangiz atrofingizdagи odamlar sizning rayingizga unchalik qarshi chiqishmaydi. Aksincha, agar o‘z nuqtai nazaringizni jon jahdingiz bilan, kuyib-pishib boshqalarga tushuntirmoqchi bo‘lsangiz asoslangan va kuchli qarama-qarshilikka duch kelasiz.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. Ta’lim jarayonida o‘quv rejani joriy etishdan maqsad nima?

“Tushunchalar taxlili” metodi

Bu usulda talabalar ikki guruhga bo‘linadilar, har bir guruhga har xil jadval beriladi. Talabalar jadvalni mustaqil to‘ldiradilar va har bir guruhdan bitta vakil chiqib to‘ldirilgan tushunchalarni gapiradi. Talabalar yana o‘z fikrlarini bildiradilar. Oxirida o‘qituvchi yordamida berilgan jadvaldagи vazifa munozara jarayonida umumlashtirilib, to‘g‘ri javob aniqlanadi.

3-jadval. “Tushunchalar taxlili” metodi.

Ta’lim jarayoni qanday tashkil etiladi?	
Reja qanday tuzuladi?	
O‘quv reja nima?	

2-Topshiriq. Ta’lim jarayonida o‘quv rejadan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini SWOT tahlili asosida tushiring.

“SWOT-tahlil” metodi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs – munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv seminari yakunida, yoki o‘quv rejasi asosida biron bir bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrlarini himoya qilishga,

erkin fikirlash va o‘z fikrini boshkalarga o‘tkazishga , ochiq xolda baxslashishga , o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni baxslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

4-jadval. "SWOT-tahlil" metodi.

S	O‘quv rejani foydanishning o‘ziga xos, afzalliklari?	
W	O‘quv rejani foydanishning o‘ziga xos kamchiliklari?	
O	O‘quv rejasidan foydanishning imkoniyatlari?	
T	To‘siglar (tashqi)	

Mustaqil tayyorlash uchun savollar



1. Ta’lim jarayonida o‘quv rejani joriy etishdan maqsad nima?
2. O‘quv rejasiga ta’rif bering.
3. O‘zbekiston Respublikasida o‘quv rejasi qaysi tashkilot tomonidan ko‘rib chiqiladi?
4. O‘quv yurtlarining o‘quv rejasi nechi qismlardan iborat?
5. O‘zingiz kelajak rejangizni tuzing.
6. Germaniyadagi oliy ta’lim tizimi haqida nimlar bilasiz?
7. Germaniyadagi ta’lim tizimini Milliy ta’lim tizimidan farqi?
8. Germaniyada dual ta’lim - Duales Studium haqida fikringiz?
9. Ta’lim jarayoni bu-_____?
10. Ta’lim jarayonining tuzilishi?

3-Amaliy mashg‘ulot

Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi va o‘qitish natijalari

Ishning maqsadi: Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi va o‘qitish natijalariga oid bilimlarni mustahkamlash va ko‘nikmalar xosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko‘rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o‘quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: “Atamalar izohini topping”, “Assessment” metodi.

Nazariy ma’lumot

Ta’lim — bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida ma’lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta’lim tor ma’noda o‘qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli hildagi o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma’lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta’limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiylar ma’lumotga bo‘lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, Ta’lim haqidagi pedagogik g‘oyalarga qarab kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o‘zgarib boradi.

Ta’lim mohiyati e’tibori bilan dars berish jarayonini, ya’ni pedagog (o‘qituvchi) faoliyatini, umuman o‘quvchining bilish, o‘rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya’ni o‘quvchi faoliyatini bildiradi.

Ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi — o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi: kishilarning ijtimoiy tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi.

Ta’lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba’zi nazariyalar ta’limni jamiyatning ijtimoiyiqtisodiy tuzilishiga bog‘liq bo‘Imagan hodisa sifatida baholasalar, ba’zisi ta’limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a’zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy,

huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta'kidlaydi.

Ta'larning maqsadi - ob'yektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi, ta'larning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish kobiliyatları, his tuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiytexnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Ta'larning tizimining barcha yo'nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shartsharoit, fan va texnika, san'at holati va shu kabini hisobga olgan holda belgilanadi. Ta'lim mazmuni o'quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi.

Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoniga binoan Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar amlga oshirildi.

2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloq qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, professional ta'lim dasturlari YUNESKO taskiloti tomonidan qabul qilingan Ta'larning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rinn egallashlariga haqida aytib o'tildi.

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rtalik va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va

raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalg qilish ko'zda tutildi.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rnlarda — Xalqaro tasniflagich) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etilishini ta'kidlab o'tildi.

Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma'ruza, suqbat, tajribalar o'tkazish, ko'rgazmali qurollarni qo'llash, kuzatish, mashq va shu kabi)dan foydalaniлади. O'quv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qo'llash Ta'lim metodini ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim maqsadlarini taksonomiyasi asossida tashkil etish — "Taksonomiya" atamasi yunonca taxis (tartib bo'yicha joylasuv) va nomos (qonun) so'zlaridan iborat bo'lib, ob'ektlarni o'zar aloqadorlik asosida tasniflas va tizimlastiris ma'nosini anglatadi. Blum taksonomiyasi o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakat)li.

Kognitiv soha.

- Bunga mavjud bilimlarni qayta tafakkurlas. ularni o'zlastirilgan harakat usullari bilan chag'istiris, ya'ni g'oyalar tuzis zaruriyatiga tegisli o'quv maqsadlari kiritiladi. Ular o'quvchining kundalik faoliyati uchun kerakli hisoblanib, o'quv dasturi va darsliklarda o'z ifodasini topadi.

Affektiv soha

- Bunga qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, u yoki bu sezgilar ta'sirida hayajonlanis, munosabatni shakllantirish, uni faoliyat davomida anglas va yuzaga chiqaris maqsadlari kiritiladi. Ob'ektiv borliqqa bo'lgan hayajonli-shaxsiy munosabatlarni shakllantirish maqsadlari bu sohaning asosini tashkil etadi.

Psixomotorli soha

- Bunga u yoki bu motorli, manipulyativ faoliyat turlarini, asab muskullarni markazlastiris ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar kiritiladi. Misol uchun, mehnat ta'limi dasturida belgilangan o'quv maqsadlari aynan shu sohaga tegislidir.

5- rasm. Blum taksonomiyasi bisqichlari.

Blum taksonomiyasini quyidagi to‘rt printsip asosida qurilgan:



amaly: o‘qutuvchi-amaliyotchi uchun taksonomiya samarali qurob bo‘lishi, o‘zida maqsadlar ierarxiyasini ifodalasi lozim;

psixologik: taksonomiya zamonaliviy psixologiya fani yutuqlariga tayanishi lozim;

mantiqiy: taksonomiya mantiqiy tugallangan va muayyan icki tuzilmaga ega bo‘lisi lozim;

ob‘ektivlik: maqsadlar ierarxiyasi ular qadriyatlari ierarxiyasini belgilamaydi.

6 – rasm. Blum taksonomiyasini to‘rt printsipi.

Ayni shu prinsiplarga tayangan holda o‘quv faoliyatining yuqorida ta’kidlangan turlari bo‘yicha o‘quv maqsadlari taksonomiyasi yaratildi. Ma’lumki, pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati oldindan o‘rnatilgan maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o‘quv jarayonini loyihalash va amalga oshirishdir. Ta’limni maqsadga ketma-ket yo‘naltirish asosi tezkor tezkari aloqa hisoblanib o‘quv jarayonining barca bo‘g‘inlariga kirib boradi.

Shu boisdan ta’limga texnologik yondashuvda quyidagilar ajralib turadi:

- maqsadlarni o‘rganish va ularni mumkin qadar aniqlastirish (bu bosqichga o‘qituvchi birinci darajali ahamiyat beradi);
- butun o‘qish jarayonini o‘quv maqsadlariga qat’iyan qaratish;
- o‘quv maqsadlarini mo‘ljallash va shu tariqa natijalarni qo‘lga kiritishga butun o‘quv davomiyligini yo‘naltirish;
- joriy natijalarni baholash, o‘rnatilgan maqsadlarga erishish borasida o‘qitish jarayonini tuzatish;
- natijalarni yakuniy baholash.

O‘quv jarayonini texnologik jihatdan qurishing mohiyati aniq belgilangan maqsadlar sari harakatlanish hisoblanadi. Quyida bugungi kunda birmuncha keng tarqalgan Blum tizimining kognitiv sohasi bo‘yicha o‘quv maqsadlari taksonomiyasini keltiramiz. U o‘zida olti toifadagi asosiy o‘quv maqsadlarini qamrab oladi: bilish, anglash, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash.

Bilish. Bu daraja o‘quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib yetish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan o‘quv maqsadlarini

islab chiqishni ko‘zda tutadi. Bu darajadagi maqsadga uch toifadagi bilimlarni shakllantirishni kiritis mumkin:

- xususiyatlari bilimlar (masalan, muddatlar, faktlar, sonlar, atamalar, nomlar);
- mulohazali bilimlar (masalan, yo‘nalislardan, mezonlar, sinflar, toifalar);
- abstrakt bilimlar (masalan, printsiplar, aksiomalar, teoremlar, umumlasmalar, nazariyalar, tuzilmalar).

Anglash. Bu daraja o‘zida uch toifadagi o‘quv maqsadlarini mujassamlashtiradi:

- ko‘chirish (yangi vaziyatlarni o‘rganishda bilimlarni qo‘llash ko‘nikmasi);
- interpretatsiya (masalan, hisoblasda qo‘lga kiritilgan natijani og‘zaki tusuntirib berish);
- ekstropolyatsiya (masalan, egallangan bilimlarni o‘xshash vaziyatlarga ko‘chirish ko‘nikmasi).

Qo‘llash. Bu daraja, asosan, o‘quvchida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishini nazarda tutadi (bilimlarni amaliyatga qo‘llash qobiliyati):

- tushunchalarni qo‘llash;
- algoritmlarni qo‘llash;
- nazariyalarni qo‘llash va hokazo.

Tahlil. Bu daraja o‘quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo‘yicha aniqlastiradi:

- unsurlar tahlili (butunni qismlarga bo‘lish, ajratish);
- munosabatlar tahlili (unsurlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish);
- tamoyillar tahlili (unsurlarni tizimlastirish).

Sintezlash. Bu daraja “alohida qismlardan yaxlitini tuzish” ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha o‘quv maqsadlarini belgilaydi:

- g‘oyalar sintezi (masalan, muammo yechimi bo‘yicha bildirilgan g‘oyalarning umumlashishi);
- mulohazalar sintezi (masalan, shaxs sifatlarining sakllanganlik darajalari, mezonlarini ishlab chiqish);
- tuzilma sintezi (masalan, ob’ekt ko‘rinishi chizmasi, koordinat yordamida funktsiyani ifodalas).

Baholash. Bu toifa muayyan maqsad uchun u yoki bu materialarning ahamiyatini baholash ko‘nikmalarini nazarda tutadi. O‘quvchi mulohazasi aniq mezonlarga tayanishi zarur. Baholash sifatida

icki bilish va ishonchlar (argumentlash, mantiq) hamda tashqi mezonlar (standartlar, qoida, me'yorlar)ga tayaniladi. Mezonlarni o'quvchining o'zi aniqlashi yoki tashqi tomondan berilishi mumkin. Bu daraja oldingi toifalar bo'yicha o'quv natijalariga erishganligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Shunday qilib, har qanday o'quv predmeti maqsadlarini usbu taksonomiya asosida aniqlashtiris mumkin. Buning uchun o'quv predmetlarining mavzu (bo'limlari vertikal ustunga yoziladi. O'quvchilarning aqliy faoliyati turlari esa gorizontal ustunda qayd etiladi. Ular mantiqiy asosda ma'lum chorrahada kesishadi va joriy o'quv maqsadiga erishish darajasi (bilish, aniqlash, qo'llash, tahlil) aniqlashtiriladi.

Fransiya ta'lim tizimi maqsadlari va o'qitish natijalaridan namunalar

Zamonaviy hayotni axbororlashtirish jarayoni iqtisodiy ko'rsatkichlarni, ijtimoiy-siyosiy tizimlarni, turli mamlakatlarning madaniy modellarini taqqoslashga bo'lgan qiziqishni kuchayishiga olib keladi. Xalqlar va millatlarning yaqinlashishi, Evropaning birlashgan jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichining yaratilishi odamlar o'zaro bog'liqligini his qilish bilan tavsiflanadi. Jahon sivilizatsiyasini shakllantirishning ushbu murakkab jarayonida ta'lim juda katta rol o'ynaydi. So'nggi yillarda jahon hamjamiyati uning rivojlanish jarayonlarini tezlashtirish tendentsiyalarini aniqladi. 70-80 yillarda Evropa davlatlarini qamrab olgan ta'lim islohotlari to'lqini XXI asr yangi kuchga ega bo'ldi. Bu, ayniqsa, milliy ta'lim tizimlarining xalqaro integratsiyasida, eng yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng joriy etishda, oliy ta'lim tizimini ishlash texnologiyasini yangi bosqichga o'tishida namoyon bo'ldi. Yangi bilim va ko'nikmalar zamonaviy Evropa fuqarolari va jamiyatlari uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lib, bu bir tomondan, ta'lim sifati va ta'lim tizimlarining xilma-xillagini oshirish imkoniyatlarini yaratadi, boshqa tomondan rivojlanishning umumiy yo'llarini izlashga olib keladi.

Fransiya “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni

Fransiya Respublikasi rivojlangan davlat sifatida tanilgan bo‘lib, unda fuqarolar ta’limiga asosiy o‘rin berilgan. Siz tez-tez namoyishlarga chiqadigan va o‘z huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadigan “talabalar mamlakati” sifatida Fransiya haqida eshitgan bo‘lishingiz mumkin.

Darhaqiqat, fransuzlar ta’limni qadrlashadi va erkin millatning asosiy yutuqlaridan biri deb bilishadi. Ayni paytda mamlakatda 70 mingdan ortiq turli xil ta’lim muassasalari mavjud.

Frantsiyada o‘qish masalasi siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning har biri qonun amalda ijro etiladi.

Aytishimiz mumkinki, Fransiyada ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar tubdan isloh qilindi va undan oldin ular 100 dan ortiq alohida maqolalar shaklida mavjud bo‘lib, ularning aksariyati XIX asrda yaratilgan. Ularning asosiy kamchiliklari huquqiy hujjatlarni qabul qilishning tarqoqligi edi. Bugun biz Frantsiyadagi ta’lim to‘g‘risidagi yagona qonunchilik tizimi haqida gaplashishimiz mumkin, bu mактабдан boshlab yoshlarning bilim olishning barcha bosqichlari to‘g‘risida alohida maqolalarni o‘z ichiga oladi. Normativ-huquqiy hujjatlar orasida, masalan, “Yoshlarni ish bilan ta’minlash to‘g‘risida” gi qonunni yoki “Irqiylar xususiyatlarni kiyishni taqиqlash to‘g‘risida” ni aytish mumkin.

Fransiyaning “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda “Har kimga har xil turdagи mактабда ta’limi olish imkoniyatiga ega” ekanli nazarda tutilgan. Ushbu qonunning mazmuni o‘sha paytdagi hukumatning zamonaviy liberalizmni qurish va ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiya qilish istagiga mos keladi. Ushbu qonunning qabul qilinishi mактab o‘quvchilarini bog‘chasi sinfidan boshlab “tez” va “sekin” deb ikki guruhga bo‘lish zaruratini tug‘dirdi. Kelajakda engil dasturlarni va kechikayotgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini joriy etildi.

Fransiyada ta’lim tizimidagi islohatlatlar

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Fransiya ta’limining asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga

tayyorlash, bozor munosabatlarining kamol topishini taminlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash bozor munosabati sharoitida o'quvchilarni tadbirdorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish va shunga xos kasbga yo'naltirishdan iborat. Boshlang'ich sinflardagi o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi.

Fransiyada boshlang'ich ta'lif maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etiladi. Fransuz maktablarida nafosat ta'lifiga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunday ta'lif uch tartibdan iborat: musiqa, tasviriy sanat va sport. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar.

Fransiyada oliy ta'lif professional ta'lif berish keyingi 20 yil davomida qaror topdi. Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Fransiya ta'lif tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalar ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda va liseylarda turli to'garaklar mavjud. O'quvchilar uchun turli sport seksiyalari sayohatlar, musobaqalar o'quv muassasasining o'zida tashkil etiladi. Fransuz yoshlari, Fransiyaga bilim olish uchun kelgan chet el fuqarolari quyidagi bilim maskanlarida oliy ma'lumot oladilar:

- universitetlar;
- oliy texnologiya maktablari;
- oliy muhandislik maktablari;
- oliy arxitektura maktablari;
- oliy tijorat maktablari;
- siyosiy fanlar oliy maktabi;
- oliy pedagogik va filologiya bilimgohlari;
- oliy tibbiyot o'quv muassasalar;
- oliy badiiy maktablar;
- uzlusiz ta'lif [malaka oshirish].

Oliy ta'lif beruvchi universitetlar o'z talabalariga uch siklda bilim beradilar. Birinchi sikl umumiy yoki biror texnik yoki ilmiy sohada oliy ma'lumot olish bilan yakunlanib, o'qish ikki yil davom etadi. Talabalar uni metriz, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Uchinchi siklda o'qish bir ikki yil davom etadi.

- biron-bir predmetni chuqurlashtirib o'rganilganligi haqida diplom (bir yil);
- ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot t o'g'risida diplom (bir yil);
- uchinchi sikl doktorlik dissertasiyasi (bir, ikki yil);

Davlat doktorlik dissertasiyasi-biron-bir sohani mukammal o'rganib, dissertasiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O'qish muddati 2 yil b o'lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O'qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko'zda tutilgan.

Fransiyada mingdan ortiq ana shunday insitutlar faoliyat ko'rsatib, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishi, san'at, informatika, ma'muriy boshqaruv, buxgalterlik hisobi, amaliy san'at bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday insitutlarga kirish imtixonsiz amalga oshiriladi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Biz qizil va ko'k ranglar birikmasini yomon qabul qilamiz. Buranglar ko'pgina milliy bayroqlarda ishlatilsada, qizil va ko'kranglar bir-biriga yaqin turganida bizning ko'zlarimiz buni og'ir qabul qiladi. Bu ba'zi ranglar "ustunturishi" va boshqasi yo'qolib qolishiga olib keluvchi "xromostereopsis" nomli ta'siroq oqibatida sodirbo'ladi. Bu ko'zlarining qizishini va charchashini keltirib chiqaradi. Ko'pincha bu ta'sir qizil va ko'k hamda qizil va yashil ranglar birikishida yuzaga keladi.




7 – rasm. Ranglar birikmasidan hosil bo'gan rang.

Amaliy ishni bajarish tartibi

“Atamalar izohini toping”

1-Topshiriq Ta’lim, ta’lim mazmuni, ta’lim jarayoni nima? Ushbu so‘zlarning tahlilini qisqacha izohini yozing.Berilgan mavzuga oid so‘zlarga lug‘atlar ososida ta’rif yozasiz.

- **Ta’lim nima?**
- **Ta’lim mazmuni nima ?**
- **Ta’lim jarayoni nima ?**



2-Topshiriq Blum tizimining kognitiv sohasi bo‘yicha o‘quv maqsadlari taksonomiyasini maqsadi nima?

“ASSESSMENT” metodi

“Assesment” inglizcha “assessment” so‘zidan olingan bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshirig‘i, bahs- munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;
- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istikbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

TEST	TA'RIF
QIYOSLASH	MUAMMOLI VAZIYAT



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

- 1.Ta'limning maqsadi deganda nimani tushunasiz (FSMU) texnologiyasi yordamida tushuntirib bering.
- 2.Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun nimalar
- 3.Ta'lim maqsadlarini taksonomiyasi asosida tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
4. Blum taksonomiyasi quyidagi nechta printsip asosida qurilgan?
5. Sintezlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
6. Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun nima qilish kerak?
7. Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish sabablari?

4-Amaliy mashg'ulot

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik nazorat

Ishning maqsadi: Oliy ta'lim muassasasi talabalariga zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog nazorati qanday tashkil estishga oid bilimlarni mustahkamlash va ko'nikma xosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qullar, proyektor, kompyuter, elektron doska, zamonaviy (xususan, interfaol) ta'lif usullari, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lif usullari: "BBB (Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim)" metodi, "Venn diagrammasi" metodi.

Nazariy ma'lumot

Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lif sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

1. Ta'lif jarayonida pedagogik nazoratning asosiy vazifalariga quyidagi gilardan kiradi:

- talabalarda Davlat ta'lif standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

- talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lif standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylilik, ishonchlik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

- fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari va elektron manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

- talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzlusiz tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga, ya'ni ma'lumotlar bazasini shakllantirishga sharoit yaratish.

2. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

3. Fanlar bo'yicha reyting nazoratlari jadvali har bir professor o'qituvchi tomonidan fan dasturi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nazorat turi, soni va ularni o'tkazish muddatlari, baholash mezonlarini o'z ichiga olgan holda ishlab chiqiladi.

Pedagogik va axborot texnologiyalarining ta'lif jarayoniga joriy etilishi ta'lif vositalarining yangi avlodni va ta'lifning so'nggi turlari ko'rinishida o'z mohiyatiga ega bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Bugungi

kunda ta'lif jarayonida foydalanilayotgan an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha o'quv vositalari deb hisoblangan barcha multimedia o'quv uslubiy elektron mahsulotlar shular jumlasidandir. O'quv-uslubiy elektron mahsulotlarning imkoniyatlari va kiritilgan ma'lumotlar asosida turlarga ajratish mumkin.


Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

1. Nazorat turlari, jumladan JN va ON larni o'tkazish tartibi va mezonlari, fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan reyting nazoratlari jadvali kafedra mudiri tavsiyasi bilan fakultet o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birlgilikda ko'rsariladi.
2. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda dars olib boradigan professor-o'qituvchi tomonidan talabalarga e'lon qilinadi va ularning daftarlari yozdirib qo'yiladi.

3. Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lif standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

Joriy nazorat –talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda:

- seminar;
- laboratoriya;
- uy vazifa tekshirish;
- amaliy mashg'ulot;
- test o'tkazish;
- suhbat;
- nazorat ishi;



9 – rasm. Nazorat turlari amalga oshirish tartibi.

Joriy nazoratlar soni fan bo'yicha amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Oraliq nazorat-semestr davomida o'quv dasturining (tegishli fanning bir necha mavzulvarini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni (bir semetrdan ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test, prezентatsiya va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi.

Masalan: semest davomida haftasiga 2 soatli fan bo'yicha 1 ta oraliq nazorat, haftasiga 4 yoki 6 soatli fan bo'yicha 2 ta oraliq nazorat belgilash maqsadga muvofiq.

Yakuniy nazorat -semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ta'lrim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori bilan ko'pi bilan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining 40 %dan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.

4. Oraliq nazoratlarni o'tkazish jarayoni har bir kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida doimiy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartibi buzilgan hollarda oraliq nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

5. Universitet rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni doimiy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi. Bunday hollarda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

6. Reyting jadvalida ko'rsatilgan nazorat natijalarini kafedra majlisida muxokama qilish va tegishli qaror qabul qilib borish kafedra mudiri zimmasiga yuklatiladi.

7. O'quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra talabalarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida o'rnatilgan tartibda qaror qabul qilinadi.

Yaponiya ta’lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Yaponiya ta’lim tizimida maktab yillari 6-3-3-4 ni tashkil etadi: 6 yillik boshlang‘ich maktab bo‘yicha segmentlanadi; 3 yosh o‘rtalik maktab; 3 yillik o‘rtalik maxsus maktab; va 4 yil universitet. Biroq, hukumat, (2005 yil, oktyabr, kundalik Yomiuri), maktablar boshlang‘ich va o‘rtalik maktablar o‘rtasida 6-3 bo‘linishni birlashtirishga va integratsiyalashgan o‘quv dasturini yaratishga ruxsat berish uchun Ta’lim Qonuniga o‘zgartirish kiritishni maqsad qilganini e’lon qildi. Ushbu o‘zgarishning asosiy maqsadi – boshlang‘ich va o‘rtalik maktablarga o‘zlarining resurslarini to‘plash yoki almashish imkonini berish, ayniqsa, o‘rtalik maktablarning mutaxassis o‘qituvchilarini boshlang‘ich maktablarga tayyorlashda iborat.

Biroq ko‘plab xususiy maktablar o‘rtalik maktabni qamrab olgan olti yillik dasturni taklif qiladi. Ixtisoslashgan maktablar o‘rtalik maktab va ikki yillik kollejdan tashkil topgan besh yillik dasturni taklif qilishlari mumkin. Yuqori ta’lim uchun ikki variant mavjud: o‘rtalik (ikki yil) va universitet (to‘rt yil). Maktab yilida uchta shart mavjud: yoz, qish va bahor, ularning har biri ta’til davri. O‘quv yili aprelda boshlanadi va keyingi yil mart oyida tugaydi. Boshlang‘ich maktab (6 yoshgacha) va o‘rtalik maktab (3 yil) ta’limi, ya’ni to‘qqiz yillik ta’lim majburiy hisoblanadi. Ikkinchisi jahon urushidan keyin 1947 yil mart oyida qabul qilingan Maktab ta’limi qonuni tomonidan amalga oshirilgan ushbu tizim, kelib chiqishi Amerikaning 6-3-3 va 4 yillik universitet modeliga ega. Biroq, Yaponiya ta’lim tizimining boshqa ko‘plab xususiyatlari, Yevropa modellariga asoslangan.

Majburiy ta’lim, boshlang‘ich va o‘rtalik maktabni o‘z ichiga oladi. O‘tmishdagi tanaffus, bugungi kunda Yaponiyada zamonaviy davlat maktablarida asosan (99% dan ortiq boshlang‘ich maktablar) ish olib boradi. Yapon maktab yili aprel oyida boshlanadi va talabalar qisqa muddatli bahor va qishki tanaffuslardan va bir oylik yozgi ta’tildan tashqari, uch marta maktabga boradilar.

Yaponiyada ta’lim tizimining umumiy xususiyatlari

- maktabgacha ta’lim;
- maktab ta’limi;
- Yaponiyada maktab ta’limi dasturi;
- Yaponiyada maxsus ta’lim;
- imtihonlar;
- Yaponiyada oliy ma’lumot;
- chet elliklar uchun ta’lim.

Yaponiyadagi ta'lim tizimi ko'p jihatdan boshqa rivojlangan G'arb mamlakatlaridagi ta'lim tizimiga o'xshashdir. Shunga qaramay, Yaponiya ushbu mamlakatni ko'plab odamlar uchun qiziqarli qiladigan ta'lim tizimining ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yaponiy ta'lim tizimi olib borilyotgan islohatlar

Inson faoliyatining har qanday sohasidagi taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bu jahon tajribasining tahlil qilishdir. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida chet ellarda ta'limning rivojlanishini o'rganish va tahlil qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga asoslanib, Yaponiyadagi zamonaviy ta'lim tizimining xususiyatlarini yoritamiz.

Yaponiyada ta'lim tizimiga quyidagilar kiradi:

- ixtiyoriy qadam - bolalar bog'chasi;
- boshlang'ich, o'rta va o'rta maktablarga bo'lingan mактаб та'лими
- bir xususiyat shundaki, o'rta maktabdan keyin siz turli xil maxsus maktablar va texnologiya kollejlariga borishingiz mumkin;
- universitetlar va universitetdan tashqari sektorlarga bo'lingan oliv ta'lim.

Keling, ta'limning har bir bosqichini batafsil ko'rib chiqaylik.

Maktabgacha ta'lim. Yaponiyada bolalar bog'chasi majburiy ta'lim bosqichi emas. Bolalar bu erga ota-onalarining iltimosiga binoan keladilar - odatda to'rt yoshdan.

Yaponiyadagi barcha bolalar bog'chalari xususiyidir. Ular orasida nufuzli universitetlarning qaramog'ida bo'lgan elita bog'lari alohida o'ren egallaydi. Agar bola bunday bolalar bog'chasiga tushib qolsa, uning kelajagi xavfsiz deb hisoblanishi mumkin: u tegishli yoshga etgach, universitet maktabiga boradi va u erdan universitetga imtihonsiz kiradi. Yaponiyada ta'lim sohasida keskin raqobat mavjud: universitet diplomi nufuzli, yaxshi maoshli ish - vazirlikda yoki biron bir taniqli kompaniyada ishlashning kafolati hisoblanadi. Va bu, o'z navbatida, martaba o'sishi va moddiy farovonlikning kalitidir. Shuning uchun nufuzli universitetda bolalar bog'chasiga kirish juda qiyin. Ota-onalar bolani qabul qilish uchun juda ko'p pul to'laydilar va asrab olinadigan bolaning o'zi juda murakkab sinovdan o'tishi kerak.

Bolalarning o'zaro munosabatlarini o'rgatadigan yapon o'qituvchilari ularni kichik guruhlarga (xonlarga) birlashtiradilar, bu maktabgacha ta'limni tashkil etishning eng muhim farqlovchi xususiyati. Bu guruhlar o'zlarining qobiliyatlariga emas, balki ularning faoliyatini samarali qilishga qodir bo'lgan narsalarga ko'ra

shakllantiriladi. Har yili guruhlar qayta tuziladi. Bolalar tarkibidagi doimiy o'zgarish bolalarni sotsializatsiya uchun eng keng imkoniyatlarni taqdim etishga urinish bilan bog'liq. Agar bola ma'lum bir guruhda munosabatlarga ega bo'lmasa, u boshqa bolalar orasida do'st orttirish ehtimoli mavjud emas.

Yaponiyada oliy ma'lumot olish

Oliy ta'lim tizimiga quyidagi to'rt asosiy ta'lim muassasalari kiradi:

- 1) to'liq tsikl (4 yil) va tezlashtirilgan tsikl (2 yil) universitetlari;
- 2) kasb-hunar kollejlari;
- 3) maxsus ta'lim maktablari (texnologik institutlar);
- 4) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim maktablari (magistratura dasturlari).

Ehtimol, Yaponiya oliy ta'lim tizimining asosiy farqlovchi xususiyati uning ierarxiyasi. Qattiq ierarxiyalar (ko'pincha "rad qilish", ya'ni avtonom ravishda va bir-biridan mustaqil ravishda) universitet va universitetdan tashqari sektorlarni qamrab oladi.

Universitetdan tashqari sektor, aslida "ikkinchi darajali universitetlar" bo'lib, ular ta'lim funksiyalaridan tashqari ko'proq ijtimoiy vazifalarni bajaradilar. Huquqiy jihatdan, ikki yoki uch yillik o'qish kursiga ega bo'lgan kichik kollejlar to'liq huquqli universitetlar hisoblanadi, ammo ularning diplomlarining amaldagi tayyorgarligi va nufuzi oliy ma'lumot darajasiga mos kelmaydi.

Texnologik kollejlar o'rta texnik xodimlarni majburiy to'qqiz yillik maktab asosida tayyorlaydi va ko'p jihatdan bizning texnik maktablarimizga mos keladi.

Aslida, bitiruvchilarga nisbatan kamsitilmaydigan va mehnat bozorida narxlar belgilanmagan yagona to'liq universitet to'liq siklli universitetlardir. Ushbu universitetlar ierarxiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Nihon, Vaseda, Keio yoki Tokai universiteti kabi ba'zi nufuzli xususiy universitetlar. Ularning bitiruvchilari yapon menejmenti va siyosatining eng yuqori sinfini tashkil etadi. Tegishli tayyorgarlik va tavsiyalarsiz bunday universitetga kirish deyarli imkonsiz, ammo ularning diplomlari baholaridan va ko'pincha mutaxassisligidan qat'iy nazar muvaffaqiyatli ishlashning 100% kafolati hisoblanadi.

2. Davlat universitetlari birinchi o'rinni egalladi (Tokio Texnologiya Institut yoki Yokogama Davlat Universiteti). Bu erda o'qish ancha past, ammo raqobat juda yuqori.

3. Ko‘pincha prefekturalar va mahalliy hokimiyatlar tomonidan tashkil etilgan boshqa davlat universitetlari. Kam o‘qish va o‘rtacha raqobat.

4. Kichik xususiy universitetlar. O‘qish narxi yuqori, raqobat past, nufuzli diplom va kafolatlanmagan ish bilan.

Yaponiyadagi aspirantura va aspirantura nisbiy avtonomiyaga ega universitetlarda joylashgan aspirantura maktablariga birlashtirilgan. Yaponiyadagi asosiy ilmiy manbalar ekanligi qiziq maxsus magistraturada o‘qitish uchun foydalanilgan, shu bilan birga bakalavriyatda o‘qitish darajasi pastligicha qolmoqda.

Yaponiya bakalavriati asosan tizimni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni “onlayn” bitirishga, magistratura esa uning rivojlanishini loyihalashga qodir tashabbuskor tahlilchilarni chiqarishga qaratilgan. Texnologiyaning sakrashiga, asosan, ushbu vazifalar taqsimoti va aspiranturaning muvaffaqiyatli rivojlanishi tufayli erishildi.

Yaponiyadagi ta’lim tizimi nisbatan yosh bo‘lishiga qaramay, u nafaqat Tinch okeani mintaqasida, balki butun dunyoda eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. Yaponlar, pedagogik fanning barcha so‘nggi yutuqlarini yapon jamiyatini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini uyg‘unlashtirgan holda, o‘z mamlakatlariga nafaqat ta’sirchan iqtisodiy o‘sishni, balki ancha yuqori turmush darajasini ham ta’minlay oldilar. Ular yuqori darajadagi avtomatlashtirishga ega bo‘lgan mamlakatda samarali ta’lim tizimi nafaqat majburiy, balki juda muhim ekanligini anglashdi. Shu sababli, ishonch bilan ayta olamizki, ushbu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi ulushi yaxshi shakllangan ta’lim tizimining natijasidir.

Qiziqarli ma’lumotlar

Siz kelajakdagи hodisalarga bo‘lgan reaksiyangizni haddan tashqari baholaysiz. Biz kelajakni unchalik yaxshi baholay olmaymiz. Aniqrog‘i, Biz kelajakda sodir bo‘ladigan hodisalarga, xoh u yaxshi, xoh u yomon bo‘lsin, haddan ziyod baho beramiz.

Tadqiqotlarga ko‘ra, odamlar turmush qurish yoki yirik yutuq kabi musbat voqealar bizni baxtliroq qiladi, haqiqatda uncjalik bo‘lmasa ham. Xuddi shunday, negativ hodisalar, ishdan ozod bo‘lish yoki favqulodda holat kabilar bizda, haqiqatdagidan ko‘ra ancha ko‘proq tushkunlikka olib keladi deb o‘ylaymiz.



10 – rasm.

Amaliy ishni bajarish tartibi

“BBB (Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim)” metodi


1-Topshiriq. “BBB (Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim)” metodi asosida mavzuni tahlil qiling. BBB treyningi muayyan mavzular bo‘yicha olgan bilim darajasini baholashga yordam beradi. Usuldan foydalanish quyidagi bosqichlarda amlaga oshiriladi:

- olgan bilimi bo‘yicha tushunchaga egalik darajasi aniqlanadi;
- mavzu bo‘yicha bilimlarni boyitishga bo‘lgan ehtiyoji o‘rganiladi;
- talaba olgan bilimi bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi va o‘zi xulosa chiqaradi.

4 –jadval. BBB metodi.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

**2-Topshiriq Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizni kalit so‘zlarini
“Venn diagrammasi” metodida tahlil qiling.**



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Ta’lim jarayonida pedagogik nazoratning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
2. Fanlar bo‘yicha talabalar bilimini baholashning mezonlari nimalar?
3. Fanlar bo‘yicha reyting nazoratlari jadvali professor o‘qituvchi tomonidan qaysi xususiyatlaridan kelib chiqib baholanadi?
4. Nazorat turlari va uni qanday amalga oshiradi?
5. Reyting nazorat natijalari qayerda e’lon qilinadi?
6. Yaponiyada oliy ma’lumot olish tartibi?
7. Yaponiy ta’lim tizimi olib borilyotgan islohatlar?
8. Yaponiyada ta’lim tizimining umumiyl xususiyatlari?
9. Yaponiya oliy ta’lim tizimining asosiy farqlovchi xususiyati uning ierarxiyas?
10. Yaponiya ta’lim sohasida keskin raqobatda izoh bering?

*Bilim odamiing ijodiy maqsadlariga
xizmat etmog'i lozim. Bilim orttirishning
o'zi kifoya emas, uni iloji boricha keng
yoymoq va hayotga tatbiq etmoq zarur.
Rubakin.*

II - MODUL. TA'LIM SIFATINI BAHOLASH

5 -Amaliy mashg'ulot

Ta'lism sifati tushunchasi. Baho sifatni boshqarish elementi sifatida

Ishning maqsadi: Ta'lism sifati tushunchasi va baho sifatni boshqarish elementi mezonlariniga oid bilimlarini mustahkamlash va ko'nikma hosil qilish.

Mashg'ulotda foydalilaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lism usullari: T- jadval, Esse metodi, SWOT tahlil metodlari.

Nazariy ma'lumot

Ta'lism sifatini nazorat qilish boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanib, uning asosiy vazifasi ta'lism sifatini davlat ta'lism standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va universitetdagi o'quv jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida nazoratni tashkil etish bo'yicha maqsadli va kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lism tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida ta'lism sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzlusiz ta'lism tizimida ta'lism sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va O'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida "O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagi 515-sonli qarori qabul qilindi. Qarorning 14-bandida Respublikadagi barcha oliy ta’lim muassasalari tarkibida ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limlari tashkil etilishi nazarda tutilgan. Yuqoridagi qarordan kelib chiqib “Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi” tashkil qilindi.

Baho sifatni boshqarish, baholash tartibi va mezonlari

Talabalarning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo‘yicha talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball nazorat turlari bo‘yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga taqsimlanadi:

- yakuniy nazoratga 30 ball;
- joriy va oraliq nazoratlarga - 70 ball.

Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi 100 ballik tizimda baholanadi.

1. Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo‘lish.

b) 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;

- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

v) 56-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo'li g)

g) Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- javoblarda xatoliklarga yo'l qo'yilganlik;
- bilmaslik.

2. Professor-o'qituvchilar tomonidan muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo'yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga yetkaziladi.

3. Yakuniy nazoratlar uchun baholash mezonlari va topshiriqlari kafedralar tomonidan ishlab chiqilib, fakultetlar Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

5. Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O}{100}$$

bu yerda:

V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);
O'- fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

6. Fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 foizi saralash bali etib belgilanadi.

Joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning saralash bali 55 foizdan ortiq ball to'plagan barcha talabalar ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

Agar talaba yakuniy nazoratda shu nazorat turi bo'yicha saralash balidan yuqori ball to'plasa, bu ball joriy va oraliq nazoratlarda to'plangan ballarga qo'shiladi. Aks holda talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi faqat joriy va oraliq nazoratlarning ballari

yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yigindisiga teng.

Joriy baholash mezonlari

Laboratoriya ishini baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

- mustaqil nazariy tayyorgarlik darajasi (konspekt, og‘zaki savol-javob);
 - ishni bajarishdan maqsad va bajarish tartibini bilish;
 - ishni bajarish jarayonida olingan natijalar asosida hisoblashlarning to‘g‘ri amalga oshirilganligi;
 - olingan natijalarni tahlil qilish orqali chiqarilgan xulosalarning ilmiyligi.

1. Amaliy mashg‘ulotlardagi baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

- mustaqil nazariy tayyorgarlik darajasi;
- amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini bajarish jarayonida nazariy bilimlarni to‘g‘ri qo‘llay bilganligi (kerakli formula, qonuniyatlar to‘g‘ri ishlatalganligi).

2. Seminar mashg‘ulotlarini baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

- seminar mavzusi doirasida ko‘rsatilgan savollar bo‘yicha konspektning mavjudligi;
- mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanganligi;
- tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha adabiyotlardan (darslik, davriy matbuot, Internetdan olingan ma’lumotlar va hokazo) foydalanganligi;
- seminar rejasida qo‘yilgan savollarga javoblarning aniq, ilmiy asoslanganligi;
- har bir savol bo‘yicha xulosalarning to‘g‘riligi.

3. Oralik baholash mezonlari:

- fanning OB uchun belgilangan bo‘limi yoki qismi bo‘yicha nazariy bilimlarning to‘la o‘zlashtirilganlik darajasi;
- olingan nazariy bilimlarni qo‘llay bilish ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi;
- qo‘yilgan savollarga berilgan javoblarning ilmiy asoslanganligi;
- o‘tilgan mavzular bo‘yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etganligi;

- tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari, qo'shimcha manbalardan foydalanilganligi;

4. Yakuniy baholash mezonlari:

- fan bo'yicha nazariy bilimlarning to'la o'zlashtirganlik darajasi;
- olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilish ko'nikmalarining shakllanganligi;
- qo'yilgan savollarga berilgan javoblarning aniq va lo'nda ilmiy asoslanganligi;
- o'tilgan fan bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanganligi;
- tavsiya etilgan adabiyotlar va qo'shimcha manbalarni o'zlashtirganligi.

Xitoyda oliy ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Xitoyda oliy o'quv yurtlari soni juda ham ko'p bo'lib, ular soni yuzdan oshadi. Xitoy universitetlarida ta'limning mohiyati zamonaviy Xitoyning ilm-fanning turli sohalarida o'zini yanada yuksak mavqeda qadrlanganini tushuntiradi.

Garchi Xitoyda barcha o'quv muassasalari davlatga tegishli bo'lsada, hamma uchun bitta dastur mavjud emas. Universitetlar o'zlarining kurslari va o'qitish usullari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Yuzlab turli mutaxassisliklar bitta institutda o'qitilishi mumkin bo'lgan ko'pgina Yevropa va Amerika universitetlaridan farqli o'laroq, Xitoy universitetlari ixtisoslikka ega. Texnik, pedagogik, lingvistik va boshqa muassasalar mavjud. Bu yerda til, geografiya va iqtisodiy fanlar o'qitiladigan kurslar mavjud. Ba'zi universitetlarda mahalliy lahjalar, qishloq xo'jaligi, arxeologiya va demografiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Siyosatchilar va ishbilarmonlar tayyorlaydigan universitetlarda ko'proq vaqt nutq, talaffuz va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga sarflanadi. Ba'zi universitetlarda siz ixtiyoriy ravishda yapon tilini va xitoy tilidan boshqa sharq tillariga tarjima qilish xususiyatlarini o'rganishingiz mumkin.

Xitoyning har bir universiteti o'zining afzalliklariga ega. Xitoy ko'plab fakultetlarga ega eng katta universitetga va eng boy texnik bazaga ega. U Xitoyning eng go'zal bog'laridan birida, tarixiy joy — Yiheyuan xarobalari yonida joylashgan.

Xitoy tillar institutida sharqshunoslarni o'qitadigan jurnalistika fakulteti mavjud. Ishni zavq bilan birlashtirib, mashhur sayyohlik

markazida vaqt o'tkazishni istaganlarga Guangxi pedagogika universitetini tanlash tavsiya etiladi. Sinchuan universiteti Shinki tog'ining etagida joylashgan, tinch va diqqatli ta'lif olish uchun ideal joy. Biroq, undagi o'qitishning eski usullari talabalarning zamonaviy yashash sharoitlari bilan mukammal birlashtirilgan. Talabalar shaharchasida — ikki kishiga mo'ljallangan barcha qulayliklarga ega kondisjoner, telefon, televizor mavjud.

Va eng go'zal va betakror manzara, shubhasiz, Liaodong yarimorolining janubiy qismida joylashgan Dalian shahrida. Bu yerda, tog'lar etagida, dengiz qirg'og'ida siz Xitoy tilini, uning qadimiy yozuvlarini va qadimiy adabiyotni o'rganishingiz mumkin. Daliya universitetida talabalar gimnastika (Wushu va Tai Chi Chuan) va adabiy ishlar bilan shug'ullanishlari shart. Shaharning boshqa ikkita universitetida Dalyan tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilarida juda kuchli bo'lgan xalqaro savdo, huquqshunoslik, moliya ishi va iqtisodiy fanlar o'qitilmoqda.

Ta'lif yili 1 sentyabrda boshlanadi va iyul boshida tugaydi.

Xitoyning oliy ta'lif tizimining afzalliklari

Xitoyning oliy ta'lif tizimiga universitetlar, kollejlar va professional universitetlar kiradi. Aksariyat universitet va kollejlar mamlakat ta'lif va ta'lif vazirligi nazorati ostida faoliyat ko'rsatmoqda, ayrim oliy ta'lif yurtlari viloyat va shahar hokimiyati tomonidan boshqariladi.

Universitetlar uch bosqichli oliy ta'lifni ta'minlaydilar. Birinchi bosqich 4-5 yillik o'qishni o'z ichiga oladi va bakalavr darajasini berish bilan tugaydi. Ikkinchisi — 2-3 yillik o'qish uchun mo'ljallangan va magistrlik darajasi (Magistr) berilishi bilan yakunlanadi. Uchinchi bosqich 3 yillik o'qishni o'z ichiga oladi va PhDga o'xshash doktorlik ilmiy darajasini berish bilan yakunlanadi. Uni olish o'quv kursining asosiy mavzularida imtihonlarni topshirish va mustaqil ilmiy loyihami amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Ta'lifning asosiy tili — xitoymcha (garchi ba'zi magistrlik dasturlari ingliz tilida ham o'qitilishi mumkin), shuning uchun o'qitish odatda xitoymcha (o'rganish) uchun 1-2 yillik kursdan oldin olib boriladi. Til kurslariga kirish uchun tilni bilish darajasi muhim emas. Til kurslariga qabul qilish uchun arizalar sentyabrdan dekabrgacha (bahorda qabul

qilish uchun) va fevraldan iyungacha (kuzda qabul qilish uchun) qabul qilinadi.

Xitoy tilini o'zlashtirganingizdan so'ng, siz bakalavr dasturiga kirishingiz mumkin. Buning uchun siz kamida 18 yoshda bo'lishingiz va o'rta ma'lumot haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz kerak. Namunaviy hujjatlar to'plamiga ariza, transkript, tibbiy ma'lumotnomasi, pasportning nusxasi va ro'yxatdan o'tkazish to'lovini to'lash uchun to'lov topshirig'i nusxasi kiradi. Magistrlik dasturlari uchun sizga tegishli ravishda diplom nusxasi, darslik daftaridan ko'chirma, ikkita tavsiyalar (o'qituvchi yoki ish beruvchidan) kerak.

Xitoyda 2 mingdan ortiq universitet, kollej va kasb-hunar oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 9 millionga yaqin kishi ta'lim oladi.

5,5 milliondan ortiq talabalar bakalavriat dasturlarida, 300 mingga yaqin talabalar magistratura va doktoranturada o'qishadi. Mamlakatning 450 dan ortiq universitetlari chet ellik talabalarini qabul qilish huquqiga ega (Lovyus Lusyeshen). 1950 yilda chet ellik talabalar mamlakatdagi universitetlarga qabul qilinishni boshladilar. Hozirgi kunda 175 mamlakatdan 78 mingdan ortiq talabalar mamlakatning 31 viloyatidagi 360 universitetda tahsil olmoqdalar. Chet ellik talabalar soni bo'yicha yetakchi eng nufuzli universitetlar — Pekin universiteti (4 mingdan ortiq kishi) va Shanxaydagi Fudan universiteti (3 mingdan ortiq kishi). Xorijiy talabalarning 80% dan ortig'i Osiyo mamlakatlari fuqarolari.

Xitoyda ta'lim sifati tushunchasi va uning joriy etilishi

Xitoy hukumati siyosat va tizim kafolatlarini yaxshilaydi va sifatni ta'minlash va davlat boshqaruvi uchun yangi namunani yaratadi. Uzoq vaqt davomida Xitoy hukumati oliy ma'lumot uchun sifatni ta'minlash tizimini yaratishga harakat qildi. XXI-asrga qadam qo'ygandan so'ng, hukumat siyosat va qoidalar, sifatli loyihibar, monitoring va baholash bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirdi, bunda oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirishni kuchli qo'llab-quvvatladi va oliy ta'lim sifatini yaxshilashga ishonch bildirdi.

Xitoy ta'lim tizimida sifatni yaxshilash xususiyatlari

Xalqaro ekvivalentlikka ega bo'lgan uchta falsafa, shu jumladan "Talabalarga yo'naltirilgan", "Natija asosida ta'lim (OBE)" va "Sifatni doimiy yaxshilash (CQI)". UQA tizimidagi OTMlarning mas'uliyati va

avtonomligini oshirishga qaratilgan bo'lib, talabalar tajribasi va rivojlanishi institutsional yoki dastur sifatini baholashda ustuvor ahamiyatga ega ekanligiga aniqlik kiritadi.

"Besh daraja" mezonlari qabul qilinadi, ular quyidagilari:

- "ta'lismi maqsadlari uchun fitness" darajasi;
- "jamoat talablariga javob berish" darajasi;
- "fakultet va o'quv resurslarini qo'llab-quvvatlash" darajasi;
- "sifatni ta'minlash tizimining samaradorligi" darajasi;
- "talabalar va ish beruvchilarining qoniqish darajasi".

1. Bu talabaning har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish, ish qobiliyatini oshirish va ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan;

2. Talabalarning ta'lismi natijalariga nafaqat bilimga, balki ko'nikmalar, malakalar, qadriyatlar, axloq qoidalariga ham ko'proq e'tibor berish;

3. Bitiruvchilarining izlanishlarini o'rghanish va ish beruvchilarini qoniqish so'rovlariga ko'proq kirish va jarayonni nazorat qilishdan tashqari ko'proq e'tibor berish.

Xitoy ta'lismi tizimida baholashda metodikadan foydalanish

Innovatsion metodikada davriy baholash va muntazam sifat nazorati kombinatsiyasi mavjud.

- Birinchisi, sifatni kafolatlash bo'yicha xalqaro miqyosda tan olingan asosiy yondashuv, shu jumladan bir nechta bosqichlar, bir nechta darajalar va ko'plab manfaatdor tomonlarni o'z ichiga olgan professional fikrga tayanish inobatga olinadi.

- Ikkinchisi Milliy Ma'lumotlar Platformasi orqali miqdoriy baholashga tayanadi va ob'ektivroq va ma'lumotlar va dalillarga asoslangan.

Muntazam ravishda sifat nazorati asosida har xil turdag'i sifatli hisobotlar chop etildi, jumladan Oliy ta'lismi bo'yicha milliy hisobot (barcha doimiy OTMlar uchun to'liq qamrov hisoboti), muhandislik ta'limi bo'yicha milliy sifat to'g'risidagi hisobot, yangi qurilgan bakalavriat ta'limi bo'yicha milliy hisobot hisoboti. OTMlar, Bakalavriat ta'limi bo'yicha milliy sifat to'g'risidagi hisobot, xususiy OTMlar bo'yicha milliy hisobot va boshqalar.

Xitoy ta'lim tizimida madaniyat

Oliy ta'lim sohalarida sifatli madaniyatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoxda:

- OTMlarning sifatni ta'minlash borasidagi xabardorligi va javobgarligini oshirish va ichki motivatsiyani sifat jihatidan yaxshilash;
- OTMlarni ichki sifat kafolati (IQA) tizimi va uzoq muddatli samarali mexanizmni yaratishga ko'maklashish va aniq maqsadlar, amalga oshirish yondashuvlari va sifat menejmenti bilan sifatli madaniyatni rivojlantirish;
- OTMlarning o'z-o'zini o'rganish, o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini o'zi baholash va o'zini nazorat qilish to'g'risida xabardorligini oshirish.

Qiziqarli ma'lumotlar


Rohatlanishni chetga surish qobiliyati bolalikdan paydo bo'ladi. Sizning o'z xohishlarингизни o'sha zahotiyоq orqaga surish qobiliyatингиз bolalikdan shakllanadi. Bolaligidan xohishlarini orqaga surgan insonlar, mакtabda yaxshi o'qishgan, va stress hamda ko'ngil so'nishi bilan yaxshi kurasha olishgan.



11 -rasm. Boladagi emotsional holat.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. Ta'lim sifati tushunchasi bugungi kundagi holatini tahlil qiling



12 – rasm. T-jadval bajarish bosqichlari.

T-jadval

5-jadval. T-jadval metodi.


Afzalliliklar	Kamchiliklar

2-Topshiriq. Talabalar ushbu fanni o'zlashtirishda qanday darajada bilim, ko'nigmaga ega bo'lishlari kerak?

Esse metodidan foydalanim fikringizni bayon qiling.

Talabalar ushbu fanni o'zlashtirishda qanday darajada bilim,
ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak ularga?

(fikringizni davom ettiring)



1. Baho sifatni boshqarish, baholash tartibi va mezonlari sanab bering.
2. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilish qaysi mezonlar asosida amalga oshiriladi?
3. Yakuniy nazoratlar uchun baholash mezonlari kim tomonda tasdiqlanadi?
4. Joriy baholash mezonlari haqida nimalar bilasiz?
5. Oraliq baholash mezonlari qanday amalga oshiriladi?
6. Xitoy ta'lif tizimida madaniyati haqida nimalar bilasiz?
7. Xitoy ta'lif tizimida baholashda metodikadan foydalanish
8. Xitoyning oliy ta'lif tizimining afzallikkleri?
9. Xitoy ta'lif tizimida sifatni yaxshilash xususiyatlari?
10. Xitoyda ta'lif sifati tushunchasi va uning joriy etilish?

6-Amaliy mashg'ulot

Baholashda reyting tizimi

Mashg'ulotning maqsadi: Baholashda reyting tizimidan dars jarayonida foydalanish metodikasini talabalarga amaliy mashg'ulotda o'rgatish va bilim ko'nikma hosil qilish.

Mashg'ulotda foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lif usullari: "Olmos" metodi, "FSMU" (Fikr,sabab, misol, xulosa.) metodi.

Nazariy ma'lumot

Reyting (inglizcha, rating) - o'quvchi va talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash usuli. O'zbekistonda uzluksiz ta'lif tizimining me'yoriy hujjati sifatida qabul qilingan. Umumiy o'rta ta'lif maktablari uchun 1998—2003 yillarda joriy etilgan bo'lib, bugungi kungacha davometib kelmoqda.

Reyting tizimi Oliy ta'lilda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lif vazirligining 1999 yil 8 iyundagi, magistrlar bilimini nazorat qilish va baholash uchun 1999 yil 31 dekabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi. Unda semestr bo'yicha muayyan fandan 55% dan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor, 56—70% ball to'plagan talaba "o'rta", 71—85% ball to'plagan talaba "yaxshi", 86% dan yuqori ball to'plagan talaba "a'lo" ko'rsatkichga ega hisoblanadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi quydagilar:



13 – rasm. Talabalar bilimini nazorat qilish bosqichlari.

Reyting tizimining asosiy vazifalari

Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lif sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida

bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lif standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lif standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylilik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzlusiz tayyorlarligini ta'minlash;

j) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliv ta'lif muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birlgilikda ko'rsatiladi.

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lif standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

- joriy nazorat — talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi,

kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- oraliq nazorat — semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- yakuniy nazorat — semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ta'limgo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlardan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi yoki oliy ta'limgo'na muassasasi kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazoratni o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'limgo'na muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi yoki o'quv-uslubiy boshqarma rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Nazorat turlarini o'tkazish muddati

Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat yoki fakultet tuzilmasi bo'lmagan oliy ta'limgo'na muassasalarida o'quv bo'limi (o'quv-uslubiy boshqarma) tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va

oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi yoki fakultet tuzilmasi bo‘limgan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv bo‘limi (o‘quv-uslubiy boshqarma) yoki o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorning ruxsatnomasi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi.

Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari yig‘indisi 55 balldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin (bahorgi semestr natijalari bo‘yicha esa, talabalarining yozgi ta’tili hamda professor-o‘qituvchilarning mehnat ta’tilidan so‘ng) qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani yoki fakultet tuzilmasi bo‘limgan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv bo‘limi (o‘quv-uslubiy boshqarma) boshlig‘ining tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi


Talabaning fan bo‘yicha nazorat turlarida to‘plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi.

Reyting daftarchasining “o‘quv rejalarida ajratilgan soat” soat ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklama soatlari, “Fandan olingen baho” ustuniga esa 100 ballik tizimdagи o‘zlashtirishi qo‘yiladi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Har bir fan bo‘yicha o‘rkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh va professor-o‘qituvchi jurnallari hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o‘zida (nazorat turi yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, 2 kun ichida) talabalar e’tiboriga yetkaziladi.

Yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra fan o‘qituvchisi talabalarining fan bo‘yicha reytingini anqilaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to‘ldiradi. Talabaning reytingi uning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari darajasini beglilaydi. Talabaning

semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'planagan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisining o'rtachasi olinadi.

Talabanining joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda erishgan natijalari:



14 – rasm. Talabanining joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda erishgan natijalari.

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va universitet Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi. O'quv darslikning elektron versiyasi namunaviy dasturga muvofiq fanning to'liq kursini qamrab olgan ma'lumotlarning elektron variant holdagi mahsulot (ma'ruzalar, matnlar va boshqalar) taqdim etiladi.

Shveytsariya ta'lif tizimi va uning qiyosiy tahlili

Shveytsariya — dunyoda sayyoqlar eng ko'p boradigan mamlakatlardan biri sanaladi. Ammo bu o'lka chet ellikkarni nafaqat betakror tabiatiyu purviqor tog'lari, balki yuqori sifatli ta'lif tizimi bilan o'ziga jalb qiladi. Hatto mamlakatdagi rivojlangan ta'lif tizimi xorijliklarni o'ziga chorlovchi asosiy tashrif qog'oz, desak mubolag'a bo'lmaydi. Kuzatuvlarga ko'ra, jahonga mashhur siyosatchilar, davlat arboblari, yirik biznesmenlarning ko'pchiligi Shveytsariyada ta'lif

olgan. Hozir ham boy oilalar farzandlarining Shveytsariya o'quv yurtlarida tahsil olishi urfdi. Xo'sh, bu mamlakatdagi ta'lim tizimi qanday jihatlari bilan dunyoda yetakchilik qilmoqda? Avvalo, Shveytsariya ta'lim tizimi universalligi bilan jahonga mashhur. Ya'ni, u bir vaqtning o'zida ingliz-amerika, fransuz va nemis maktablariga xos xususiyatlarni birlashtiradi. Bu tizim mamlakatda 4 ta rasmiy til — fransuz, nemis, italyan va retoromat tillarining amal qilishi natijasida shakllangan. Zamonaviy Shveytsariya 26 ta har biri mustaqil kichik ma'muriy hududiy bo'linma va viloyatlarga bo'lingani bois, mamlakatdagi boshlang'ich va o'rta maktablar kichik bo'linmalarga, universitetlar esa federal hukumatga bo'ysunadi. Shuningdek, Shveytsariya ta'limda mehmondo'stlik modelini boshlab bergan birinchi davlat bo'lib, uning maktab va universitetlari sayyohlik biznesining asosi hisoblanadi. Shveytsariyalik bolalar 4—6 yoshda maktabgacha ta'lim muassasasi, 6—12 yoshda boshlang'ich ta'lim, 12—16 yoshda o'rta ta'lim va nihoyat, 18—22 yoshda oliy ta'limda tahsil oladi. Mamlakatda bolalarning maktabgacha ta'lim olishi majburiy. Shu bois, barcha ota-onalar farzandini muddatidan kechiktirmay davlat yoki xususiy bog'chaga joylashtiradi. Maktabgacha ta'lim jarayoni hatto davlat bog'chalarida ham pullik bo'lib, hukumat zarur to'loving bir qisminigina to'lab beradi.

Shveytsariya oliy ta'lim tizimi faoliyati


Shveytsariya oliy ta'limining eng kuchli jihat amaliyotga yo'nalgaligidir. Bu yerdagi davlat universitetlari aniq fanlar va huquq sohasida o'qitish bo'yicha mashhur. Shveytsariyadagi birinchi universitetga 1460-yili Bazelda asos solingen bo'lib, bugun mamlakatda 12 ta davlat va bir qancha xususiy oliy o'quv yurtlari mavjud. Universitetda talabalar tanlagan fakultet va mutaxassisligiga ko'ra 4-6 yil davomida tahsil oladi. Aytish joizki, Shveytsariyada boshqa Yevropa mamlakatlari va Amerikadagi kabi gigant universitetlar yo'q. Mamlakatdagi eng katta universitet Syurixda bo'lib, unda 20 ming talaba o'qiydi. Qolgan universitetlarda esa talabalar soni undan bir necha barobar kam. Bu yerda bir qancha xalqaro xususiy universitelarning filiallari ham mavjud. Ularni tamomlagan bitiruvchilarga litsenziyat darajasi beriladi. U maqomiga ko'ra magistr darajasiga teng. Doktorlik darajasini olish uchun esa yana 3 yil o'qish

kerak. Shveytsariya xizmat ko'rsatish sohasini ilm-fan darajasiga aylantira olgan yagona davlat sanaladi. Bu fanni hatto magistr darajasigacha davom ettirish mumkin. Mamlakatda dunyodagi eng yaxshi mehmonxona menejmenti va turizm institatlari mavjud. Ularda turizm, boshqaruv, mehmonxona biznesida marketing va moliya, kurort va ko'ngilochar komplekslarni boshqarish, spa-mehmonxonalarini rivojlantirish kabi yo'nalişlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Sir emaski, mehmonxona biznesini boshqarish allaqachon istiqbolli va serdaromad sohalardan biriga aylangan. Shveytsariya esa mehmonxona biznesining markazi hisoblanadi.

Bu yerda sayyoohlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish uchun barcha sharoitlar muhayyo. Mamlakatning ajoyib iqlimi va so'lim tabiatining o'ziyoq xorijlik sayyoohlari oqimining hamisha yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Biznes sohasi rivojlangani bois, mamlakatda biznes-maktablar maqomi ham juda yuqori. Bu yerda abituriyentlarga 1 yillik o'rta ta'lim dasturi MBA hamda 2 yildan 4 yilgacha davom etadigan bakalavr bosqichida o'qish taklif etiladi. Universitetlar o'qish dasturiga har yili 4-6 oy davomida o'tiladigan malaka oshirish ham kiritilgan bo'lib, talaba amaliyot o'tash uchun ish joyini Shveytsariya yoki boshqa Yevropa mamlakatlari orasidan tanlashi mumkin. Jarayonda yosh mutaxassislar ishga rasman qabul qilinadi va ularga yashash xarajatlarini qoplashga yetarli bo'lgan oylik maosh to'lanadi. Shveytsariya universitetlariga o'qishga topshirishdagi qoidalar oliy o'quv yurtining qaysi ma'muriy bo'linmada joylashgani va nomdorlik darajasiga ko'ra belgilanadi. Xorijlik abituriyentlardan olinadigan yagona imtihon sentabr-oktabr oylarida o'tkaziladi. Unda talabalikka nomzodlar uchta asosiy — chet tili, matematika va tarix hamda tanlov asosida ikkita qo'shimcha fandan imtihon topshiradi. Ammo universitetlarning tibbiyot fakultetlariga xorijlik talabalar deyarli qabul qilinmaydi. Chunki mamlakatda bu soha ancha ommalashgan bo'lib, joylarni mahalliy talabalarning o'zi band etishiga imkoniyat yaratilgan. Farmakologiya, fiziologiya va stomatologiya mutaxassisliklari uchun ajratilgan o'rinnlar ham faqat shveytsariyalik talabalarga beriladi. Aytgancha, Shveytsariyada abituriyentlarni baholashda aniq mezonlar mavjud emas va har bir oliy o'quv yurti bu masalaning yechimini o'zi hal etadi.

Qiziqarli ma'lumotla

Siz bir vaqtida atigi 3-4 ta elementni eslab qolishingiz mumkin.



15 – rasm. Raqamlar tartibi.

“Sehrli 7 soni plus minus 2” qoidasi bor, va unga asosan odam bir vaqtning o‘zida 5-9 blok ma'lumotdan ortig‘ini eslab qololmas ekan. Qisqa vaqtli xotirada ma'lumotning ko‘pgina qismi 20-30 soniyaga eslab qolinadi, va so‘ng biz uni darhol unutamiz, agar qayta-qayta takrorlamosak, albatta. Ba’zi odamlar xotirada 7 sonni qisqa vaqt ichida saqlab qolsalarda, bizning barchamizga miyamizda 10 ta sonni saqlab qolish qiyindir. Oxirgi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, biz bir vaqtning o‘zida undanda kamroq: 3-4 blok ma'lumotni saqlashimiz mumkin. Biz qabul qilgan ma'lumotlarni guruhlashga harakat qilsakda? Bizning qisqa vaqtli xotiramiz cheklangan bo‘lib qoladi. Shu misolda telefon raqami biz uni tezroq eslab qolishimiz uchun bir necha qaramlar guruhiga bo‘lingan.

Amaliy ishni bajarish tartibi

“Olmos” metodi

1-Topshiriq. Oliy ta’lim muassasalarida Reyting tizimidan talabalarning baholashning samarali natijalai haqida fikringiz?

**Oliy ta'lim muassasalarida reyting tizimidan
talabalarmin baholashning samarali natijalari
haqida fikringiz?**

16 – rasm. "Olmos" metodini tasvirlash.

2-Topshiriq. Shveysariya oliy ta'limining eng kuchli jihatni haqida fikringiz.

"FSMU" metodi.

F fikr _____

S sabab _____

M misol _____

U umumlashtirish _____



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Baholashda reyting tizimidan dars jarayonida foydalanish samaradorligi?
2. Reyting tizimi haqida tushuntirib bering.
3. Talabaning joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda erishgan natijalarini baholashda nimalgarga e'tibor beriladi?
4. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari qanday baholanadi?
5. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi?
6. Nazorat turlarini o'tkazish muddati?
7. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi?
8. Reyting tizimining asosiy vazifalari?
9. Shveysariya ta'limidagi asosiy mezonlardan namunalar?
10. Shveysariya oliy ta'lim tizimi faoliyati haqida nimalar bilasiz?

7- Amaliy mashg'ulot

Baholashda portfolio vazifasi

Mashg'ulotning maqsadi: Baholashda portfolio tizimidan foydalanishning samaradorligini talabalarga amaliy mashg'ulotda tushuntirish va bilim ko'nikma hosil qilsh.

Mashg'ulotda foydalilanidigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lim usullari: “SWOT” tahlili metodi, “Tushunchalar taxlili” uslubi.

Nazariy ma'lumot

Portfolio (ingl. portfolio – portfel, zarur ishlar va xujjatlar uchun papka) – bu xujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to'plami. Bu Internet orqali ish qidirishning eng quay usuli.

Portfolio buyurtmachiga o'z mijozи bilan ko'rishmasdan, muloqot qilmasdan turib u haqida, uning kasbi va tajribasi haqida aniq va to'liq ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda ta'lrim sifatiga bo'lgan talab kundan kun oshib bormoqda. Ikkinci tomondan esa portfolio ta'lrim muassasalari rahbariyati uchun o'qituvchilarning ish faoliyati unumidorligini monitoringini olib borish va yana ham muhim tomoni o'qituvchilarni o'z-o'zini kuzatish va o'z ustida ishlashi uchun muhim hisoblanadi. O'qituvchi portfoliosi nima? Turli zamonaviy lug'atlardagi ma'lumotlarga ko'ra shuni aytish mumkinki, portfolio – bu o'qituvchining aniq faktlar asosida yozilgan pedagogik sifati va yutuqlari hisoblanadi. Bu o'z ichiga xujjatlar to'plamini, kasbiy mahoratini, ta'lrim muammolarini hal etish yo'llarini va hakozaqlar qamrab oladi.

O'qituvchi portfoliosi - bu jalb etish usullari, materiallarni to'plash, o'qituvchining professionallik darajasini namoyish etish, o'z kasbiy faoliyatidagi masalalarni yecha olish mahorati.

O'qituvchi portfoliosi pedagogning tayyorgarlik darajasi hamda o'quv va darsdan tashqari faoliyatidagi faollik darajasini ko'rsatadi. Shu bilan birga o'qituvchi portfoliosida pedagogik-psixologik diagnostika natijalari, talabalarni mutaxassisligi bo'yicha nazorat qilish testlari qamrab oladi. Bundan tashqari portfolio o'qituvchining individual yutuqlari, turli loyihalarda qatnashganliklari, tanlovlari, talabalarining fan olimpiadalari, musobaqalarda g'olib bo'lganliklari qayd etib boriladi.

"The Teaching Portfolio" kitobi muallifi Piter Zeldin fikriga ko'ra O'qituvchi portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqichdir – o'z vaqtida portfolio dizayner, fotosuratchi va arxitektorlarning muvaffaqiyatlarini o'zida aks ettiradi.

Portfolio – o'qituvchining professional faoliyatida egallagan turli masalalarни hal eta olish malakalarini ko'rsatuvchi shuningdek o'qituvchining profesionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallar to'plamidir. Portfolio – turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha biror vaqt oralig'ida erishilgan kasbiy yutuqlar aks ettirilgan va baho beriladigan individual papkadir. Portfolio - shu portfolio egasining o'quv, ijodiy, ijtimoiy, muloqot kabi turli faoliyat yo'nalishlari bo'yicha erishgan yutuqlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy o'qituvchilar o'z faoliyatlarida AKT vositalari, xususan, elektron darslik va multimediyalardan foydalangan holda saboq berishlari dars jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etish bilan ta'lif samaradorligini oshirishi hamda bir qator muhim afzallik jihatlariga egaligi haqida ko'plab fikrlar paydo bo'lmoqda.

Bunday yangi texnologiyalar qatorida elektron portfolioni ham alohida ko'rsatish zarur. Elektron portfolioning turli modellaridan foydalanish quyidagi tavsiyalarni berishga imkon yaratdi.

Oliy ta'lif muassasalari o'qituvchisining elektron portfoliosi quyidagi asosiy turlarga yo'naltirilishi zarur:

- o'qituvchi haqida ma'lumotlar - portfolioning ushbu bo'limida: familiya, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili; ma'lumoti (ta'lif muassasasi nomi, bitirgan yili, mutaxassisligi va diplom bo'yicha ixtisosligi);

- mehnat va pedagogik tajribasi, ushbu ta'lif muassassidagi ish tajribasi; malaka oshirish (kurslarda tinglangan tizim nomi, yili, oyi, kurslar problematikasi);

- kasbiy rivojlanish individual rejasi, unda belgilangan maqsadlar va o'z kasbiy o'sishi vazifalari, egallashi kerak bo'lgan malakalar, yaqin

2–3 yil mobaynida o‘tishni maqsad qilib qo‘ygan treninglari va kurslari (o‘qituvchining kasbiy rivojlanish maqsadlari va vazifalari o‘qitiladigan fani kasbiy standartlari, talabalarning o‘zlashtirishlari, oliy ta’lim muassasasi rejasiga mos bo‘lishi kerak);

“Pedagogik faoliyat natijalari” (sxemalar, grafiklar va jadvallar ko‘rinishida 3 yil davomidagi o‘quv fani sohasidagi yutuqlari dinamikasi, jumladan, kirish imtihonlari) — portfolioning ushbu bo‘limida talabalarning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishlari natijalarini va pedagog o‘qitadigan fanlar bo‘yicha ularda shakllangan asosiy malakalarni ifoda etuvchi materiallar, quyidagilar asosida 3 yil davomidagi:



17 – rasm. Pedagogik faoliyat natijalari.

Elektron portfolioning turli modellaridan foydalanish quyidagi tavsiyalarni berishga imkon yaratdi. Oliy ta’lim muassasalarini o‘qituvchisining elektron portfoliosi quyidagi asosiy turlarga yo‘naltirilishi zarur:

O‘qituvchi haqida ma’lumotlar

- Portfolioning ushbu bo‘limida: familiya, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili; ma’lumoti (ta’lim muassasasi nomi, bitirgan yili, mutaxassisligi va diplom bo‘yicha ixtisosligi);
- mehnat va pedagogik tajribasi, ushbu ta’lim muassassidagi ish tajribasi; malaka oshirish (kurslarda tinglangan tizim nomi, yili, oyi,

kurslar problematikasi);

- kasbiy rivojlanish individual rejasи, unda belgilangan maqsadlar va o‘z kasbiy o‘sishi vazifalari, egallashi kerak bo‘lgan malakalar, yaqin 2–3 yil mobaynida o‘tishni maqsad qilib qo‘ygan treninglari va kurslari (o‘qituvchining kasbiy rivojlanish maqsadlari va vazifalari o‘qitiladigan fani kasbiy standartlari, talabalarning o‘zlashtirishlari, oliv ta’lim muassasasi rejasiga mos bo‘lishi kerak);

- ilmiy va faxriy unvon va darajalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari; hukumat mukofotlari, yorliqlari, minnatdorchilik nomalari; turli tanlovlardiplomlari;

- attestatsiyadan o‘tuvchining ixtiyori bo‘yicha boshqa hujjatlar. “Pedagogik faoliyat natijalari” (sxemalar, grafiklar va jadvallar ko‘rinishida 3 yil davomidagi o‘quv fani sohasidagi yutuqlari dinamikasi, jumladan, kirish imtihonlari) — portfolioning ushbu bo‘limida talabalarning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirishlari natijalarini va pedagog o‘qitadigan fanlar bo‘yicha ularda shakllangan asosiy malakalarni ifoda etuvchi materiallar, quyidagilar asosida 3 yil davomidagi:

Bilimlari nazorat o‘chamlari;

talabalarning oraliq va yakuniy attestatsiyalari natijalari;



Quyidagi talabaga mavjudligi:

bitiruvchilarining magistraturaga o‘qishga kirishlari;



Talabalarning fani yo‘nalishi bo‘yicha magistraturaga kirishlari haqidagi ma‘lumotlar.

Talabalarning tuman, shahar, mintaqaviy va respublika olimpiadalari, tanlovlardan ishtirok etishlari kabi pedagog faoliyati tahlili joylashtiriladi.

18 –rasm. Attestatsiyadan o‘tuvchining hujjatlar talablari.

- “Ilmiy-metodik faoliyat” (o‘quv va tarbiyaviy ishlarda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish): pedagog tomonidan tanlagan

ta'lif dasturlari va o'quv-metodik adabiyotlar to'plamini asoslab beruvchi materiallar;


- pedagog tomonidan foydalaniladigan ta'lif texnologiyalarini asoslab beruvchi materiallar; pedagog tomonidan o'z amaliy faoliyatida qo'llaydigan ta'lif natijalarini baholash uchun u yoki bu pedagogik diagnostika vositalari berilgan materiallar;

- ta'lif jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniishi bo'yicha materiallar, rivojlanish muammolari bilan talabalarni o'qitish metodik texnologiyalari; metodik birlashmalarda ishlashi, oliv ta'lif muassasasi metodik markazi, boshqa OTMlar va boshqa muassasalar bilan hamkorligi to'g'risidagi materiallar;

- hisobot materiallari, kasbiy va ijodiy pedagogik tanlovlarda ishtirok

- etishi, seminarlar, «davra suhbatlari», master-klasslar va shu kabilarni tashkil etish va o'tkazish; ilmiy tadqiqotlar o'tkazish; mualliflik dasturlarini ishlab chiqish; doktorlik dissertatsiyasi qo'lyozmasini yozish; ijodiy hisobot, referat, hisobotlar, maqolalar tayyorlashdan iborat.

“Fan bo'yicha darsdan tashqari faoliyat”:



19 – rasm. Fan bo'yicha darsdan tashqari faoliyat.

Pedagog portfoliosi pedagogning o'zi tomonidan papkada — fayllar to'plamida qog'ozda hamda elektron ko'rinishda tayyorlanadi.

Portfolioga kiritilgan har bir alohida material (yorliqlar, tashakkurnomalardan tashqari) sanasi qo'yilishi va imzolanishi kerak.

Portfolioni baholash

Portfolio ta'lim muassasasi ma'muriyati yoki taqdim etilishi maqsadiga qarab jamoat organi tomonidan baholanadi. Baholashda portfolio barcha materiallari talabalar natijalariga, pedagog malakasini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatganligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Shu tariqa, pedagog elektron portfeli bir tomondan, pedagogning shaxsiy portfoliosi, ikkinchi tomondan, boshqa pedagoglar, metodistlar, IT-mutaxassislar tajribalarini birlashtirish va anglab yetish hisoblanadi. Unda pedagog hamda uning talabalar mustaqil va ijodiy faoliyatlar uchun o'rinn ajratiladi. Bundan tashqari, kompyuter hamda Internet tarmog'i yordamida ta'lim muhitida boshqa pedagoglar, talabalar bilan muloqotlar va o'zaro aloqalarda (elektron seminarlar, maslahatlar, veb-loyihalar va shu kabilar) namoyon bo'ladigan elektron portfolioni ishlab chiqishda hamda foydalanishdagi kommunikativ rolini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Xulosa qilib aytganda, agar har bir OTM o'qituvchisi yaxlit elektron portfelga ega bo'lib, barcha muhim materiallarni jamlasa, ta'lim jarayonini tashkil etishda ahamiyatli bo'lgan didaktik samaradorlikka erishish mumkin. Bundan tashqari, pedagog o'zining elektron portfelidan mustaqil foydalanishi ham, boshqa o'qituvchilarining va IT-texnologiyalari mutaxassislarining eng yaxshi ishlanmalaridan foydalanishlari ham mumkin. Shu tariqa, elektron portfeli yaratish va mazmun bilan uni to'ldirish vaqtida, har bir OTM o'qituvchisi kasbiy mahorati o'sishiga, kompyuter vositasida o'qitishga hamda o'z fani bo'yicha bilim darajasini takomillashtirishga erishadi.

Finlandiya oliy ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Mutaxassislar fikriga ko'ra, dunyoning eng yaxshi ta'lim tizimi Finlandiyada ekan. Finlandiya Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Xo'sh, dunyoda eng yaxshi hisoblanadigan Finlandiya ta'lim tizimi, boshqalardan nimasi bilan ajralib turadi?

- Finlandiyada nufuzli yoki oddiy maktab tushunchasi yo‘q. Hamma maktab davlatga tegishli bo‘lib, ular bir xil moliyalanadi va bir xil asbob-uskuna va imkoniyatlarga ega;
- Kichik sinflarda bolalarga uy vazifasi berilmaydi, imtihon topshirmaydi va ularga baho qo‘yilmaydi;
- Fin maktablarida bolalar juda ko‘p insho yozadi: mustaqil ishlash bolaga har bir masala haqida o‘z fikriga ega bo‘lishni va fikrini badiiy tilda izohlashni o‘rgatadi;
- Bir fanni boshqa fanlar o‘rnida chuqurroq o‘rganish ma’qullanmaydi. Masalan finlar matematikani san’atdan ko‘ra chuqurroq o‘rganish kerak deb hisoblamaydi;
- Bir o‘quvchini boshqa o‘quvchibilan qiyoslash ta’qiqlangan. Nogiron va qobiliyatlari bolalar bir sinfda o‘qishadi;
- Fin ta’lim muassasalari shiori shunday: Biz bolani yo hayotga tayyorlaymiz, yo – imtihonga. “Biz birinchisini tanladik”. Shuning uchun ham fin maktablarida faqat bir marta – o‘quvchi 16 yoshga to‘lganda imtihon topshiriladi;
- Fin maktablarida eng asosiysi — o‘quvchini mustaqil hayotga tayyorlashi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga mustaqil bilim olishni o‘rgatishadi. Bolalar yodlab olingan formulalar o‘rniga, spravochnik, kalkulyator va internetdan foydalanishni o‘rganadi;
- o‘qituvchilar bir kunda sinf xonasida 4 soat dars beradi va haftaga 2 soat o‘qituvchi malaka oshirishiga sarflanadi;
- Finlandiyada “o‘qituvchi” kasbi – obro‘li kasb hisoblanadi. Oliy ta’lim maskanlarida o‘qituvchi bo‘lish ishlashga juda katta konkurs mavjud;
- Finlandiyada umumiy o‘rtta ta’lim – bepul. Buning ichiga bepul tushlik, ekskursiya, maktab avtobuslari va kitoblar kiradi. Ota-onalardan pul yig‘ish ta’qiqlangan;

Ma’lumki, Finlandiya Yevropa shimolida joylashgan kichik mamlakat. Katta tabiiy boyliklar, savdo imtiyozlari yoki boshqa sezilarli daromad manbaalariga ega emas.

XX asr boshlarida Finlandiya Yevropaning eng qashshoq mamlakatlaridan biri bo‘lgan. O‘scha yillarda minglab finlar AQSh, Angliya, Germaniya va Fransiyaga borib oddiy ishchi sifatida (mehnat migrant) ishlagan. O‘scha vaqtarda amerikada uy xizmatchisini “finka” deb atashgan. Bugungi kunda esa, Finlandiya dunyoning nufuzli tahliliy markazlar fikriga ko‘ra, “Dunyoning eng yaxshi mamlakati”, “Erkaklar va ayollar huquqlari teng mamlakat”,

“Dunyoning eng stabil mamlakati”, “Dunyoning eng xavfsiz mamlakati”, “Dunyoning eng qulay mamlakati” degan nomlariga sazovor bo’lgan.

Finlyandyada oliv ta’lim tizimi boshlang’ich oliv ta’lim (bakalavriat) va oliv ta’lim (magistratura), oliv ta’limdan keyingi ta’lim sifatida aspirantura (lisensiaatti) doktorantura (tohtori)ga bo’linadi. Hozirgi kunda mamlakatda Ta’lim va madaniyat vazirligi tasarrufiga kiruvchi 23 ta politexnika instituti 14 ta universitet, Finlyandiya Akademiyasi, Milliy Arxiv va Finlyandiya Tillar Markazi, shuningdek, Kutubxona Fondi mavjud. Mamlakatning oliygohlari ARWU va QS reytinglarida dastlabki 500 talikka kiradi (Xelsinki Universiteti 2018 yil bo’yicha 102-o’rinda). PISA tashkiloti reytingiga ko’ra esa, dunyo bo’yicha ta’lim sifati birinchi o’rinda turgan davlat hisoblanadi.

Boshlang’ich oliv ta’lim (bakalavriat): 3 yil, bitiruvchiga kandidaatin tutkinto (kandidatlik) darajasi;

Oliv ta’lim (magistratura): 2 yil, bitiruvchiga ylempi korkeakoulututkinto yoki maisterin tutkinto (barcha OO’Yularda darajalar turlicha nomlanishi mumkin, masalan, texnika sohasi magistriga diplomi-insinööri beriladi);

Finlyandiya ta’limi tizimining 7 tamoyili:

1. Tenglik;
2. Bepul;
3. Individuallik;
4. Amaliyot;
5. Ishonch;
6. Istak-xohish;
7. Mustaqillik.

1. Tenglik

Mamlakatda ta’lim tizimida na elita va na "bo’shroq" ta’lim muassasalari bor. Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o’quvchi ta’lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha ta’lim muassasalari mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha ta’lim muassasalar - davlat ta’sarrufida bo’lib, o’nlab xususiy ta’lim maskanlari bor. Ularning ota-onalar qisman to’lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - talabalarga bo’lgan talabning yuqoriligidagi. Qoidaga ko’ra, bu o’ziga xos “pedagogik” laboratoriylar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf ta’lim

muassasalari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlyandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlarga. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta'lim olish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha finlarga ta'lim muassasalarida tanlash taqilangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi ta'lim maskanlariga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlyandiyada barcha ta'lim muassasalar birdek yaxshi.

Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli ta'lim oluvchilar uchun alohida guruhlar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

2. Bepul

O'qishning o'zidan tashqari quyidagilar bepul:

– tushlik;

– ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;

– Ta'lim oluvchilarni uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2 kilometrdan uzoqda bo'lsa;

– o'quv darsliklari, barcha o'quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig'ish taqiqlanadi.

3. Individuallik

Har bir ta'lim oluvchi uchun individual ta'lim va rivojlanish rejisi tuziladi. Individuallik o'quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg'ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta'lim materialiga ham tegishli.

Bir sinfning o'zida darsda ta'lim oluvchilar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a'lo bahoga bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqsa olmasa, hechqisi yo'q, yana oddiy mashq beriladi.

Finlyandiya ta'lim muassasalarida oddiy ta'lim bilan bir qatorda ta'lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

“Bo’shroq” Ta’lim oluvchilar ta’limini qo’llab-quvvatlovchi — bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlyandiyada repetitorlik keng tarqalgan ta’lim usuli hisoblanmaydi, ta’lim muassasasi o‘quvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli ta’lim oluvchilarga qo’shimcha yordam ko’rsatishadi.

Korreksion ta’lim — materialni o’zlashtirishdagi umumiylar barqaror muammolar bilan bog‘liq. Masalan, bu ta’lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba’zi ta’lim oluvchilarning asotsial xattiharakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korreksion ta’lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o’tkaziladi.

4. Amaliyot

“Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz”, - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiyadagi ta’lim muassasalarida imtihonlar yo‘q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o‘qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umum ta’lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o’tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o‘qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg‘urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, ta’lim oluvchilar ham unga maxsus tayyorgarlik ko‘rismaydi: boriga baraka.

Finlyandiya ta’lim berishda hayotda kerak bo‘ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo‘lmaydi, uni o‘rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi va h.k.

5. Ishonch

Birinchidan, ta’lim muassasasi xodimlari va o‘qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo‘q, ta’lim oluvchilarga ta’lim berishga doir turli uslublarni o‘rgatuvchilar ham yo‘q. Mamlakatda ta’lim dasturi yagona, faqat umumiylar tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o‘zi to‘g‘ri deb bilgan uslubni qo’llaydi.

Ikkinchidan, ta’lim oluvchilarga bo‘lgan ishonch: darslarda o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan ish bilan shug‘ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o‘quv filmi namoyish etilayotgan bo‘lsa-yu o‘quvchiga buning qizig‘i bo‘lmasa, u kitob o‘qib o‘tirishi mumkin. ta’lim oluvchi o‘zi uchun nima foydali ekanini o‘zi tanlaydi.

6. Istak-xohish

O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", ta'lim oluvchini kelgusida uncha murakkab bo'limgan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimir boshqarishi kerak-ku, axir!

Bunga ham o'rta maktabda chora ko'riladi - muayyan o'smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari yetarlimi, professional kasb-hunar ta'lim muassasasiga borish kerakdir, ehtimol. Ta'kidlash joizki, bu ikki yo'l ham mamlakatda birdek qadrlanadi.

Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash "kelajak o'qituvchisi" tomonidan test va suhbatlar yo'li orqali amalgalashadi.

Umuman olganda, Finlyandiya ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni yumshoq, biroq bu ta'lim muassasasini jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi, degani emas. Ta'lim muassasasi rejimiga rioxqa qilish majburiy. Barcha o'tkazib yuborilgan darslarda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. Dars qiladimi, zerikib o'tiradimi, o'ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqt bersa, bu hisobga o'tmaydi, yana boshqa soatda qayta o'tirishga to'g'ri keladi.

7. Mustaqillik


Finlyandiya ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak deya hisoblanadi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi. Ta'lim oluvchilarchi yangi mavzularni so'zlab o'tirmaydi - barchasi kitobda bor. Yod olingan formulalar emas, ma'lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatoridan foydalanish - joriy muammolar yechimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim.

Shuningdek, ta'lim muassasasidagi pedagoglar o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarga ham aralashishmaydi, ularga hayotiy vaziyatlarga mustaqil tayyorlanish va o'zlarini uchun javob berish mas'uliyatini rivojlantirish imkonini beriladi. Finlyandiya ta'lim muassasasilari bir xil bo'lsa-da, ulardagi o'quv jarayonlari turlicha tashkil qilingan.

Qiziqarli ma'lumotlar

Imtihindon talabalar foydalanadigan eski va tekshirilgan usul, o'qituvchi yaqin va qadrdon do'stingizdek tasavvur qiling, o'shanda javob berishingiz osonlashadi, o'zingizni osoyishta his qilasiz. Bu usul

boshqa vaziyatlarda ham qo'l keladi. Masalan, uni muhim uchrashuv yoki suhbatlarda qo'llasa bo'ladi.




20 – rasm. Imtixon jaryoni.

Amaliy ishni bajarish tartibi

“SWOT” tahlili metodi

1-Topshiriq. Portfolio tizimida ishlashning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklarini SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.



21-rasm. “SWOT” tahlili metodi.

S	Portfolioda ishlashning o'ziga xos afzalliklari	
W	Portfolio ishlashning o'ziga xos kamchiliklari	
O	Portfolio foydalanishning imkoniyatlari	
T	To'siqlar (tashqi)	

2-Topshiriq. Pedagogik faoliyat natijalarini baholash qanday amalga oshiriladi?


"Tushunchalar taxlili" uslubi


Bu usulda talabalar ikki guruhga bo'linadilar, har bir guruhga har xil jadval beriladi. Talabalar jadvalni mustaqil to'ldiradilar va har bir guruhdan bitta vakil chiqib to'ldirilgan tushunchalarini gapiradi. Talabalar yana o'z fikrlarini bildiradilar. Ohirida o'qituvchi yordamida berilgan jadvaldagи vazifa munozara jarayonida umumlashtirilib, to'g'ri javob aniqlanadi.

Mazmunda – rasm, so'zlarda ifodalanadi

Tushunchalar – tushunchalar so'z bilan tushuntiraladi

7-jadval. "Tushunchalar taxlili" uslubi.

Mazmun	Tushunchalar
	



Mustaqil tayyorlash uchun savollari

1. Portfolio so‘zining lug‘aviy ma’nosi?
2. Portfolio buyurtmachiga qo‘yiladigan talablar?
3. Portfolio o‘qituvchining qaysi yutuqlarini baholaydi?
4. Elektron portfoliodan foydalanish qanday tavsiyalarni berishga imkon yaratdi?
5. Pedagogik faoliyat natijalarini baholash nima uchun kerak?
6. Finlandiya ta’lim tizimi haqida nimalar bilasiz?
7. Finlyandiya ta’limi tizimining 7 tamoyili?
8. Korrektcion ta’lim qanday ta’lim?
9. Finlyandiya ta’lim muassasalarida mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o‘rgatish uchun nima qilish kerak?
10. Finlyandiya ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarga qo‘yiladigan talablar?

8 - Amaliy mashg‘ulot

Kredit tizimi doirasida bilimlarni baholash tartibi

Ishning maqsadi: Kredit tizimi doirasida bilimlarni baholash tartibini talabalarga amaliy mashg‘ulot vazifalari yordamida tushuntirib o‘gatish va bilim ko‘nikmalar hosil qilish.

Foydalilaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko‘rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o‘quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: Loyiha metodi, Fsmu texnologiyasi, Bumerang metodi.

Nazariy ma’lumot

So‘nggi yillarda, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida ham bosqichma bosqich kredit-modul o‘qitish tizimiga o‘tish ishlari boshlab yuborilgan. Xususan, 2030 yilgacha kredit-modul tizimiga barcha oliy ta’lim muassasalarini o‘tishi rejalashtirilgan.

Modul – bu alohida individual o‘quv fani. O‘zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi. Kredit-modul o‘qitish tizimi esa, har bir o‘quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi. Mazkur o‘qitish tizimi ma’ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv amaliyoti, klinik o‘quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta’lim oluvchilarning mustaqil mashg‘ulotlari bo‘yicha haftalik soat yuklamasi va ta’lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta’lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so‘ng kreditlarni to‘plash mumkin. Kredit birliklari tizimiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu kredit dasturlarini uning tarkibiy qismlari, ya’ni modullar, modullar bloklari, kurslar va boshqalarga biriktirish orqali ta’lim dasturlarini tafsiflashning tizimli usulidir.

Kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining quyidagi shakllaridan tashkil topadi:



Auditoriya mashg'ulotlari – ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv (klinik) amaliyot.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar – ilmiy kutubxonada ishslash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lim oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassisliklarda ilmiy faoliyat turlari va boshqalar.

22 – rasm. O'quv jarayonining shakllari.

Kredit ta'lim oluvchi tomonidan o'quv rejasi bajarilishining ko'rsatkichi bo'lib, tegishli o'quv ishlarini bajarishga ketadigan vaqt (soat) lardan tashkil topadi. Bu modul xususiyati va bo'lajak mutaxassisni shakllantirish uchun o'quv ishlarining muhimligidan kelib chiqib ta'lim muassasasi tomonidan belgilanishi mumkin. Har bir modul mustaqil kreditga ega bo'ladi.

Kredit-modul tizimiga o'tish – davr talabi. Bu tizimda o'qituvchilarни talabalar tanlaydi. Tanlov fanlari soni ko'paytiriladi, ya'ni talaba o'z yo'nalishi bo'yicha tanlab o'rganishi mumkin bo'lgan fanlar soni ko'p bo'ladi. Kredit-modul tizimida kerakli ballni yig'a olmagan talabalar OTMlarda uzoq yillar o'qishiga to'g'ri keladi.

Kredit-modul tizimi asosiy tushunchalar

GPA (Grade Point Average) — ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1 \cdot U_1 + K_2 \cdot U_2 + K_3 \cdot U_3 + \dots + K_n \cdot U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}, \text{ бўйнида:}$$

K — fanga ajratilgan sinov birliklari miqdori;

U — fan bo'yicha to'plangan ball.

akademik mobililik — qabul qiluvchi muassasada talabaning vaqtincha ta'lim olish davrida sinov birliklarini o'zlashtirishi va ularni jo'natuvchi muassasa tomonidan tan olinishi;

mobililik dasturi — ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida akademik mobililik davrida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ta'lim dasturi;

jo‘natuvchi muassasa — ta’lim oluvchi yoki professor-o‘qituvchini mobillik dasturi asosida ta’lim olish yoki o‘qitish uchun jo‘natuvchi muassasa, ishlab chiqarish yoki boshqa tashkilot;

qabul qiluvchi muassasa — ta’lim oluvchi yoki professor-o‘qituvchining mobillik davrini o‘tash joyi. Qabul qiluvchi muassasa ta’lim muassasasi, ishlab chiqarish yoki boshqa shakldagi tashkilot bo‘lishi mumkin;

malaka beruvchi ta’lim muassasasi — belgilangan miqdordagi sinov birliklarini tan olishni hisobga olgan holda ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjat beruvchi muassasa;

mehnat xarajatlari — ta’lim dasturi bo‘yicha o‘qitish jarayonida kutilayotgan natijalarga erishish maqsadida o‘rtacha o‘zlashtirayotgan talabaga zarur bo‘ladigan o‘quv faoliyatining ma’ruza, seminar, loyiha, amaliy topshiriqlar, ish joyidagi stajirovka, mustaqil ishlar kabi turlarini amalga oshirish uchun talab qilingan vaqtini taxminiy baholash;

sinov birliklari (kreditlar) — ta’lim olish natijalari asosida o‘qitish hajmi va u bilan bog‘liq mehnat xarajatlari. Sinov birliklari qoidaga muvofiq butun sonlarda ifodalanadi;

sinov birliklarini berish — malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta’lim oluvchilarga sinov birliklarini rasmiy taqdim etish jarayoni;

sinov birliklarini ko‘chirish — malakaga ega bo‘lish maqsadida bir ta’lim muassasasi, ta’lim dasturida olingan sinov birliklarini boshqa ta’lim muassasasida tan olish;

sinov birligi soati — ma’ruza, laboratoriya, seminar, studiya va amaliy mashg‘ulotlar hamda amaliyotlarning 1 akademik soati 40 daqiqa teng;

sinov birliklarini tan olish — boshqa ta’lim muassasasida erishilgan va baholangan ta’lim olish natijalarining Universitetdagi mavjud fan dasturlaridan birining talablariga javob berishini tasdiqlash;

sinov birliklarini to‘plash — ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan birliklarni to‘plash;

ta’lim elementlari — ta’lim olish natijalariga erishish va ta’lim dasturida ko‘rsatilgan bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi o‘qitish turi;

ta’lim olish natijalari — talaba tomonidan o‘zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta’lim jarayonini

muvaqqatiyatlari tugallagach, o'zlashtirgan ko'nikmalari, topshiriqlarni tushuntirishi va ularni bajarish qobiliyatining tavsifi;

ta'lif to'g'risidagi ma'lumotnomasi — o'zlashtirilgan fanlar, to'plangan sinov birliklari miqdori, olingan baholar aks ettiriladigan talabaning akademik o'zlashtirishi bo'yicha guvohnoma;

transkript — ta'lif olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan sinov birliklari va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat;

tyutor — ma'ruzachi tomonidan o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishda ta'lif oluvchilarga yordam beruvchi shaxs;

edvayzer — tegishli mutaxassislik bo'yicha ta'lif oluvchiga akademik murabbiy funksiyasini bajaruvchi, ta'lif trayektoriyasini (shaxsiy o'quv rejasini) shakllantirishda va o'qish davrida ta'lif dasturini o'zlashtirishda ko'maklashuvchi o'qituvchi.

Kredit-modul tizimida baholash, baholarni konvertatsiya qilish

Talabalar ta'lif dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, Universitet tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan baholash mezonlari asosida baholanadi. Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda, keltirilgan ijobiy baholar doirasida baholangan ta'lif oluvchilarga sinov birliklari beriladi. Talaba belgilangan ta'lif olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, sinov birliklari berilmaydi.

Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni o'z ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni ta'lif olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart. Sinov birliklarini ko'chirishga muvofiq Universitet baholarini konvertatsiyalash jadvalini boshqa muassasada tuzilgan shunga o'xshash jadval bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim oluvchini fanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish*8 – jadval. Ro'yxatdan o'tkazish.*

Ta'lim oluvchining shaxsiy kodi			
Familiyasi			
Ismi			
Sharifi			
Ta'lim yo'nalishi / mutaxassisligi			
O'quv yili			
Uy manzili			
Telefon raqami			
Muassisning F.I.Sh.			
Kafedra			
Telefon raqami			
Majburiy fanlar	Tanlov fanlari		
	E'lton qilingani	Muqobili	
1.	1.	1.	
2.	2.	2.	
3.	3.	3.	
4.	4.	4.	

Baholarni konvertatsiya qilish jadvali (5 ballik tizimdan foizga)
9 – jadval. Baholarni konvertatsiya qilish.

5 balli	100% shkala	5 balli	100% shkala	5 balli	100% shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 - 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 - 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 - 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 - 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 -3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 - 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 - 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 - 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 - 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 - 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65- 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish

10 – jadval. Baholarni konvertatsiya qilish.

2017-yildan boshlab Universitet baholas h tizimi	Rossiya Federatsi yasi baholash tizimi	Yevropa mamlaka tlari sinov birliklari ni ko‘chirib o‘tish va to‘plash tizimi	AQSh bahol ash tizimi (A-F)	Buyuk Britan iya bahola sh tizimi (%)	Yapon iya bahola sh tizimi (%)	Koreya Respubli kasi baholash tizimi (%)	2019-yilga qadar Univers itet baholas h tizimi
“5”	“5”	“A”	“A+”	70 - 100	80 - 100	90 - 100	86 - 100
			“A”	65 - 69			
			“A-”				
“4”	“4”	“B”	“B+”	60 - 64	70 - 79	80 - 89	71 - 85
		“C”	“B”	50 - 59			
“3”	“3”	“D”	“C+”	45 - 49	60 - 69	70 - 79	55 - 70
			“C”	40 - 44			
		“E”	“C-”	60 - 69	60 - 69		
			“D+”				
			“D”				
			“D-”				
			“FX”	0 - 39	0 - 59	0 - 59	0 - 54
“2”	“2”		“F”				

Buyuk Britaniyada oliv ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Hayotda munosib o'ringa ega bo'lishda ta'limning o'rni beqiyos. Aytishlaricha, ta'lim maskanlarining rivoji yer yuzida jinoyatchilikning kamayishiga xizmat qilar ekan. Yaxshi ta'lim – farovon umrning garovidir. Bugun jahoning 180 dan ziyod davlatidagi oliv ta'lim muassasalari soni deyarli 24 mingtaga yetadi. Biz sizga quyida ilmma'rifatning markaziy o'choqlaridan bo'lgan Buyuk Britaniyaning eng nufuzli oliv o'quv yurtlari haqida o'rganamiz.

Buyuk Britaniyada ta'lim bir necha o'n yillar davomida Yevropa va jahon reytingida etakchilik qilmoqda. Bu yerda eng nufuzli va qadimiy universitetlardan biri — Oksford va Kembrij universitetlari joylashgan. Ammo ulardan tashqari, Angliyada o'nlab taniqli ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlari mavjud. Har yili minglab xalqaro talabalar o'zining an'anaviy va sifatlari ta'lim tizimi bilan mashhur bo'lgan davlatga ta'lim olish uchun tashrif buyuradilar.

Buyuk Britaniyada ta'lim olishning afzalliklari

AQSh universitetlari bilan bir qatorda, ayni paytda Britaniya oliv o'quv yurtlari xorijiy talabalar orasida eng mashhur bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, Angliya-sakson dunyosida ta'lim tizimlarining o'xshashligini hisobga olgan holda, Buyuk Britaniyada oliv ta'lim tizimi boshqa mamlakatlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklariga ega.

Angliyada ta'limning asosiy xususiyatlaridab biri bo'lib, bu qadimiy an'ana va qoidalarga hurmat. Bu yaxshi ma'noda konformizm asrlar davomida eng samarali deb hisoblangan yaxshi tashkil etilgan tizimni qo'llab-quvvatlaydi. Stiven Xoking, Vladimir Nabokov, Oskar Wilde, Isaak Nyuton va boshqa ko'plab — u insoniyat tarixida eng yorqin fikrlarini ko'tardi bir xil zamонавиy talabalar oldida paydo bo'ladi. Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi o'z an'anaviy qadriyatlarini saqalash bilan birga, dunyodagi boshqa davlatlar ta'lim tizimi bilan raqobatbardoshlik saqlab kelmoqda.

Qadimgi an'analarga sodiq qolgan bo'lsa ham, ingliz universitetlari bir-biridan juda farq qiladi. Misol uchun, Kembrij universitetida intizom juda qadrlanadi, u eng mashhur ingliz oilalaridan yoshlarni to'playdi, London Metropolitan universiteti esa ijodiy yoshlar orasida eng dinamik va progressiv hisoblanadi. Bat universiteti kuchli tadqiqot bazasiga ega

va muhim ilmiy markaz hisoblanadi. Hatto eng mashhur London universiteti o'nlab turli kollejlardan iborat, shuning uchun an'anaviylik tufayli barcha Britaniya universitetlari bir xil deb o'ylamang. Aksincha, har bir ta'lim muassasasining tavsifiga biroz kirib, ularning har birida yondashuvlarning xilma-xilligini ko'rish va baholash va o'zingiz xohlagan narsani tanlash qiyin emas.

Do'stona muhit. Britaniya oliv o'quv yurtlari so'nggi farq, ayniqsa, Amerika bilan solishtirganda, ta'lim davomida juda ijobiy atmosfera. AQSh bilan taqqoslaganda, u yerda ta'lim birinchi navbatda raqobat degan ma'noni anglatadi. Albatta, raqobat muhiti natijaga yaxshi ta'sir qiladi, lekin har bir kishi undan chiqadigan kuchli ritmga mos kelmaydi. Britaniya universitetlarida talaba to'liq o'z-o'ziga taqdim etiladi va mustaqil ravishda tizim jarayonini alohida tanlashga haqlidir. Shu sababli, bu mamlakat raqobat uchun chanqoq bo'lмаган, ammo natijaga qat'iy yo'naltirilgan kishilar uchun ajoyib tanlov bo'ladi.

Britaniya universitetlariga qabul qilinish

Ko'pgina talabalarning tajribasiga ko'ra, ingliz universitetiga kirish qiyin emasligini aniq aytishingiz mumkin. Va bu qabul qilinish talablari va ariza berish jarayoni uchun ham amal qiladi. Shunga qaramay, bir nechta fikrlarni bilish va iloji bo'lsa, oldindan tayyorgarlik ko'rish muhimdir. Xo'sh, ingliz universitetiga qanday kirish mumkin? Ingliz tilini o'rganing. Birinchi va eng muhimi, ingliz tilini o'rganishdir. Afsuski, ko'plab abituriyentlar til bilish darajasini e'tiborsiz qoldiradilar va barcha qabul qilish jarayoniga ko'proq e'tibor berishadi. Lekin xavfsiz hech narsa kerak emas-faqat bir necha oy ichida tayyorlash boshlash: ingliz tilida maqolalar o'qish, mustaqil ravishda oliv o'quv yurtlari saytlar ko'rib, subtitr bilan original tilda filmlar tomosha boshlash, bepul kurslar uchun sarflash, bir necha soat, bir kun. Natijada bir necha hafta ichida o'zini his qiladi va til bilimi nafaqat kirish vaqtida, balki hayotning boshqa sohalarida ham foydali bo'ladi.

Universitet va dasturni tanlang. Keyingi qadam, kelajakdag'i ixtisosligi va universitetini aniqlashdir. Birinchi tanlov bilan hech kim sizga o'zingizdan yaxshiroq yordam bermaydi. O'nlab maqolalarni XXI asrning eng mashhur mutaxassisliklari — ni qayta o'qimang-ular odatda keng auditoriya uchun mo'ljallangan va muayyan shaxsni aniqlashga yordam bermaydi. 40 yil buxgalter sifatida ishlash uchun arxeologning iste'dodini erga ko'mib tashlash, ammo yaxshi mutaxassislar har doim

va har joyda talabga ega ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. O'z navbatida, universitetni tanlash bilan siz nafaqat sezgi uchun tayanmasligingiz kerak-bu holda o'quvchilarning reytinglari, forumlari va shaxsiy hikoyalari yordam beradi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Olimlarning aniqlashicha, Sankt-Peterburgning Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonasi saqlanadigan Alisher Navoiyning ilk she'rlari to'plami bundan besh asr ilgari buyuk adibning shaxsiy kutubxonasi saqlab kelingan. Kitob oltin suvi bilan ipak qog'ozda bitilgan, va har bir sahifasi naqshlar bilan bezab chiqilgan. Ushbu to'plam Sharning mashhur hattori Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan.



23 – rasm. Sankt-Peterburgning Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonasi.

Amaliy ishni bajarish tartibi


1-Topshiriq. Kredit-modul o'qitish tizimi strukturasini tushuntirib bering. Rasmda ko'rsatilgan algoritim asosida fikringizni bayon qiling.

“Loyiha” metodi

Bu talabalarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda talabalar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirot etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birqalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda talabaning vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir

topshiriqning yechimini topishdan iborat. Talabalar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u talabalardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak. Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, talabalar tomonidan mustaqil rejalshtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



2- Topshiriq. Kredit-modul tizimining maqsadi va vazifalari tushuntirib bering.

BUMERANG texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarni qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtiroychining turli topshiriqlarini bajarilishi, navbat bilan o‘quvchi va o‘qituvchi rolida chiqishi mumkin. (BUMERANG) texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilishda ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi. Jamoa bilan ishlash mahorati; muammolik, hushfe’llik, ko‘nikuvchanlik, o‘zga fikrga hurmat,

faollik, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondoshish, o‘z faoliyatining samarlik bo‘lishiga qiziqish, o‘zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so‘zlashuvini davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa. Bir xil javob berish mumkin emas. Yopiq savollar – bu savollar oldindan—hal yoki —yo‘q tipidagi to‘g‘ri, ochiq, javoblarni berishini ko‘zda tutadi. Ko‘ndalang so‘roq – bir – biriga guruuhlar beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

“Bumerang” treningi

Talabalar uchta kichik guruhlarga bo‘linadi va vazifa yozilgan materiallar tarqatiladi, har bitta guruh o‘z fikrlarini bayon qiladi hamda guruhlar orasida savol javob ketadi.

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bitta guruh o‘z fikrini bayon qiladi va guruhlar orasida savol-javob o‘tkaziladi.



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Kredit-modul o‘qitish tizimi o‘quv jarayoni qanday shakllardan tashkil topgan?
2. Kredit-modul tizimi asosiy tushunchalar aytib bering.
3. Ta’lim oluvchini fanlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini tushuntirib bering.
4. Baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga qanday konvertatsiya qilish mumkin?
5. Mobillik dasturi nima?
6. Buyuk Britaniyada oliy ta’limidagi olib borilayotgan islohatlar?
7. Buyuk Britaniyada ta’lim olishning afzalliliklari?
8. Britaniya universitetlariga qabul qilinish tartibi?

Haqiqiy iste'dod ato qilingan kishi buyuk o'tmishdoshlar bilan muomala qilishga ichki ehtiyoj sezadi va ushbu ehtiyoj uning yuksak iste'dodidan dalolat beradi.
Geyote.

III - MODUL.TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA PEDAGOGIK NAZORAT TURLARI

9 - Amaliy mashg'ulot

Pedagogik nazorat shakllari

Mashg'ulotning maqsadi: Pedagogik nazorat shakllari nima uchun kerak, undan ta'lif jarayonida qanday usulda foydalanishga oid bilimlarni talabalarga amaliy mashg'ulot vazifalari yordamida tushuntirish va bilim ko'nikma hosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lif usullari: "Davra suhbati" metodi, "Birgalikda o'qiyimiz" texnikasi.

Nazariy ma'lumot Pedagogik nazorat turlari

Ishni tekshirish, so'rovnama, testlash.

Pedagogika – inson tarbiyasi tug'risidagi, yoshlarni va kattalarni tarbiyasi to'g'risidagi fan. Pedagogika ta'lif-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. Pedagogika grekcha "paydagogik" so'zidan olingan bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiradi. Mustaqil pedagogika fani XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida vujudga kelgan. Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun tarbiya jarayonlariga ta'sir etishni nazarda tutadi.

Demak pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lif-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlar va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandir. Shuni

unutmaslik kerakki, pedagogika fani yutuqlarisiz jamiyatni olg'a siljитish g'oyat mashaqqatli kechadi. Pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganish lozim. Ta'lism-tarbiyadan ko'zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish – bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartidir. Bunda o'qituvchining beg'araz mehnati, bolalarni sevish va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga jiddiy yondoshmoq darkor. Ayniqsa pedagoglar ushbu fanni chuqur va puxta bilishlari shart.

Hozirgi davrda pedagogikaning vazifasi milliy istiqlol g'oyalaridan kelib chiqadigan ta'lism-tarbiyaning mazmuni, metodlarini ishlab chiqish, milliy ta'lism tizimini yaratish va yosh avlodni bilim, ma'naviy madaniyatini jahon andozalari darajasiga yetkazishdir.

Pedagogika yosh avlod tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi.

Pedagogik nazorat qilishning vazifalari

O'qituvchi darsni o'quvchilar o'rganayotgan materialni anglabgina qolmay, uni aniq, takrorlab bera oladigan, bilimlarni kelgusi o'quv ishlarida va amalda qo'llay oladigan yo'sinda tashkil etishi kerak.


Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishda o'quvchilar ularni qanday o'zlashtirishgan bolsalar, xuddi shunday aytib berishlari, ularga aniqlik, mukammallik kiritishlari lozim. Ta'limiyl ishning ana shu bosqichida yangi o'quv materiali bilan ilgari o'zlashtirilgan materiallarni o'zaro chambarchas, o'quvchilar yaqqol tushunadigan yo'sinda bog'lash ularning fandan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini boyitadi, kengaytiradi va yanada shakllantiradi. O'qitish davrida o'rganilayotgan material mazmuniga karab bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash hamda takomillashtirish har xil didaktik maqsadlarga ega bo'lish mumkin. O'qitishning dastlabki bosqichlarida, shuningdek, tasviriy materialni o'rganishda bilimlarni mustaxkamlash va takomillashtirish reproduktiv harakterga ega bo'lib, bunda o'quvchilar topshiriqni o'qituvchi bergen namuna asosida bajaradilar, bilimlarni dastlab qanday idrok etgan bo'lsalar, ana shunday tatbiq qiladilar. Shundan keyin o'quvchilar topshiriqlarga ijodiy yondoshadilar va o'ziga xos yo'llar bilan bajaradilar, muammolarni hal qilishning yangi usullarini topadilar. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash hamda takomillashtirish, asosan, ularning

mustaqil ishlari orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar maqsadga ongli va faol intiladilar, paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni biror kishining yordamisiz yechadilar. O'qituvchi mustaqil ishlash uchun topshiriqlar tuzadi, ularni bajarish tartibini rejalashtiradi, vaqt-vaqt bilan topshiriqlarni murakkablik va muammolik darajasini o'zgartirib turadi, ish vaqtida o'quvchilarni kuzatib, zarur hollarda ularga yordam beradi.

Nazorat ishi va uning turlari

Har bir o'quv kursi yoki yili yakunlanayotganda yoki ma'lum bir vaqt oralig'ida ta'limolayotganlar o'zlashtirgan bilimlarini sinash uchun nazorat ishitopshiradilar va nazorat ishi natijalariga ko'ra baho oladilar.

Bugungi kunda nazorat ishlaringin bir qancha turlari va tur vostilari mavjud.



24 –rasm. Nazorat ishlari turlari.

Nazariy nazorat ishi – bunda talabalar o'zlashtirgan bilimlarini nazariy, ya'ni yozma matn shaklda topshiradilar. Bunda nazorat ishiga qo'yiladigan talablar, asosan, nazorat ishiga ta'lim oluvchining nazariy jihatdan yondashuvi kerak bo'ladi. Bunga misol qilib nazariy savollarni misol qilish mumkin.

A'maliy nazorat ishi – bunda talaba o'qish vaqtida o'zlashtirgan bilimlarini a'maliy jihatdan, ya'ni uslubiy va a'maliy jihatdan

baholanadilar. Bunda talaba ma'lum bir aniq fandan nazariy bilimlarga asoslangan holda a'maliyotda bilimlarini sinab ko'radilar. Talabadan a'maliy nazorat ishlarini mustaqil ish sifatida qabul qilish mumkin. A'maliy nazorat ishi qisman to'liq yoki qisman test shaklida bo'lishi mumkin. To'liq test shaklida masalar javobi no'tog'ri javoblar bilan birga ko'rsatiladi, bunda talaba tog'ri javobni ko'rsatishi kerak bo'ladi. Qisman test shaklida esa ma'lum bir masalalar test shaklida, qolgan masalalar a'maliy yechimni talab qiladi.

Chexiya oliv ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Xorijiy davlatlarda o'qitishning mashhurligi nafaqat uning obro'siga, balki demokratik narxga ham bog'liq. Ilgari, odamlar munosib tarzda ta'minlangan yoki ajoyib qobiliyatli odamlar bunga imkon berishiga ishonishgan. Ammo hozir chet elda oliv ma'lumot olish inson uchun haqiqiy va mutlaqo oddiy. Albatta, ushbu maqsadga erishish uchun aniq bilim va ko'nkmalar talab etiladi.

Chexiya davlat universitetlarida oliv ta'lim bepul. Bakalavr dasturi 3 yil davom etadi, magistr dasturi 1,5-2 yil. Chexiya Respublikasi Shengen Ittifoqi davlatlari tarkibiga kirganligi sababli, vizasi Shengen hududining barcha Yevropa mamlakatlari hech qanday to'siqlarsiz harakatlanish uchun amal qiladi.

Davlat oliv ta'lim muassasalari byudjetdan moliyalashtiriladi va Chexiya tilida bepul ta'lim taklif qiladi. Asosiy mutaxassisliklar bo'yicha talabnomalarni qabul qilish o'tgan yilning oktyabridan, fevral yoki mart oyigacha qabul qilinishi uchun amalga oshiriladi. Kirish imtihonlari may-iyun oylarida o'tkaziladi. Oliy o'quv yurtlariga ijodiy mutaxassisliklar uchun kirish yilning boshida (yanvar-fevral). Kasblar bo'yicha imtihonlar majburiy ijodiy imtihonni o'z ichiga oladi. Slovakiyadan tashqari boshqa mamlakatlardan kelgan talabalar uchun hujjatni oxirgi darajadagi ta'limotni nostrifikatsiya qilish kerak. Ushbu talab davlat universitetlariga va tijorat maqsadlariga kirish uchun ham amal qiladi.

Chexiya Respublikasida hozirgi kunda 28 ta universitet va davlat tomonidan moliyalashtirilgan institutlari mavjud.

Imtihonlar chexiya tilida topshiriladi. Chex tili – bu slavyan tili, shuning uchun tilni tushunish oson va tez, 3-4 hafta ichida o'rgansa bo'ladi. Lekin tilni o'rganish va imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun uni chet til sifatida o'rganishingiz kerakya'ni jiddiy qabul qilish

kerak. Bu chet elda bepul ta'lim olishingizga yordam beradigan vositadir. Tilirus tiliga juda o'xhash.

Talaba (abiturent) Chexiya Respublikasiga kelganida, birinchi navbatda, maktab tomonidan olingen ma'lumotnomani nostrifikatsiya qilishi kerak. Buning sababi, Chexiya Respublikasida ta'lim 13 yillik.

Magistrlik diplomiga ega bo'lgan abituriyentlar uchun bakalavriat diplomlari osonroq qabul qilinadi. Universitet profiliga ma'lumotnomma yoki ariza to'ldirib yuborish kerak. Chexiya Respublikasida oliv ma'lumot olishning afzalligi ikkita kuchli dalilga ega: Birinchidan, siz Yevropacha ta'lim olishingiz bepul, ikkinchidan, rus tilidan, o'zbek tilidan, ingliz tilidan tashqari butunlay yangi tilni o'rganasiz. Va eng muhimmi, sizga yangi ishga joylashish imkoniyatlari va Yevropada yashash imkoniyati ham beriladi.

Chexiya oliv ta'lim tizimida o'qishning afzallilari

Chexiya - Yevropada oliv ta'lim uchun eng mashhur mamlakatlardan biri. Har yili dunyoning turli burchaklaridan kelgan 40 000 dan ortiq chet elliq talabalar bu yerda o'qiydilar va ularning aksariyati Chexiyada bepul ta'lim oladi. Muvaffaqiyatli o'qishga kirish uchun B2-C1 darajasida chex tilini bilish, shuningdek kirish imtihonlariga maxsus tayyorgarlik talab etiladi. PLI xalqaro talabgorlarga davlat universitetlariga kirish va o'qish uchun etarli darajada har tomonlama ta'lim berish uchun shu erda. Chexiyada yashash va o'qishning barcha masalalarida maksimal darajada yordam oladilar. PLI talabasi eng yaxshi sharoitlarga ega:

- professor-o'qituvchilar tarkibi;
- mualliflik huquqi bilan himoyalangan o'quv materiallari;
- zamonaviy uskunalar va har kuni 24 soat xizmat qiladi.

U uzoq muddatli o'quv dasturlarini, Chexiya Respublikasidagi ta'tillarni, talabalar amaliyotini taklif etadi. Bundan tashqari, biz ta'lim bilan bog'liq to'liq xizmatlarni - sertifikatlangan tarjimalarni, hujjalarni nostrifikatsiyani, tilni qo'llab-quvvatlaydi.

Chexiyadagi eng mashhur Charlz universiteti Oksford, Leyden, Bonn, Sorbonna, Bolonya va Jeneva universiteti bilan bir qatorda Evropa universitetlari assotsiatsiyasiga tegishli. Bu yagona o'quv maydonini nazarda tutadi, bu erda ushbu universitetlardan biriga o'qishga kirgan talabalar o'qishni boshqa istalgan joyda davom ettirishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu universitetlar o'rtasida keng


ma'ruzachilar, tadqiqotchilar va doktorantlar almashinushi mavjud. Chexiyada yana 22 ta universitet mavjud bo'lib, ularning aksariyati yuqori xalqaro obro'ga ega va shunga muvofiq ravishda diplomlar butun dunyoda tan olingan.

Shuningdek, o'quv profilining zamonaviy dunyo talablariga muvofiqligi. Shu munosabat bilan Chexiya bozor iqtisodiyotining amaliy yo'nalishlari va ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlari uchun mutaxassislarni tayyorlashning eng ilg'or va professional yo'nalishlari namunasini namoyish etadi. Eng qadrlisi shundaki, ta'lim jarayoni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi haqiqatlariga singib ketgan, bu hayotning barcha jabhalarida ta'sirchan muvaffaqiyatlarni namoyish etadi va ishonch bilan Birlashgan Evropa tomon siljyidi. Rossiya yoshlari uchun sobiq sotsialistik mamlakatning ijobiy rivojlanishining haqiqiy muhitida o'rganish juda muhimdir.

Bu zamonaviy sivilizatsiyalashgan dunyoda ishlashga psixologik moslashish nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Qiziqarli ma'lumotlar

Dunyodagi eng katta gul bu — raffleziya hisoblanadi. U faqatgina Kichik Osiyoda o'sadi. Ushbu gulning og'irligi 5 yoki 9 kg.ni, diametri esa — 16 sm.ni tashkil qiladi.



25 —rasm. Dunyodagi eng katta gul.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. Pedagogik nazorat turlarini tushuntirib bering.

Aylana stol atrofida berilgan muammo yokisavollar yuzasidan talabalar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

Davra suhbatil metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabaning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir.

Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir talaba o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esatalabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



26 –rasm. “Davra suhbat” metodining tuzilmasi.

2-Topshiriq. Pedagogik nazorat qilishning vazifalari nimadan iborat?

“Birgalikda o‘qiymiz” texnikasi

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning ma’lum bir sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi. Har bir guruhning maqsadi boshqa barcha guruhlar ishtirokchilari мавзузу savollarini to‘la hajmda egallab olishdan iborat.

«Birgalikda o‘qiymiz» texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo‘lgan har xil turdagи guruhlar tuziladi.
2. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi –umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda tayanchlar – ekspert varaqlari – taqdim etiladi.
3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.
4. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi.
5. Barcha guruh a’zolarining mini-ma’ruzalari tinglanadi. Umumiy natija (butun ekspert varag‘i bo‘yicha savollar javobi) ni shakllantiradi va uni taqdimotga tayyorlashadi.
6. Spiker yoki guruh barcha a’zolari birgalikda bajargan ish natijalarini taqdimot etishadi.

Guruhlarda ishlash qoidasi

- Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
- Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
- Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta murojaat qiling.
- Agar sizdan yordam so‘rashsa, albatta yordam bering.
- Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.
- Aniq tushunmog‘imiz lozim:
- Boshqalarga o‘rgatish orqali o‘zimiz o‘rganamiz;
Biz bitta kemadamiz.



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Pedagogika fani nimani o ‘rgatadi?
2. Pedagogik nazorat qilishning asosiy sabablari nimadan iborat?
3. Nazariy nazorat ishi qanday amalga oshiriladi?
4. A’maliy nazorat ishini FSMU texnologiyasi yordamida tushuntirib bering.
5. Nazorat ishlarining qanday turlarini bilasiz?
6. Chexiya oliv ta’lim tizimi haqida nimalar bilasiz?
7. Chexiya oliv ta’lim tizimida o‘qishning afzallilari?
8. Chexiyadagi eng mashhur universitetlardan qaysilarni bilasiz?

10 - Amaliy mashg‘ulot

Pedagogik testlar

Ishning maqsadi: Pedagogik testlardan ta’lim jarayonida foydalanishning samarali tomonlariga oid bilimlarini mustahkamlash va ko‘nikma hosil qilish.

Foydalilaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko‘rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o‘quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: Keys stadi metodi, toyifalash jadavali, Fsmu metodi.

Nazariy ma’lumot

Bugungi kunda talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari “Baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi muvaqqat Nizomi asosida baholanib kelinmoqda. Ta’lim tizimiga reyting nazoratini tatbiq etishdan ko‘zlangan maqsad—talabalarning bilimi, ularning ma’lum faoliyat borasidagi ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, chuqur va xolis nazorat qilish, baholashdan iborat. Ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish va amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Reyting tizimining o‘ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjud. Pedagogik adabiyotlarning tahlili, vatanimiz olimlari fikriga ko‘ra, uzuksiz ta’lim tizimida hanuzgacha talabalarning bilimini nazorat qilish va ularni baholash masalalari muammo sifatida talqin etilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda o‘quv maqsadlariga erishganlikni baholash mexanizmi haqida fikr yuritishdan oldin talabalarning bilim saviyasini baholash tushunchasi va uning mohiyatiga to‘xtalib, o‘tsak:

Baholash- ta'lism jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lhash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Ta'lism oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lism jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lism oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.


Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq ravshan bo'ladi. Bu ta'lism oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lism oluvchiga ham ta'lism jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmsandan ta'lism oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lism oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lism oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lism oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lism oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishiga va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lism beruvchi ta'lism oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Nima uchun baholash kerak?

- O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun; tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;


- ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- ta'lim beruvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- ta'lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?



26 –rasm. Bilimni baholash sifatlari.

Qachon baholash kerak?



27 –rasm. Baholash jarayoni.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta'lim oluvchilarning oqishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir

qiladi. Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Bugungi kunda test topshiriqlarining bir qator turlaridan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarining nazariy bilimi va aqliy layoqatini baholashda foydalanilmoqda. baholashda foydalanilmoqda.

Agar xorij ta'lim tajribalariga tayanib mulohazalar yuritsak, test deganda, barcha baholash topshiriqlari nazarda tutiladi. Ammo bizning sharoitimizda esa testlar (psixologik testlar bundan mustasno) topshiriq va bir yoki bir necha javobdan iborat tuzilma sifatida tushuniladi.

Testlarni tuzishda bir qator qoidalarga rioya qilish zarur:

Testning barcha chalg'ituvchi javoblari haqiqatga yaqin bo'lishi kerak;

Javoblarni ifodalovchi jumlalar uzunligi deyarli bir xil bo'lishi kerak;

Javoblar asos bilan uyg'unlashgan holda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak;

Asos qismining jumlesi ta'lim oluvchining tushunishi uchun mos bo'lishi kerak;

Javoblarda mantiqsiz so'zlar bo'lmasligi kerak;

Javoblarning hech biri sinonim (ma'nodosh) bo'lmasligi kerak;

Asos imkon qadar keng mazmunli bo'lmog'i kerak;

Asosda nomuvofiq jumlalardan imkon qadar foydalanmaslik kerak.

28 –rasm. Testlarni tuzishda qoidalarga rioya qilish.

Test turlari

- To'ldiruvchi test;
- Muvofiglashtiruvchi test;
- Muqobil javobli test;
- Ko'p tanlovli test;
- Qisqa javobli test;

- Bir tanlovli test;
- Ketma- ketlikni aniqlash testi;
- Erkin javobli test;
- To‘g‘ri javoblarni ketma-ket bermaslik kerak.

Bir tanlovli testlar

Bir tanlovli test topshiriqlari yagona javobni tanlash imkoniyati berilgan topshiriqlar hisoblanadi. Bir tanlovli savollar «asos» deb yuritiladigan tugatilmagan jumla yoki savollardan iborat bo‘lib, unda ketma-ket to‘rtta yoki beshta haqiqatga yaqin bo‘lgan javoblar tanlovi keltiriladi. Ta’lim oluvchi ular orasidan bitta to‘g‘ri javobni tanlashi kerak. To‘g‘ri javob «kalib» deb, noto‘g‘ri javoblar «chalg‘ituvchi» javoblar deb ataladi.

Misol. Qanday metodlar “Interfaol metodlar” deb ataladi?

a) Katta hajmdagi o‘quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etiladigan metodlar.

b) Ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar.

c) Muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq ta’lim beruvchi shaxsiga qaratilgan metodlar.

d) Hammasi to‘g‘ri Javob:

Ko‘p tanlovli testlar

Ko‘p tanlovli test topshiriqlarida javoblar varianti bir nechta to‘g‘ri javoblardan iborat bo‘ladi.

Misol. Qanday baholash shakllari mavjud?

- 1) Me’yoriy
 - 2) joriy
 - 3) mezoniy
 - 4) yakuniy javoblar1 va 2
- a) 1 va 4
 - b) 1 va 3
 - c) 2 va 4 Javob:

To‘ldiruvchi testlar

Bu topshiriqni yechish to‘liq bo‘lмаган matnlarga kiritiladigan tushunchalar, gap bo‘laklari, simvollar va sonlardan tashkil topadi va ta’lim oluvchidan berilgan jumlani kerakli so‘z bilan to‘ldirishi so‘raladi.

Misol. Ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining muayyan maqsadga

qaratilgan, birligida faoliyati tashkil qilishning tartibga solingan yo'llar yig'indisi _____ deb ataladi.

Muqobil javobli (al'ternativ) testlar

Bunday testlardagi savollarga javob "HA" yoki "YO'Q" deb belgilanadi. Ba'zan topshiriqlarning savoli bilan javoblari ham birga berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarda faqatgina bitta to'g'ri va bitta noto'g'ri javoblar berilgan bo'ladi. Topshiriq shartiga ko'ra to'g'ri javobni topib, belgilash kerak bo'ladi.

Misol. Interfaol metodlar an'anaviy ta'lim metodlari hisoblanadimi? (To'g'ri javobning tagiga chizing). Javob: HA YO'Q.

Muvofiqlashtiruvchi testlar

Bunday test topshiriqlarida ta'lim oluvchilarga ikkita ro'yxat taqdim etilib, ulardan birida savollar turkumi, ikkinchisida esa javoblar turkumi aks ettirilgan bo'ladi. Ta'lim oluvchilar savollar turkumiga muvofiq keluvchi javoblarni topishlari va belgilashlari talab etiladi.

Muvofiqlashtiruvchi testlar bir qiymatli yoki ko'p qiymatli bo'lishi mumkin. Bir qiymatli testlarda ustunlardagi savollar va javoblar miqdori bir xil nisbatda, ya'ni bir savolga bir javob to'g'ri kelishi kerak bo'ladi.

Ko'p qiymatli muvofiqlashtiruvchi testda esa ustunlardagi savollar va javoblar miqdori har xil nisbatda, ya'ni bir necha savolga bir javob to'g'ri kelishi mumkin, yoki aksincha bir savolga bir necha javob to'g'ri kelishi mumkin.

Javobni belgilashda birinchi ustundagi savollarga ikkinchi ustundagi javoblarni topib, uni " " belgisi orqali ifodalash mumkin. Yoki javoblarni savollar belgisi va javoblar raqamini mos ravishda belgilash mumkin.

Misol:

A ro'yxat: metodlar

V ro'yxat: ta'riflar Yoki javob: A2, B3, C1.

Malayziyada oliy ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Malayziya universitetlari bakalavriat, magistratura va doktorantura kabi oliy ta'lim darajasini olish uchun o'qishingiz mumkun. Ta'limning

eng quyi bo‘g‘ini-kichik mutaxassislar va bakalavr dasturlarini o‘rgatadigan dasturlar. Kichik mutaxassis diplomini olganidan so‘ng, bitiruvchi mutaxassislik bo‘yicha ishslash yoki bakalavr dasturida o‘qishni davom ettirish huquqiga ega. Shu bilan birga, kichik mutaxassis diplomiga ega bo‘lgan talabalar darhol Bakalavrning ikkinchi kursiga o‘tadilar. Kichik mutaxassislarni tayyorlash dasturi asosan 2,4 yil davom etadi. Ta’limning eng quyi bo‘g‘ini kichik mutaxassislar va bakalavr dasturlarini o‘rgatadigan dasturlar hisoblanadi. Kichik mutaxassis diplomini olganidan so‘ng, bitiruvchi mutaxassislik bo‘yicha ishslash yoki bakalavr dasturida o‘qishni davom ettirish huquqiga ega. Shu bilan birga, kichik mutaxassis diplomiga ega bo‘lgan talabalar darhol Bakalavrning ikkinchi kursiga o‘tadilar. Kichik mutaxassislarni tayyorlash dasturi asosan 2,4 yil davom etadi. Bakalavr dasturi 4 yil davom etadi, dastlab talaba bir yoki bir yarim yillik tayyorgarlik o‘quv dasturini o‘tadi (Foundation, A-Level yoki AUSMAT), keyin bakalavr darajasini davom ettiradi. Magistratura dasturi bir-ikki yil davom etadi, lekin faqat mutaxassis yoki bakalavr diplomi bilan. Fan doktori dasturiga faqat magistrlik diplomi bilan kirish mumkin. Malayziya universitetlari Malayziyada o‘qishni nazarda tutadigan ikki tomonlama dasturlarni taklif qiladilar, biroq ayni paytda g‘arbiy universitet diplomini olishadi, diplom esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri G‘arbiy universitetning bosh ofisida beriladi. Malayziyada va tanlangan mamlakatda o‘qishni nazarda tutadigan Transfer Program deb ataladigan tarjima dasturlari mavjud.

Malayziya oliy ta’lim tizimida o‘qishning afzalliklari

Malayziyada oliy ta’limning afzalliklari va farqlari:

- mutaxassislikning katta tanlovi, abituriyent o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan yo‘nalishni tanlashi mumkin;
- boshqa mamlakatlardagi ta’lim bilan solishtirganda ta’limning arzonligi;
- mamlakatning qulay geografik joylashuvi va qulay iqlimi tufayli yaxshi mutaxassislik olish, mamlakat madaniyati va an‘analari bilan tanishish, shuningdek, yaxshi dam olish imkoniyatining mavjudligi;
- o‘quv dasturlari Yevropa Ittifoqi va AQShda qo‘llab-quvvatlanadi;
- Malayziya universitetlarida olingan diplom jahon standartlariga javob beradi va dunyoning nufuzli universitetlari ta’lim sifatiga mos keladi;

- yashash xarajatlarining nisbatan arzonligi;
 - talaba vizasini olishning tez va oson jarayoni, bu esa o‘z navbatida juda qulay. Bundan tashqari, ayrim — —mamlakatlarga vizasiz kirish imkoniyati mavjud;
 - turli darajadagi ingliz tilini o‘rganish, buning uchun universitetlar va xususiy muassasalarda turli xil dasturlar mavjudligi;
 - o‘qish va ishning kombinatsiyasi;
- Malayziyada ta’lim hayotda foydali bo‘lgan yaxshi tajribani beradi

Talabalarni baholash tizimi

O‘rta ta’lim dasturlari bo‘yicha talabalarining bilimlarini baholash tizimi 11-jadval va 12-jadvalda keltirilgan.

Jadval 11. SPM ga olib boruvchi dasturlarda talabalar bilimini baholash tizimi

<i>Sharlar</i>	<i>To‘g‘idan-to‘g‘ri belgilash</i>	<i>Og‘aki tavsif</i>
<i>I</i>	<i>VA</i>	<i>zo‘r (cemerlang)</i>
<i>2018-04-02</i>	<i>VA</i>	
<i>I21 2</i>		
<i>3</i>	<i>DA</i>	<i>yaxshi (kepujian)</i>
<i>4</i>	<i>DA</i>	
<i>besh</i>	<i>Dan</i>	
<i>6</i>	<i>Dan</i>	
<i>7</i>	<i>D.</i>	<i>qoniqarli (lulus)</i>
<i>8</i>	<i>E</i>	
<i>to‘qqiz</i>	<i>G</i>	<i>qoniqarsiz (gagal)</i>

Jadval 12. STPM olishga olib boradigan dasturlarda talabalar bilimini baholash tizimi

<i>Sharlar</i>	<i>Xat belgilari</i>
4.00	A
3.67	A-
3.33	B +
3.00	B
2.67	B-
2.33	C +
2.00	C


1.67	C-
1.33	D +
1.00	D.
0,00	F

Malayziyadagi oliy o'quv yurtlarida, qoida tariqasida, talabalar bilimini baholash uchun 4 balli CGPA tizimidan foydalaniadi. Talabalarning foydalangan bilimlarini baholash tizimi diplomga ilovada ko'rsatilgan.

Malayziya malaka agentligi milliy malaka tizimini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Malayziyaning milliy malaka doirasi 8 ta darajaga ega bo'lib, ular tarkibiga oliy ta'lif (akademik, kasb-hunar va texnik sohalar) darajalari kiradi, ammo umumiy ta'lif darajalarini o'z ichiga olmaydi. Malayziya malaka doirasi to'g'risidagi ma'lumotlar Malayziya malaka agentligi veb-saytida joylashtirilgan.

Qiziqarli ma'lumotlar

Kitob o'qishning foydalar haqida. Mutolaa asabni tinchlantiradi. Asabingizni tinchlantirish uchun sayr qilish yoki musiqa tinglashni afzal ko'rasizmi? AQSh universiteti olimlari esa buning o'rniga kitob o'qishni tavsiya qilishadi. Kitob o'qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o'qish asabiylashishga barham beradi.



29 –rasm. Kitob o'qishning foydalari.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. O'quv reja, baho va baholash fani darsida o'qituvch...

1-Keys. O'quv reja, baho va baholash fani darsida o'qituvchi talabalarga:

— O'rtog'ingdan ko'chirmang,

— O'zing yoz, birovlarining daftariga qarama!,

— Obbo, ko'chiradigan odamingni ham topibsanni-a! Uning o'zi xatto ko'chirib olishni ham qoyillata olmaydi-yu! singari zaharxanda so'zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi. Boshqa sinfda esa o'qituvchi darsiga yo'l-yo'lakay, albattra, ammo ta'sirli qilib:

— Talabalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko'chirayotgani yo'q!, - dedi.

Talabalarga tavsiya etiladigan material:

—Pedagogik talab va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar.

Keysni bajarish bo'yicha topshiriqlar

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Manbalar asosida muammoning yechimini toping.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling.
5. Yechimni bayon eting.

2-Topshiriq. Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladimi?

2-Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti uchun chizma namunasi:

14 –jadval. Keys yechimi yozish.

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Baholashning reyting tizimi daganda nimani tushunasiz?
2. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning
3. Nima uchun baholash kerak?
4. Qachon baholash kerak?
5. Testlarni tuzishda qanday qoidalarga rioya qilish zarur?
6. Qanday test turlarini bilasiz?
7. Malayziyada oliy ta'lim tizimi haqida nimalar bilasiz?
8. Malayziya universitetlarida baholash tizimi qanday amalga oshiriladi?
9. Malayziya oliy ta'lim tizimida o 'qishning afzalliklari

11 - Amaliy mashg'ulot

Anketa o'tkazish – pedagogik tadqiqot metodi sifatida

Ishning maqsadi: Anketa o'tkazish, pedagogik tadqiqot metodlarini amaliy mashg'ulotda tushuntirish va talabalarda bilim ko'nikma hosil qilish.


Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lim usullari: "Charxpalak texnologiyasi", "Sinkveyn" metodi.

Nazariy ma'lumot

So'rovnoma turlari va shakllari hamda ularning tavsifi. Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. So'rovnoma turlari (yunoncha species) alohida, o'zigaxos xususiyatga ega. Pedagogik tizimlar turlari bo'yicha farqqiladi, keng qo'llaniluvchi tizimlar an'anaviy tizimlar deb ham ataladi. So'rovnoma turlari o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvni ifodalaydi.

So‘rovnomalar pedagogik tizimlar turlari bo‘yicha 3 xil:



30 –rasm. So‘rovnomalar o‘tkazish turlari.

Frontal so‘rovnama

O‘qituvchining rahbarligi asosida aniq belgilangan vaqt davomida o‘quvchilar guruhi (sinf)ni ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish, hamma o‘quvchilar bevosita mashg‘ulot davomida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, o‘quvchilarning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash ham da rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratuvchi ish vositalari, metodlaridan foydalanishning tashkiliy shaklidir.

Frontal so‘rovnama boshqa so‘rovnama shakllaridan farqqiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari so‘rovnomaning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi). So‘rovnomaning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq.

Individual so‘rovnama

Ma’lumki, shaxs va uning o‘ziga xosligi, individualligi muammosi hozirga qadar umumiyligi psixologiya, differensial psixologiya, shaxs psixogiyasi kabi fanlarning bahs bop va qiziqarli mavzusi sifatida

ahamiyat kasb etmoqda. Bizningcha, individuallik shaxsning xulq-atvor sifatlari, xarakter sifatlari va ularning dinamikasi, oliy nerv sisitemasi va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari kabi masalalarni mazmunan ifodalab, shaxsni tadqiq etishning o‘ziga xos yondoshuvini nazarda tutadi. Individuallik tushunchasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “individium” ya’ni “bo‘linmas” degan ma’noni anglatadi.

Individuallik har bir insonning o‘ziga xos psixik xususiyatli ko‘rinishi bo‘lib, u o‘zining xayoti va faoliyati davomida shaxsda sub’ekt sifatida ishtirok etadi va ijtimoiy - tarixiy madaniyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. U inson psixikasining betakror qobiliyati va extiyojining o‘sishida bir butunlik va yagonalik jarayonlari orqali aniqlanadi. Individual uslub peshqadam ishchilarda, bilimga chanqoq o‘quvchilarda yaxshi ko‘rinadi. Faqat aktiv munosabatlar orqali inson faoliyati uslubini yaratadi va shu orqali individullikni integralligini mos kelishi, kelmasligini aniqlaydi.

Individual integral darajadagi biz ajratgan xususiyatni, shaxsning neyro dinamik, psixo dinami kxususiyatlari va sotsial statuslari Bilan taqoslab bir-birisiz bo‘lmaydi deb aytolmaymiz. Bir darajaga xos xususiyatni boshqa bir daraja xususiyatlaridan chiqarib olomaymiz.

Individual stilni o‘zlashtirish natijaida yuqori maxsuldarlikka erishish faoliyatni sotsial baholash va o‘z navbatida sotsial statusda aks ettiriladi.

Integral individuallikni rivojlanishda bir-xil xususiyatlar o‘zgarmasdan qolib, faqat ular orasidagi aloqalar o‘zgaradi va shaxs rivojlanishini o‘zgarib turishini ta’minlaydi. Shaxsning yangidan shakllanishii integral individuallik asosida mustakhamlangan xususiyatlarda vujudga keladi. Individual integrallikni rivojlanishi shaxsni yangilanishini ta’minlovchi omildir.

Kombinatsiyalashgan (aralash) so‘rovnama

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar yoshlarini hisobga olib o‘quvishlari turlixillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o‘rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to‘g‘ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko‘pincha ishlar boshqa turlarini o‘z ichiga oladi: materialni og‘zaki yetkazish. Qiziqarli hikoyani o‘qish. So‘rovnomaning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini chuqurlashtiradilar yoki ularga ma’lum

bo‘lgan qoidaga yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og‘zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o‘rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo‘yicha axborot beradilar.

Singapur oliy ta’lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Sifatli ta’lim olish uchun Osiyo mamlakatlarini tanlaydiganlar ham oz emas. Ayniqsa, o‘qitish darajasi bo‘yicha dunyoda yetakchilar qatorida turadigan Singapurdagi ta’lim muassasalari xorijlik talabalarni hamisha o‘ziga chorlab kelgan. Boisi, u nafaqat to‘kis, farovon hayot kechirish, balki sifatli va arzon ta’lim olish uchun ham eng qulay mamlakatlardan biri sanaladi. Singapur Sharqning madaniy qadriyatlarini va G‘arb hayotining yuqori darajasini birlashtira olgan ajoyib mamlakat, bu juda ko‘p chet ellik abituriyentlarni ushbu mamlakatda oliy ma’lumot olish uchun e’tiborini qaratishni boshlaydi.

Singapur ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘rni

Singapur ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim rol o‘ynaydi. Bu talabalarning innovations g‘oyalar yaratish malakasiga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Singapur ta’lim muassasalarini kompyuter bilan jihozlash darajasi havas qilgulik, aniqrog‘i, o‘rtacha olganda, har 5 nafar ta’lim oluvchiga bir kompyuter to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarning 95 foizi internet tarmog‘iga ulangan. Bu ta’lim oluvchilarning o‘quvchilarga masofaviy ta’lim berishi uchun ayni muddao.

Singapur oliy ta’lim tizimida o‘qishning afzallikkleri

Agar biz ushbu mamlakatda o‘qishning afzallikkleri haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalambor: 2 ta tilda o‘qish imkoniyati. Mamlakat qonunlariga ko‘ra, Singapurning barcha fuqarolari o‘z xalqining madaniy qadriyatlarini yaxshiroq tushunishi uchun o‘z ona tilini o‘rganishlari kerak, lekin ayni paytda ingliz tilida ham xuddi shunday imloniyatlarga ega. Hattoki armiyadagi dasturlar va buyruqlar ingliz tilida beriladi. Umuman olganda, har bir abituriyent mamlakatda o‘qishni, istagan tilda tanlash huquqiga ega.

Tanlagan yo‘nalishingizga qarab, faqat shu yo‘nalishga tegishli va kerakli bo‘lgan fanlarni chuqur o‘rganishni taklif qiladi. Bu, ehtimol, Singapur ta’limining eng muhim xususiyatidir.

Mamlakatimizda asosiy e'tibor tabiiy fanlardan iborat bo'lib, ushbu mavzularda yuqori darajadagi treninglar haqida gapirishga imkon beradi. Bundan tashqari, Singapur — ingliz, matematika va ilm-fanni turli usullar bilan o'rnatish uchun ajoyib joy. Aytgancha, so'nggi bir necha yil ichida ushbu ro'yxatga tibbiyat ham qo'shildi. Mustaqil ta'lim muassasalarining mavjudligi. Bunday yondashuv tufayli universitetlar har doim o'zлari tomonidan taklif etilgan tanlov bo'yicha yangiliklarni kuzatadilar, bu esa har yili ta'lim dasturini bugungi talablarga moslashtirishga imkon beradi va bu bitiruvchilar tezda ish joyi topishlari kafolatidir. Aytgancha, Singapur o'zining oldiga Sharqda Sharqiylar Bostonga aylanishi uchun juda jiddiy vazifani qo'yganini ta'kidlab o'tish kerak, bu mamlakatdagi dasturlarning juda jiddiy ekanligiga yana bir dalildir.

Davlat madaniyatini tushunish qobiliyati. Singapur o'zining madaniy qadriyatlariga juda jiddiy yondashadi, mamlakat tarixini va madaniyatini o'rnatish muhim davlat vazifalariga aylangan. Aytgancha, mamlakatdagi har qanday bitiruvchining hayoti mobaynida o'z-o'zini yaxshilash ehtiyojini aniq belgilab beradi va bu kabi nuqtai nazarga ega mutaxassislar dunyoning har qanday burchagida mamnuniyat bilan ishga qabul qilinadi.

Chet ellik talabalar Edusave fondi orqali stipendiya olish imkoniyatiga ega. Shuni ta'kidlash joizki, agar talaba grant olmagan bo'lsa, mamlakatdagi oliy ta'limning narxi nafaqat sharq, balki yevropaning ko'plab rivojlangan davlatlariga qaraganda kamroq. Shunga qaramasdan, talabalik vizasi bilan o'qiyotgan chet ellik talaba ishslash huquqiga ega emas, hatto ko'ngillilar safida ham, barcha vaqtini faqat o'qish uchun bag'ishlashi kerak.

Muhim afzallik shuki, turli mamlakatlardagi ko'plab universitetlar talabalar almashinuvni bo'yicha Singapur bilan shartnomaga tuzishgan va bu bitiruvchilarga imtihonsiz dunyoning barcha nufuzli universitetlariga kirish imkoniyatini beradi.

Aytgandek, agar ariza beruvchi ingliz tilini yaxshi bilmasa, unda u o'zining universitetida til kurslarini olishi mumkin, ammo ingliz tili mamlakatning to'rtta rasmiy tillaridan biri bo'lgani uchun siz xoxlagan til kurslariga qatnashingiz mumkin.

Ayni paytda Singapur ta'lim tizimi uch bosqich — maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'limdan iborat. Bog'chaga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o'qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o'rnatiladi.

Singapurda davlatga qarashli bog'chalar yo'q. Maktabgacha ta'lif muassasalarining barchasi xususiy bo'lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg'armalar tomonidan boshqariladi. Zamonaviy Singapurda ta'lif siyosati mamlakatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Barcha o'quv muassasalari Xalq ta'lifi vazirligi tasarrufida. Vazirlik davlat maktablarining rivojlanish va boshqaruv jarayonini nazorat qilish bilan birga, xususiy maktablarga ham tavsiya beruvchi va nazoratchi vazifasini bajaradi. Ammo o'quv dasturini tanlash erkinligi, o'quvchilarni qabul qilish tartibi hamda davlat ajratadigan moliyaviy yordamga ko'ra davlat o'quv muassasalari va xususiy maktablar birididan farq qiladi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Oddiy maqsadlar – yomon kayfiyat va apatiya kuch-quvvat va ishdagi samaradorlikdan mahrum qiladi. O'zingizdan jaxlingiz chiqmasin:agar kuningiz oddiy o'tsa o'nta murakkab ish o'mniga uch oddiy ishni rejalashtiring.Kichik bo'lsada maqsadga erishish o'zingizdan qoniqish hosil qish hissini uyg'otadi.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. O'quv reja, baho va baholash fanini amaliy mashg'ulot darslarini olib borish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar va ularning tahlili.

“Charxpalak texnologiyasi”

Bu usulda talabalar ikki guruhgaga bo'linadilar, har bir guruhgaga bir xil jadval beriladi. Talabalar jadvalni mustaqil to'ldiradilar, so'ngra bu jadval 3-5 marta boshqa guruhgaga aylana bo'yicha o'tadi. Talabalar yana o'z fikrlarini bildiradilar. Ohirida o'qituvchi yordamida berilgan jadvaldagi vazifa munozara jarayonida umumlashtirilib, to'g'ri javob aniqlanadi.

pedagogik texnologiyalar	Maxsus fanlarni o'qitish	Gumanetar fanlar	Aniq fanlar
Aqliy hujum			
SWOT tahlil			
Loyihalash			
T-sxema			
B/B/B			

2-Topshiriq. Ta'lif, metod, texnologiya so'zlariga sinkveyn metodidan foydalanib so'zlar yozing.

“Sinkveyn” metodi

Ta'lif jarayonida dars o'tish texnikasi hisoblanib, talabalar va o'quvchilarini bilim darajalarini rivojlantirish va o'stirishga xizmat qiladi. Bu texnika ta'lif yo'nalihidagi barcha sohalarda qo'llanilishi mumkin. Sinkveyn usulini bir vaqtning o'zida bir necha pedagog professorlar yaratishgan va pedagogikaga joriy etishgan. Shunda ularning barcha ishlari chiqilib nomi berilgan.

TA'LIM

1. ta'lif;
2. o'qitadi, o'rgatadi, tayyorlaydi;
3. ta'lif bu kelajak poydevori;
4. izlanish.

METOD

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____

TEXNOLOGIYA

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. So‘rovnama turlari va shakllari hamda ularning tavsifini tushuntirib bering.
2. Frontal so‘rovnama qanday olinadi?
3. Individual so‘rovnama deganda nimani tushunasiz?
4. Kombinatsiyalashgan so‘rovnomaga misol keltiring.
5. Singapur oly ta’lim tizimi haqida nimalar bilasiz?
6. Singapur ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘rni?
7. Singapur oly ta’lim tizimida o‘qishning afzalliklari?

12 - Amaliy mashg‘ulot

**Ta’limning amaliy natijalarini baholash vositasi sifatida kurs ishi
va kurs loyihasini o‘rni va o’tkazish tartiblari**

Mashg‘ulotning maqsadi: Ta’limning amaliy natijalarini baholashni, kurs ishi va kurs loyihasini bajarish tartibini amaliy mashg‘ulotda talabalarga o‘gatish va bilim ko‘nikma hosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko‘rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o‘quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: Insert metodi, “Chaynvord” usuli.

Nazariy ma’lumot

1. Kurs loyihasining maqsad va vazifalari

Kurs loyihasini bajarish jarayonida talaba egallagan nazariy bilmlari va mavjud me’yoriy hujjatlar, ma’lumotnomalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib amaliy masalalarni mustaqil

ravishda yechish hamda o'z go'ya va yechimlarini jamoada himoya qilish ko'nikmasini egallaydi.

Kurs loyihasini bajarishdan maqsad — o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingen nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muxandislik masalasini mukammal yechishda qo'llashdir.

Kurs loyihalari tizimi orqali talaba murakkabroq muxandislik masalasini - malakaviy bitiruv ishini bajarishga tayyorlanadi. Shu bilan bir qatorda kurs loyihasi talabada davlat standartlari, soha me'yorlari, ma'lumotnomalar, narxnomalar, jadvallar, nomogrammalar, namunaviy loyihalar, yo'riqnomalar va muqaddam egallangan tajribalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, kurs loyihasi talabalarda hisob-kitoblarini bajarish, texnik-iqtisodiy yechimlarining chizmalarini tuzish, tushuntirish hisobotlarini rasmiylashtirish ko'nikmalarini hosil qilish lozim.


Kurs loyihasining asosiy vazifalari:

- talabalarning ma'ruza, tajriba va amaliy mashgulotlarda, mustaqil faoliyatda olingen nazariy va amaliy ko'nikmalarni amaliy loyihalarni bajarishda qo'llay olishini namoyish etish;
- talabalarda me'yoriy, ma'lumotnomalar va boshqa adabiyotlardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish;
- mustaqil fikrlash va eng maqbul texnik yechimlarni qabul qilishga o'rnatish;
- axborot texnologiyalar vositasida o'z loyihasini taqdimot (himoya) ni o'tkazish, unda kurs loyihasini bajarish jarayonida egallangan natijalarni ishonchli dalillar bilan asoslash, kompyuter texnik vositalar va ularning dasturlaridan foydalana olish qobiliyatini ko'rsatish;
- o'quv jarayonida shakllangan kommunikativ ko'nikmalarini namoyish etish, o'z nuqtai nazarini himoya qila olish va murosaga kelish, muloqotga qo'shilish, loyiha bo'yicha savollarga asoslangan javob berish, e'tika qoidalariga rioya qilgan holda bahslashish, muzokaralar va davra suhbatlarida qatnashish imkoniyatini namoyish etish;
- talabalarda guruh bilan ishlash ko'nikmalarini faollashtirish, oldinga qo'yilgan maqsadni bajarish bo'yicha tashabbus ko'rsatish

qobiliyatini kengaytirish, umumiy masalalarni yechishda hamkorlar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash;

- loyixalarni tayyorlash, g'oyalarni generatsiya kilish va qarirlarni qabul qilishning nostonart usullarini topishni namoyish etish;
- mustaqil ijodiy ishlash, ma'lumotlarni izlash, yig'ish, qayta ishslash va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalana olish, loyihalash jarayonini to'la nixoyasiga yetkazish mas'uliyatni xis etishga o'rgatish.

Kurs loyihasida quyidagi masalalar yechimi ko'rsatilishi lozim:



2. Kurs loyihasining mavzulari

Kurs loyihasini bajarishda muxim masalalardan biri uning mavzusini to'g'ri aniqlashdir. Kurs loyihasining mavzulari mazkur fanning o'quv vazifasiga javob berishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish

va ilm-fanning dolzARB muammolari bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Kurs loyihalari mavzularining amaliyligi - bu avvalambor ularning ilmiyligi, zamonaviyligi va talabalarda mustaqil ijodiy muxandislik ishga ko'nikmani shakllantirishga yo'naltirilganligidir. Kurs loyihasining xar bir topshirig'ida texnik va texnologik yangilik qo'lanishi ko'zda tuilishi shart. Topshiriqlarning takroriyligi, yildan-yilga bir hil mavzularning takrorlanishi kurs loyihalarini ham o'quv, ham muxandislik ahamiyatini kamaytiradi.

Kurs loyihasining topshiriqlar shaxsiylashtirilgan bo'lib, umumiy talablar pasaytirilmagan holda talabaning qiziqishi va qobiliyatları bilan bog'langan bo'lishi lozim. Kurs loyihalarning mazmuni sifatida ta'lim yo'nalishi va fan turidan kelib chiqib bino, inshootlar, muxandislik kommunikatsiyalari mashina, apparatlar va stanoklarning konstruksiyalarini yechimlarini ishlab chiqish hamda zaruriy hisob-kitoblar va chizmalarini rasmiylashtirish olinishi mumkin. Kurs loyihasining mavzusiga bo'lgan asosiy talablardan biri bu uning yaxlit majmuali bo'lishidir, ya'ni bir qator o'zaro bog'liq bo'lgan masalalarni birgalikda yechishga bag'ishlanganligi.

Kurs loyihalari mavzularining tarkibi sanoat va boshqa korxonalarning amaliy masalalari, talabalar malakaviy amaliyotlarining natijalari, kafedra a'zolari va talabalar to'garaklarining ilmiy ishlari, xorijiy va mamlakatdagi ilm-fan va texnika yutuqlarini aks ettirgan adabiyotlar asosida tuzilishi lozim.

Yuqori kurslarda talabalarga kurs loyihalarining mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov kontrakt mablag'ini to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan kurs loyihalari mavzusi bo'yicha o'z vazifalarini taklif etishlari mumkin. Korxonalar buyurtmasi asosida bajariladigan kurs loyihalarning afzalligi shundan iboratki, korxona talabalarga ilmiy izlanish olib borishiga to'liq sharoit yaratadi hamda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga muallif tomonidan tavsiya etilayotgan takliflarni ishlab chiqarishga joriy etishga barcha shart sharoitlar yaratadi va ilmiy izlanishlar natijasidan manfaatdor bo'ladi.

Bitiruv kursida bajariladigan kurs loyixalari bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan bog'langan bo'lishi, loyiha malakaviy (bitiruv oldi) amaliyotida qo'llangan ma'lumotlar asosida bajarilishi lozim.

Kurs loyihalarining mavzulari o'quv rejalarida kurs loyihalari ko'zda tutilgan fanlar bo'yicha darslar olib boruvchi kafedralar tomonidan taqdim etiladi va tasdiqlanadi.

Loyihani bajarish uchun asosiy yo'riqnomalar va ma'lumotlar kafedra tomonidan rasmiylashtiriladigan kurs loyihasining topshirig'ida aks ettiriladi. Topshiriqda loyihaning nomi, uning xajmini va mazmunini aniqlovchi tafsilotlar yaqqol belgilanishi lozim. Shu bilan birga topshiriqda loyihaning hisob-chizma qismini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar, chizmalar soni va ko'rinishi belgilanishi muhimdir.

Har bir topshiriq ilmiy va uslubiy jixatdan sinchkovlik bilan o'ylab chiqilgan bo'lib, talabaning tayyorgarlik darajasiga va loyihani bajarish uchun ajratilgan vaqtga muvofiq kelishi lozim.

Topshiriq mahsus blankalarda (1-ilova) rasmiylashtirilishi va yo'riqnomalar va boshlangich ma'lumotlar bilan ta'minlanishi lozim. Yo'riqnomalar va boshlangich ma'lumotlar zarur bo'lgan tanqidiy baholash va taxlilsiz ko'chirib olish va foydalanishni oldini olish maqsadida juda ham batafsил bo'lishi kerak emas.

3. Kurs loyihasining tarkibiy tuzilishi

Kurs loyihasi chizma qismi va hisob-tushuntirish xatidan tashkil topishi lozim (arxitekturaviy loyiha asosan grafik ijrodan iborat bo'ladi, grafik ijroga yozma tushuntirish qismi hajm jixatdan chegaralanmagan xolda beriladi). Chizmalar davlat standarti talablariga muvofiq bajarilishi shart. Ular aniq, ravshan va ixcham bo'lishi lozim. Umumiy ko'rinish, tugunlar va detallarning barcha chizmalari zarur bo'lgan proyeksiyalar soniga ega bo'lishi shart. Chizmalar zarur bo'lgan o'lchamlar, shartli belgililar va maxsus ro'yxat bilan, odatda, kalamda yoki maxsus kompyuter dasturlari ("Autocad", "SogelDraw" va boshqalar) yordamida bajariladi. Ishchi chizmalarda texnologik xaritalarni tuzish va detallarni yasash, qurilish ishlarini bajarish, jihozlar va uskunalarini yig'ish uchun zarur bo'lgan barcha o'lchamlar, shartli belgililar va ko'rsatmalar keltirilgan bo'lishi shart. Barcha kurs loyihalardida loyihsanayotgan ob'yektga nisbatan xavfsizlik texnikasi talablari hisobga olinishi shart.

4. Kurs loyihasini tashkillashtirish va boshqarish

Kurs loyihasiga rahbarlik qilish, odatda, tegishli kafedralarning yetakchi, ishlab-chiqarish va ilmiy tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali professor-o'qituvchilariga topshiriladi. Kurs loyihalarda qo'yilgan o'quv maqsadlarini ishlab-chiqarish talablari bilan uzviylashtirish maqsadida, shuningdek institut va korxonalarning loyihalash borasida o'zaro tajriba almashish maqsadida, kurs loyihasiga rahbarlik uchun ishlab-chiqarishda bevosita ishlayotgan mutaxassislar

jalg etilishi maqsadga muvofiqdir. Kurs loyihasi rejalashtirilgan har bir kafedra tomonidan kurs loyihasini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan bo'lishi shart. Uslubiy qo'llanmalarda loyiha vazifalari, boshlang'ich ma'lumotlar, loyihaning taxminiy xajmi, tushuntirish xati va alohida qismlarining mazmuni, chizmalar soni, tavsiyi va masshtabi hamda loyihami bajarish tartibi yetarli darajada aniq izoxlangan bo'lishi kerak.

Kurs loyihasiga rahbarlik loyiha topshiriq berishdan boshlanadi. Loyiha topshirig'ini berishda asosiy bosqichlarni bajarish vaqtleri ko'rsatilgan grafik tavsiya qilinadi. Kurs loyihamalarini taqdim etish muddatlari institut rahbariyati tomonidan mazkur yo'naliish o'quv rejasiga mos holda belgilanadi. Loyiha topshirig'i loyiha rahbari imzosi bilan beriladi, kafedra jurnalida berilgan kun sanasi qayd qilinadi. Kurs loyihasining ahamiyati, unga qo'yiladigan talablar, hisob-grafik qismining tarkibi va loyihami rasmiylashtirish, topshiriqni bajarish bo'yicha umumiy topshiriqlar, uning hajmiga bo'lgan talablar haqidagi ma'lumotlar mazkur fan bo'yicha kirish ma'ruzasi o'qilganda tushuntiriladi.

Kurs loyihasi, zaruriy uslubiy qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, standartlar, soha me'yordi va loyiha namunalari bilan ta'minlangan maxsus kurs loyihasi xonasida bajariladi.

Kurs loyihasi bajarish uchun talabaning mustaqil ishi sifatida vaqt ajratiladi va mustaqil ish jadvalida ko'rsatilgan vaqtlerda o'qituvchi maslahati tashkil etiladi. Kurs loyihasi rahbari talaba loyihami bajarishi jarayonida uning ijodiy bilimini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Kurs loyihasini bajarish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, birinchi bosqichni bajargandan so'ng keyingi bosqichni bajarishga ruxsat etiladi.

Talabalar tomonidan kurs loyihasining bajarilish jarayoni kafedra mudiri tomonidan muntazam ravishda nazorat qilinib, kafedra majlislarida muhokama etib boriladi. Kurs loyihasi chizmalari va tushuntirish xati talaba tomonidan imzolanada. Qo'yilgan talablarga javob beruvchi kurs loyihasi rahbar tomonidan imzolanadi va hay'atda himoya qilish uchun tavsiy etiladi.

5. Kurs loyihasining himoyasi

Kurs loyihasini sifati va uni bajarishdagi talabaning faolligi, bilim va ko'nikmalarini bahalashning o'ziga xos shakllaridan biri loyiha himoyasidir. Bajarilgan ishni chuqur tushunishi, taklif etilgan muxandislik yechimlarini har tomonlama asoslab berishi qobiliyatini shakllantirishda kurs loyihasining ximoyasi muhim o'rinn tutadi. Kurs

loyihasi himoyasi kafedra tomonidan belgilangan 2-3 o'qituvchidan tashkil topgan hay'atda, kurs loyihasi rahbari va guruh talabalari qatnashuvida tashkil qilinadi. Ochiq himoya guruh talabalariga shu guruh a'zolari tomonidan bajarilgan ishlar bilan tanishishiga imkoniyat berishi bilan bir vaqtida, loyiha rahbarlarini himoya qiliniyotgan loyihalarga bir xil talab bilan yondashishga olib keladi.

Himoya talaba tomonidan bajarilgan kurs loyihasi bo'yicha 8-10 minutli ma'ruza va savol javobdan iborat bo'ladi. Ma'ruzada loyihaning mohiyatini talaba har tomonlama yoritib berishi kerak. Savollar himoyada qatnashayotgan professor- o'qituvchilar tomonidan beriladi.

Kurs loyihasi 100 ballik tizimda baholanadi. O'rnatilgan grafik bo'yicha bajarilgan va talablar bo'yicha sifatlari rasmiylashtirilgan kurs loyihasini eng ko'pi bilan 40 ball, himoya vaqtidagi ma'ruza uchun 30 ball va berilgan savollarga javoblarga 30 ball ajratiladi.

Himoya vaqtida qaydnomalar ikki nusxada to'ldiriladi. Qaydnomalardan biri kafedrada, ikkinchisi dekanatda saqlanadi. Kurs loyihasini bajarishi va himoya qilish natijasida 55 o'tish ballini to'plagan talabani reyting daftarchasiga loyiha rahbari tomonid reyting balli qo'yiladi. Topshiriqda ko'rsatilgan muddatda kurs loyihasini himoyaga takdim etmagan va sababsiz loyiha himoyasiga kelmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik guruh talabalarining kurs loyihalari himoyasi yakunlangandan so'ng loyihalash jarayonida yo'l qo'yilgan turdosh kamchiliklar, eng yaxshi hamda sifatsiz loyihalar rahbar tomonidan tahlil qilinib suhbat o'tkaziladi. Amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lgan kurs loyihalari talabalar ilmiy jamiyatini tanlovlariiga taqdim etiladi va rektorning buyrug'i bilan rag'batlantiriladi va ishlab chiqarishga joriy etish uchun taqdim etilishi mumkin.

Italiya oliy ta'lim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Italiya universitetida o'qish davomida talabalar yigirmaga yaqin fanlarni o'zlashtirishlari kerak. Italiya o'quv yurtida ma'ruza o'qish talabalar uchun zarur va ular hatto ma'ruzalarga qatnashgan kunlarni shaxsiy qaydnomada qayd etishadi. Talaba bitirganida, u diplomini himoya qilishi kerak. Himoyaviy bahoning asosiy ulushi talaba tomonidan o'tkazilgan barcha imtihonlar natijalarining arifmetik o'rtacha ko'rsatkichidir. Talabaning ishlashiga qarab, yakuniy baho tushirilishi yoki ko'tarilishi mumkin. Agar talaba imtihon va diplom ishi

uchun belgilangan muddatga javob bermasa, u kerakli darajada o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega. Agar siz o'tmasangiz, uni har doim qaytarib olishingiz mumkin. Albatta, bu kamroq asabiylashadi, lekin talaba juda mas'uliyatli bo'lishi kerak.

36 oy davom etadigan maxsus amaliyotni tugatgandan so'ng, talaba doktorlik dasturiga kirish imkoniyatiga ega. Bu yerda u sinovdan o'tadi. Muvaffaqiyatli topshirilgan testlarga stipendiya beriladi. Doktorantlar asosan Italiyada va boshqa shtatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Diplomni himoya qilganlarga doktorlik darajasi beriladi.

Italiya institutlarida o'qishning boshlanishi odatda oktyabr yoki noyabrda, may-iyun oylarida tugaydi. Mustaqil institutlarda o'quv yili yanvar oyida boshlanishi mumkin. O'quv yili 3 ta mashg'ulotni o'z ichiga oladi, talaba imtihonni tanlash va vaqtini mustaqil ravishda hal qiladi (talabalar majburiy bo'lgan ba'zi imtihonlar bundan mustasno). Italiyada o'qish biznikidan farq qiladi, avvalambor imtihonlar uchun chiptalar ishlatilmaydi. Adabiyot, tilshunoslik, filologiyadan imtihonlar og'zaki ravishda o'tkaziladi. Barcha imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rish kerak, chunki ma'ruzalarda talaba egallashi kerak bo'lgan bilimlarning ozgina qismi mayjud. Hamma ham imtihonni muvaffaqiyatli topshirmaydi: talabalarning atigi 30 foizi diplom oladi.

Har bir professor ma'lum bir vaqt ni qabul qiladi, u sizni tinglaydi va kerakli adabiyot bo'yicha tavsiyalar beradi. Agar sizda bunday ehtiyoj bo'lsa, unda siz o'zingizning asosiy mavzularingizdan biriga kurator tayinlash uchun murojaat qilish imkoniyatiga egasiz. U sizga o'qish, imtihonlar, zarur adabiyotlar va diplom himoyasi bo'yicha har doim tavsiyalar beradi. Shuningdek, siz barcha fakultetlarda joylashgan maslahat markaziga borishingiz mumkin, u yerda ular sizning ko'plab shuhbalarining hal qilishga yordam beradi.

Italiya institutlarida ta'lim olishning afzalliklari

- Italiya davlat institutida o'qish uchun to'lov taxminan 500 evroni tashkil etadi - 1 o'quv yili, mustaqil oliy o'quv yurtlarida esa bitta o'quv yili uchun 8500 dan 25000 evrogacha.

- Ushbu mamlakat moda dizaynerlari va dizaynerlarini o'qitish sohasida etakchi hisoblanadi.

- Xususiy universitetlarda o'qish italyan va ingliz tillarida olib boriladi.

- Bu mamlakatda italyan tilini o'rganish qiyin emas.
- Italiya dunyodagi eng go'zal davlatlardan biri bo'lib, ushbu mamlakat aholisi bizga ma'naviy va hayot tarzida yaqin.

Italiya oliy ta'im tizimi ikki sektordan iborat:

1. Universitet

Ushbu sektor kurslar, fanlar va sohalar, shuningdek, mavjud texnologiyalar darajalari va tipologiyalar soni bo'yicha yanada rivojlangan.

2. Universitetdan tashqari ikkita asosiy yo'nalish mavjud

• Italiya Ta'lim vazirligi yoki Italiya madaniyat kengashi tomonidan boshqariladigan san'at institutlarida (dizayn o'quv yurtlari, tasviriy san'at maktablari, konservatoriylar) ta'lim;

Davlat tomonidan o'tkazilgan kasbiy tadqiqotlar.

Italiya oliy ta'lim tizimida talabalarни baholash

Italiyada oliy ta'lim bakalavriat, magistratura hamda doktoranturaga bo'linadi.

Bakalavriat: 3 yil;

Magistratura: 1-2yil;

Doktorantura: 3-5 yil.

Italiya Bolonya jarayoni (kredit-modul tizimi) a'zosi. 3 yillik bakalavriat uchun umumiy – 180 kredit yig'ish lozim. Magistratura uchun 1 yilga 60, 2 yilga 120 kredit to'plash kerak. Doktorantura uchun 3 yillik dasturga 180 kredit yig'iladi.


Ammo baholash **30 ballik** tizimda amalga oshiriladi.

Italiya oliy ta'lim tizimida fan Kreditlar

Italiya universitetlarida kredit tizimi mavjud. Bunday kredit yigirma besh soatlik o'qish vaqtiga to'g'ri keladi. Har yili talaba oltmishta kredit oladi.

Qiziqarli ma'lumotlar

Inson qanchalik ilmli, ma'lumotli bo'lsa, miya kasalliklariga uchrash extimoli shuncha kam bo'ladi. Aqliy faollik kompleksli kasalliklarni oldini oluvchi qo'shimcha to'qima hosil qilishga olib keladi.



32 – rasm. Inson miyasi.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. Kurs loyihasini tashkillashtirish va boshqarish qanday amalga oshiriladi ?

INSERT metodi

V-bilaman;

+ – men uchun yangi ma'lumot;

-- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi;

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

V	+	-	?

2-Topshiriq. Kurs loyihasining himoyasi qanday amalga oshiriladi?

“CHAYNVORD” usuli

Talabalar kichik bir nechta guruhlarga bo‘linadi va ularga vazifa yozilgan material tarqatiladi. Har bitta guruh o‘z fikrlarini bayon qilib, birinchi vazifani bajargan guruhdan bitta vakil chiqib tog‘ri javoblar aniqlanadi.

17 –jadval. “CHAYNVORD” usuli yozish.

Kurs loyihasi bu (.....)	
Kurs loyihasi mavzulari qanday tanlanadi (.....)	
Kurs loyihasi o‘z ichiga (.....) oladi	
Kurs loyihasining tarkibiy tuzilishi qilib tasvirlash mumkin (.....)	



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Kurs loyihasini bajarishdan maqsad?
2. Kurs loyihasining asosiy vazifalari?
3. Kurs loyihasida quyidagi masalalar yechimi ko‘rsatilishi lozim?
4. Kurs loyihasining mavzulari?
5. Kurs loyihalari mavzularining amaliyligi?
6. Italiya institutlari haqida nimalar bilasiz?
7. Italiya institutlarida ta’lim olishning afzalliliklari?
8. Italiya oliy ta’lim tizimida talabalarni baholash?

*Agar temir ishlatilmasa, zanglaydi.
Agar suv harakatlanib turmasa, ayniydi.
Agar kishi fikrlamasu, aqlda ham shunday
holat yuz beradi.*
Leonardo Da Vinchi

IV - MODUL. TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHA PEDAGOGIK MONITORING O'RNI

13 - Amaliy mashg'ulot

O'quv yutuqlarini baholashning zamonaviy vositalari

Ishning maqsadi: O'quv yutuqlarini baholashning zamonaviy vositalarini, portfolio tizimi misolida baholab, olingan natijalarni talabalarga amaliy mashg'ulotda tushuntirib o'gatish va bilim ko'nikma hosil qilish.

Mashg'ulotda foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lif usullari: "Blits-o'yin" metodi, Aqliy hujum metodi.

Nazariy ma'lumot

O'quv yutuqlarini baholashda portfolio va uning hususiyatlari.

1. O'quvchining zarur va istiqbolli imkoniyat va qobiliyatlarini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'rsatib berish, shaxsiy, kasbiy va ijodiy salohiyatini ochib berishning ob'ektiv va maksimal ravishda to'liq aniqlash vositasi;

2. o'qituvchining baholashga doir faoliyati vositasi;
3. individual muvafaqqiyatlar monitoringini amalga oshirish vositasi yoki imtihonning muqobil shakli;
4. ta'lif natijalarini belgilab beruvchi muqobil vosita yoki texnologiya;
5. ta'lifiy muvaffaqqiyatlarni va qo'shimcha natijalarni baholash vositasi.

Portfolioi yaratishning maqsadi - ta'lif natijalari bo'yicha o'quvchining rivojlanishini namoyish etish va u nimani bilmaydi, nimani bajara olmaydi, xuddi shunday nimani biladi, nimani bajara olmaydi degan savolga javob topishdir. Portfolio o'zida belgilangan tartibda tashkillashtirilgan o'quv materiallari to'plamini aks ettiradi.

Portfolio turlari

1. “Hujjatlar portfoliosi”. Bunday turdag'i portfolio individual ta'limiy muvaffaqiyatlarning sertifikatlangan portfeli: diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar.

2. “Ishlar portfoliosi” o‘zida turli xil ijodiy ishlar, loyihamalar, tadqiqot ishlarini aks ettiradi: reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihamalar, ijtimoiy amaliyatga doir hisobotlar. Mazkur portfolioda talaba mustaqil va guruhdoshlari bilan birgalikda to‘plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joylanadi.

3. “Taqrizlar portfoliosi”da talabaning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi.


4. “Natijalar portfoliosi” belgilangan yo‘nalish bo‘yicha egallanuvchi talabalar mahoratini jamlash uchun qo‘llaniladi; talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlarini o‘zida aks ettiradi. Natijalar portfoliosi individual va guruhli bo‘lishi mumkin. Guruh natijalari portfoliosi g‘oyasidan “Eng yaxshi talabalar guruhi” konkursida foydalanish mumkin.

5. “Baholovchi portfolio” talabalarning egallagan bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish uchun yig‘iladi va turli xildagi nazorat materiallaridan tashkil topadi: nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar. Baholovchi portfolioni pedagog mustaqil ravishda tuzishi va ta’lim olish kursi tugashigacha bo‘lgan vaqtga mo‘ljallashi mumkin.

6. “Online-portfolio” xilma-xil shakllarda qo‘llanilishi mumkin. Bunday portfolioning birinchi shaklida talabalar oliy ta’lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallar qo‘sishlari, ikkinchi ko‘rinishi sifatida o‘zlarining shaxsiy veb-saytini yaratish va o‘z tushungani asosida semestr yakunlari bo‘yicha hisobot tarzida tayyorlanadigan portfoliodan foydalanish mumkin.

O‘quvchilar bilish faolligini oshirishda portfolioning imkoniyatlari

O‘quv portfoliosi quyidagi pedagogik vazifalarni yechish imkonini ham beradi:



32 – rasm. O'quv portfoliosi pedagogik vazifalarni yechish tartibi.

Portfolioni ishlab chiqish bosqichlari va bo'limlari

Portfolioni ishlab chiqish jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich

Tashkillashtirish va rejalashtirish. Bu portfolio rivojlanishining boshlang'ich bosqichi bo'lib, u o'zida o'quvchilar va pedagog

tomonidan qarorning qabul qilinishini mujassam etadi. Ta'limning boslang'ich jarayonidagi muhim masalalarni tadqiq qilishda, o'quvchilar portfolioning maqsadini va uning mavqe'sini – o'zlaridagi rivojlanishni baholash va nazorat qilish vositasi sifatida to'laligicha tushunib olishlari mumkin.

Ikkinchchi bosqich

To'plash. Ushbu jarayon o'zida o'quvchilarning ta'lim tajribasini va ma'lumotlarni yig'ish maqsadini aks ettiruvhi muhim materiallarni yig'ishi aks ettiradi. Bu bosqichdagi qarorlar portfolioning mazmuniga nisbatan, ushbu portfolio mazmunini maxsus identifikatsiyalovchi maqsadlarga asoslangan holda qabul qilinishi lozim. Ma'lumotlarni tanlash va to'plash maxsus mavzularni , portfoliolarni yoki ta'lim jarayonlarini va maxsus fanlarni o'zida birlashtiruvchi turli xil omillarga asoslangan bo'lishi lozim. To'plamda mujassamlashtirilgan barcha tanlab olingen ma'lumotlar , baholash uchun identifikatsiyalangan me'zon va me'yordlarni aniq o'zida aks etishi lozim.

Uchinchi bosqich

Anglab olish. Ushbu jarayon mavjud bo'lgan joyda, o'quvchilarning zarur bilim va malakalarining rivojlanishini tushunish hamda ta'lim jarayoni va nazoratdan keyingi fikrlash reaksiyalarini haqidagi aniq dalillar bo'lishi lozim. Bunday mulohaza o'qitish materiallari, jurnallar va o'quvchilar o'zaro ta'sirlashgan, shuningdek ularning bunday mashg'ulot turlarida namoyon etgan tafakkur usullarining chuqur o'ylashdan keyingi jarayonlarda yuzaga keluvchi fikrlashning boshqa shakllarida ham aks etgan bo'lishi mumkin. Fikrlash bilan bir qatorda portfolio shuningde, mutaxassislarining va pedagoglarning fikrlariga asoslangan ma'lumotlarni ham o'zida mujassam etgan bo'lishi lozim. Portfolio ko'rinishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u o'zida ma'lum bir tarzda tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plamini mujassam etishi lozim.

Ma'lumotlarning yirik bloklari boblar deb ataladi, ularning ichida esa bo'limlar ajratiladi. Boblar va bo'limlar miqdori shiningdek, ularning tematikasi (mavzusi) turli xil bo'lishi mumkin va ular har bir aniq holatlarda aniqlashtiriladi.

Klassik portfolio to'rt qismidan iborat bo'ladi:




Portret



**Kollektor
(to'plovchi)**



**Ishchi
materiallар**



Muvaffaqiyatlar

33 –rasm. Klassik portfolio qismlari.

Portfolioda, albatta mundarija so‘z boshi (qismlar nomi, ma’lumotlarning nomlanishi bilan) aniq tashkillashtirilgan bo‘lishi lozim.

Hindiston talim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Zamonaviy Hindistonda ta’lim tizimi, bir tomondan, ta’lim sohasidagi eng so‘nggi innovatsion ishlanmalarga muvofiq doimiy ravishda takomillashtirilib kelinmoqda, ikkinchi tomondan, asrlar osha an'anaga aylanib bormoqda *guru-shishabilimlarni* o‘qituvchidan talabaga o‘tkazish. Hindular hayotning to‘rt bosqichi tushunchasiga ko‘ra – *ashrams* o‘quv muddati, *brahmacharya*, inson hayotining asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, uni to‘g‘ri amalga oshirishsiz inson hayotda ro‘y bera olmaydi va o‘z taqdirini o‘zi bajara olmaydi. Bevosita o‘qituvchining uyida joylashgan monastirlarda *guru* qadimiy hind maktablari chaqirilgan *gurukul*, yuqori sinf o‘quvchilarini hinduizm va falsafa asoslarini, Ayurveda va munajjimlikni bepul o‘rganishdi, Ramayana va Mahabxarata-dan ulkan parchalarni yodladilar, sanskrit mumtoz adabiyoti va davlatchilik san’ati bilan tanishdilar, shuningdek, qurol-yarog ko‘nikmalariga ega bo‘ldilar. Guru shogirdlariga ikkinchi tug‘ilishni beradi, shuning uchun uni ota-onasi bilan birga hurmat qilish kerak, deb ishonishgan. Trening oxirida talabalar o‘qishni tugatishi kerak edi *guru dakshin*, o‘qituvchiga minnatdorchilik marosimi bo‘lib, u guruga qimmatbaho sovg‘alar yoki pullarni taklif qilish, shuningdek, uning irodasi shubhasiz bajarilishidan iborat bo‘lishi mumkin. Ta’lim tizimini boshqaruvchi davlat organlari oldida turgan asosiy vazifalar - boshlang‘ich ta’limning umumiy tarqalishi, jinsidan qat’iy nazar, barcha

ijtimoiy sohalar vakillari uchun kadrlar tayyorlash imkoniyati, shuningdek boshlang'ich va o'rta ta'lim sifatini oshirish. Ta'limni davlat va mintaqaviy tillardan birida olish imkoniyati mavjud, bu bir qator universitetlarda - ko'pincha federal darajada emas, balki davlat darajasida ishlaydigan universitetlarda ta'lim olish imkoniyatiga ega.

Hindiston oliv ta'lim muassasalarining jaxondagi o'rni

Oliy o'quv yurtlari soni va oliy ma'lumotlarning tarqalishi bo'yicha Hindiston dunyoda AQSh va Xitoydan keyin uchinchi o'rinda turadi. Hindistondagi ko'plab universitetlar dunyoga mashhur - Hindiston Texnologiya Instituti (IIT), Hindiston Menejment Instituti (IIM), Chennai Matematik Instituti (CMI), Allohabod Qishloq xo'jaligi Instituti (yangi nom Sam) Xigginbottom qishloq xo'jaligi, texnologiyalar va fanlar instituti, Ollohabod, AAIDU), Javaharlal Neru universiteti, JNU va boshqalar.

Hindiston oliv ta'lim muassasalarida ta'lim olishning turlari

Kunduzgi o'qish bilan bir qatorda, ko'plab hind universitetlari masofaviy o'qishni (ham alohida maxsus kurslar darajasida, ham to'liq oliy ma'lumot olish darajasida), shu jumladan chet ellik talabalar uchun ham taklif etadilar. Masofaviy o'qitish dasturlari, shuningdek, bunday dasturlarni tayyorlash uchun maxsus yig'ilgan bir nechta universitetlar bazasida mavjud (masalan, Madras, Kalkutta va Mumbay universitetlari "Virtual Universitet" savdo markasi ostida masofaviy o'qitish qo'shma dasturlari).

Hindlar uchun universitetda o'qish pulli yoki bepul bo'lishi mumkin, bu nafaqat ta'lim darajasiga bog'liq bo'lishi mumkin (bir qator bepul universitetlar va joylar mavjud, imtihonlarda eng yuqori ball to'plagan talabalar avtomatik ravishda o'qish uchun stipendiyalar olishlari mumkin). talabaning kelib chiqishi (turli ijtimoiy guruhlar, regtonlar, qabilalar va boshqalar vakillari uchun joylar uchun kvotalar tizimini ishlab chiqqan).

Chet elliklar orasida Hindiston universitetlari uzoq vaqtdan beri mashhurdir. An'anaga ko'ra, Janubiy Osiyoning qo'shni mamlakatlaridan, shuningdek Afrika qit'asidan ko'plab talabalar Hindistonga o'qish uchun kelishadi. An'anaga ko'ra dunyoning barcha mamlakatlaridan kelgan talabalar Hindistonga o'qishga Hindistonning dunyoda etakchi mavqega ega bo'lgan joylariga (birinchi navbatda,

axborot va innovatsion texnologiyalar sohasiga) tashrif buyurishadi. Bunga ko'p jihatdan oliy ta'lim sohasidagi puxta o'ylangan siyosat - ingliz tilida o'qitish, xalqaro diplomlar, o'qish va mamlakatda yashash uchun maqbul narxlar yordam beradi.

Hindiston oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalar ta'lim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar

Chet elliklar uchun kirish talablari ma'lum bir ta'lim muassasasiga yoki tanlangan kursga bog'liq ravishda katta farq qilishi mumkin, ammo deyarli barcha yirik federal universitetlar chet ellik talabalar uchun bakalavr (BA), magistratura (MA) va ko'pincha magistratura bosqichlarida (M) o'qish uchun dasturlarni taklif qilishadi. Fil, fan nomzodi va boshqalar). Shuningdek, maxsus mutaxassisliklar va yozgi maktablar uchun qisqa muddatli mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqilgan. Ba'zi hollarda, chet ellik talabalar o'qish uchun stipendiya olish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafaqat universitetdan, ham xususiy yoki davlat mablag'laridan olish mumkin. Ushbu ko'plab imkoniyatlar to'g'risida barcha ma'lumotni qiziqtirgan universitetlarning veb-saytlarida topish mumkin.

Qiziqarli ma'lumotlar

Inson nerv tizimida signallar 288km/soat tezlikka yetadi. Yosh o'tgan vaqtida esa tezlik 15% ga pasayadi. Yuqori-fotografik xotira — bir nigoh tashlash bilan alohida-alohida 6 dasta kartalarni eslab qoluvchi Kreyton Karvelloga tegishli.



33 –rasm. Inson xotirasi.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. O'quv reja, baho va baholash fani bo'yicha ishlab chiqilgan materiallarni sanab o'ting va izohlar tariflarni to'g'ri javoblarni toping.

"Blits-o'yin" metodi

18-jadval. "Blits-o'yin" metodi to 'Idirish.

Nº	Tahlil qilish kurslari	Yakka javob	To 'g'ri javob	Xato
1.	Ma'ruza			
2.	Amaliy mashg'ulot			
3.	Laboratoriya			
4.	Mustaqil ishlar			
5.	O'quv uslubiy majmular			
6.	Texnolgiyalar			
7.	Adabiyotlar			
Jami				


"Blits-o'yin" uslubida talabalarni mashg'ulot mavzusini tekshirish uchun jadvalda keltirilgan kurslarini ketma-ketligini belgilashdan iborat. Bunda talaba jadvalda keltirilgan tasvirlash kurslariga to'g'ri deb hisoblagan tartib raqamlarni qo'yib chiqadi (yakka javob katagiga). Yakka va to'g'ri javoblar ayirmasi "xato" katagiga qayd etiladi va ularning yig'indisi jadval ketida keltiriladi.

2-Topshiriq. O'quv reja, baho va baholash fanini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida o'qitish qanday uslublarini bilasiz?

Aqliy hujum metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar

- Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- Har bir talaba qatnashishi shart.

Aqliy hujum metodining tuzilmasi



34 – rasm. Aqliy hujum metodining tuzulishi.



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. O'quv yutuqlarini baholashda portfolio va uning o'rni?
2. O'quv yutuqlarini baholashda portfolioni yaratishdan maqsad nima?
3. O'quvchilar bilish faolligini oshirishda portfolioning imkoniyatlari?
4. Portfolioni ishlab chiqish bosqichlari va bo'limlari?
5. Klassik portfolio nechi qismidan iborat bo'ladi?
6. Hindiston talim tizimi va uning qiyosiy tahlili?
7. Hindiston oliy ta'lim muassasalarining jaxondagi o'rni?
8. Hindiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishning turlari?
9. Hindiston oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalar ta'lim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar?

14 - Amaliy mashg'ulot

Pedagogik monitoring funksiyalari

Ishning maqsadi: Pedagogik monitoring funksiyalari imkoniyatlarini talabalarga amaliy mashg'ulotda tushuntirib o'gatish va bilim ko'nikma hosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko'rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o'quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta'lif usullari: "Rolli o'yin" metodi, "Bumerang" metodi.

Nazariy ma'lumot


Monitoring (inglizcha monitoring — kuzatish, nazorat qilish) ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Monitoring kundalik hayotning barcha sohalarida qo'llanadi.

Masalan, ekologiya, meditsina, iqtisodiyot, harbiy, ta'lif va boshqa sohalarda, o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, salbiy jarayonlarning oldini olish va bartaraf etish maqsadini baholashda monitoring natijalari qilinadi.

Ta'lif tizimidagi pedagogik monitoring tobora rivojlanib bormoqda. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilishda ko'rsatilishicha, pedagogik monitoring maqsadlarni belgilash, tahlil qilish, tuzatish, diagnostika, baholash va o'quv jarayonini nazorat qilishni funksiyalarni bajarilishini amalga oshiradi.

Keng ma'noda monitoring axborotni qabul qilish va qayta ishlashga asoslanadi.

Pedagogik monitoring funktsiyalari beshta qismdan iborat:



35 – rasm. Pedagogik monitoring funktsiyalari.

- Yo'naltirish funktsiyasi - o'quv jarayoni sub'ektlari o'rtasida tegishli o'zaro munosabatlarni tashkil etish to'g'risida ma'lumot beradi;
- konstruktiv funksiya - o'quv jarayoni o'quvchilarining transformatsion (konstruktiv) faoliyatini tashkil qilish uchun olingan ma'lumotlardan foydalanishga imkon beradi;
- tashkiliy va faoliyat funksiyasi- o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'siri mazmunini tashkil etadigan amaliy faoliyat natijalarini kuzatishga imkon beradi;
- tuzatish funksiyasi- sub'ektlarning birgalikdagi harakatlarini to'g'rilashga yo'naltirilgan va ularning birgalikdagi faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va odatiy, muqarrar va tasodifiy bog'liq omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladigan turli xil muammolar, qiyinchiliklarni hal qilishni ta'minlaydi;
- baholash va prognoz qilish funksiyasi - pedagogik o'zaro ta'sir jarayonida sub'ektlar tomonidan olingan ma'lumotlarni baholash, ta'lim natijalariga erishish uchun o'zaro harakatlarning samaradorligini aniqlash, kelajakda ularning o'zaro munosabatlarini rivojlantirish yo'llarini belgilash, shuningdek yangi maqsad va vazifalarni belgilash, kelgusidagi tadbirlarni rejalashtirish va mexanizmlarini ishlab chiqish amalga oshirish. Aniqlanishicha, bu funksiyalarning barchasi pedagogik monitoringni tashkil etishda o'z aksini topgan.

Ispaniya talim tizimi va uning qiyosiy tahlili

Ispaniya - emotsiyonal xilma-xillik mamlakati. Bir tomonidan, flamenkoning yorqinligi va buqa janglarining impulsivligi, boshqa tomonidan — siesta xotirjamligi va katoliklikning jiddiyligi Ispaniya hayotning to'liqligini aks ettiradi. Ehtimol, mamlakat atmosferasini his qilgan holda, dunyoning turli burchaklaridan kelgan yoshlar nafaqat ta'til paytida nafis dengiz bo'yida dam olishga, balki Ispaniyada ham ta'lim olishga intiladilar. Ular asosan mamlakatga geografiya, tarix, fizika, matematika va falsafani o'rganish uchun boradilar. Bu ajablanarli emas, chunki buyuk ispan sayohatchilari va kashfiyotchilari tomonidan ushbu fanlar o'rganilgan. Dali, Picasso, Velazkes va Goya singari ko'plab buyuk ijodkorlar bilan dunyoni tanishtirgan san'at sohasidagi umumiyl e'tirof etilgan ta'lim alohida yo'nalish hisoblanadi.

Mamlakatning barcha o'quv muassasalarida o'qitiladigan ispan tili bugungi kunda talab bo'yicha dunyoda eng mashhur ingliz tilidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Lotin Amerikasi iqtisodiyotining faol

rivojlanishi ispan tilini yaxshi biladigan mutaxassislarning ko‘payishini talab qiladi. Ispaniyada ta’limni boshqa tillarda topish mumkin, ammo buning uchun ikki tillik ta’lim tizimi mavjud bo‘lgan yopiq maktablarga borish kerak, va o‘qituvchilar uchun har ikki tilda erkin so‘zlashish majburiydir.

Ispaniyada oliy ta’lim

Mamlakatning oliy ta’lim tizimi 13-asrda paydo bo‘lgan. o’sha paytdagi dunyodagi eng yaxshi to‘rt universitetdan biri bo‘lgan Salamanka universiteti 1218 yilda qurilgan. Keyinchalik Barselona va Granadada nufuzli universitetlar paydo bo‘ldi. Bugun Madrid, Sevilya va Valensiya universitetlari eng kuchlilar qatoriga qo‘sildi. Ispaniyada qonun bo‘yicha faqat universitetlarda oliy ta’limga ega bo‘lish mumkin. Bugungi kunda mamlakatda 48 ta universitet mavjud bo‘lib, ularning aksariyati davlatga tegishli bo‘lib, atigi 7 ta universitet xususiy va cherkov homiyligida.

Universitet tizimidagi turli mutaxassisliklar va ta’lim darajalari uchun o‘qitishning bir necha turlari mavjud: universitet maktablari, fakultetlar, oliy texnik maktablari va yuqori muhandislik maktablari. Shunday qilib, universitet maktablari ta’limning birinchi bosqichiga (bakalavr darajasiga teng) ega bo‘lgan kasb ta’limi olishni istagan talabalar uchun mos keladi. Birinchi bosqich uchun mashg‘ulot muddati -3 yil. Maktablar orasida savdo maktablari ispan va ingлиз tillarida MBA va tasviriy san’at maktablariga ega bo‘lishadi. Oliy texnik maktablari Ispaniyada texnik fanlar bo‘yicha to‘liq o‘qishni istagan abituriyentlar uchun mos keladi. Texnik fanlarni yoqtirmaydiganlar uchun - universitet fakultetlari. Professional muhandislar, texnologlar va arxitektorlar tayyorlash uchun universitetlarda, oliy muhandislik maktablari alohida ajratilgan. Ular talabgorlarning maxsus tanlovi, yanada murakkab va talabchan dastur bilan ajralib turadi. Ispaniyada to‘liq oliy ma’lumotni 6-7 yil muddat davomida olinadi.

Ushbu mamlakatda ta’lim turli xil ijodiy tanlovlari bilan mashhur fakultativ kurslar: raqs kurslari (Ispaniyani flamenko va salsa holda tasavvur etib bo‘lmaydi!), Rasm, ashula, arxitektura va haykaltaroshlik iboratdir Ispaniyada ta’limning yana bir shubhasiz afzalligi — bu mahalliy aholining do’stona munosabati va samimiyligi.

Ispaniya ta'lismiz umum tan olingan yevropa standartlariga javob beradigan bolon tizimiga asoslanadi:

Jamg'arma har yili ta'lismiz muasasasi bitiruvchilarini o'qitish uchun mo'ljallangan dasturdir. Ularni universitetlarga yoki magistratura talabalariga qabul qilish uchun tayyorlaydi. Grado bakalavri: Bu to'liq oliv ma'lumot. Ushbu tizimga ko'ra siz ko'plab sohalarni (tibbiyot, arxitektura, biznes, texnik sohalari va boshqalar) o'rganishingiz mumkin. Magistrantdan oldin: ushbu dastur magistr dasturiga kirishni rejalashtirganlar uchun mo'ljallangan. Doktorantura: o'qitish bir yil davom etadi. Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni rejalashtirganlar uchun mo'ljallangan.

- **Foundation** – maktab bitiruvchilarini o'qitish uchun mo'ljallangan bir yillil dasturdir. Ularni universitetlarga yoki magistratura dasturiga qabul qilish uchun tayyorlaydi.

- **Grado-bakalavriyat**: Bu to'liq oliv ma'lumot. Ushbu tizimga ko'ra talabalar ko'plab sohalarda (tibbiyot, arxitektura, biznes, texnik sohalari va boshqalar) ta'lismiz olishlari mumkin.

- **Pre-master**: ushbu dastur magistratura dasturiga kirishni rejalashtirganlar uchun mo'ljallangan.

- **Doktorantura**: ta'lismiz bir yil davom etadi. Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni rejalashtirganlar uchun mo'ljallangan.

Ispaniyada siz ham ispan, ham ingliz tilini o'rganishingiz mumkin. Maktablar Malaga, Madrid, Valensiya va Barselona kabi kurortlarda joylashgan. Bu erda siz standart yoki intensiv kurslarni o'tishingiz mumkin. DELE imtihoni bu ispan tilini chet tili sifatida bilish imtihoni. Bu Servantes instituti va Ispaniya Ta'lismiz vazirligi tomonidan tan olingan yagona imtihon. Tugatgandan so'ng berilgan diplomlar chet elliqlar ispan tilida gaplashadigan darajadan dalolat beradi - Inicial, Basico, Superior. Imtihon markazlari nafaqat Ispaniyada, balki dunyoning 48 mamlakatida (147 shaharda) joylashgan.

Qiziqarli ma'lumotlar

Olmos ishlov berilmay sof bo'lmagani kabi inson ham dard-iztirob chekmay komil bo'lolmaydi.

Konfusiy.



36 –rasm. Konfusiy.

Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. Yo'naltirish funktsiyasining vazifazini tushuntirib bering?

“Rolli o‘yin” metodi

Rolli o‘yin metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin senariysini ishlab chiqadi.
- O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
- O‘yinning maqsad idan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
- Talabalar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa talabalar ularni kuzatib turadilar.
- O‘yin yakunida talabalardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan talabalar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun stsenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chi?iladi. Ba’zi hollarda talabalarni ham stsenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu talabalarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Stsenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Talabalar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

2-Topshiriq. Pedagogik monitoring funksiyalari to‘g‘risida nimalarni organdiz?

“Bumerang” metodi

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. har bitta guruh o‘z fikrini bayon qiladi va guruhlар orasida savol-javob o‘tkaziladi.



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Monitoring so‘ziga ta’rif bering.
2. Ta’lim tizimidagi pedagogik monitoring qilishdan maqsad nima?
3. Pedagogik monitoring nechta funksiyasi bor?
4. Baholash va prognoz qilish funksiyasini FSMU metodi yordamida tushuntirib bering.
5. Ispaniya talim tizimi va uning qiyosiy tahlili haqida fikringiz?
6. Ispaniya ta’lim tizimi umum tan olingan yevropa standartlaridan qaysi tizimiga asoslanadi?
7. Ispaniya ta’lim tizimida talabalardan imtixon olish qanday amalaga oshiriladi?

15- Amaliy mashg‘ulot

Baholash va axborot texnologiyalari

Ishning maqsadi: Talabalar bilimini baholashda zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalashning so‘nggi yutuqlarini talabalarga amaliy mashg‘ulotda tushuntirish va bilim ko‘nikma hosil qilish.

Foydalaniladigan texnik jihozlar va vositalar: ko‘rgazmali qurollar, proyektor, kompyuter, elektron doska, fanning o‘quv uslubiy majmuasi.

Zamonaviy ta’lim usullari: “Kichik guruhlarda ishslash” metodi, “Davra suhbati” metodi.

Nazariy ma’lumot

Talabalar bilimini nazorat qilish

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunida va Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan dastur asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi joriy etilishi, Oliy ta’lim muassasi monitoring tizim faolatini tashkil etilishiga asos soldi.

Umumiy qoidalar

Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

- talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylilik, ishonchililik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

- fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari va elektron manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- talabalar bilimini xolis vaadolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

- talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzlusiz tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga, ya'ni ma'lumotlar bazasini shakllantirishga sharoit yaratish.

Fanlar bo'yicha talabalar bilimini baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi. Fanlar bo'yicha reyting nazoratlari jadvali har bir professor-o'qituvchi tomonidan fan dasturi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nazorat turi, soni va ularni o'tkazish muddatlari, baholash mezonlarini o'z ichiga olgan holda ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lif;
- umumiy o'rta ta'lif;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi;



- oliy ta'lif;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif;



- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari



O'quv reja, baho va baholash fani ta'lif jarayonlarni tashkil etish va boshqarish g'oyalarini har tomonlama, turli nuqtai nazaridan o'rganishga intilish bilan bir qatorda, ularni ta'lif amaliyotiga tatbiq etishning yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqadi. Bugungi kun O'quv reja, baho va baholash fanida tizimli yondashuv metodologiyasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarisiz pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashni tasavvur etib bo'lmaydi.

Innovatsion yondashuv

Universal tushunchalar apparati, abstraksiyaning yuqori darajasi, asosiy tamoyillarning integrativ xususiyatlari — subyektlarning turli sohalar bo'yicha tushunchalari, fikrashi va dunyoqarashini o'rganishning samarali usuli sifatida tizimli yondashuvni hamda innovatsion yondashuv hamda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Tizimli yondashuv yo'nalishidagi barcha bilim, ko'nikma va malakalar majmui talabalar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishda professor-o'qituvchilarga qo'yilayotgan talablar majmuini ifodalashi bilan bir qatorda, ularning faoliyati samaradorligini ta'minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi. Tizimli yondashuvning asosiy tushunchasi «tizim» bo'lib, aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Tizimning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, o'zaro ta'sir etuvchi komponentlarining majmui yaxlit obyektni tashkil etadi.

Pedagogik jarayon subyektlari faolligini ta'minlash, mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishning ilmiy-metodik ta'minotini rivojlantirish, ta'lif mazmunini takomillashtirish va boshqalar. Tizimli yondashuv

yo‘nalishida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ta’lim muassasasida nazorat va boshqaruv faoliyati

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini loyihalashda tizimli obyekt sifatida yaxlit pedagogik jarayonni rivojlantirish va uning unikal modelini takomillashtirishga tashkil etuvchi qismlar ta’sir ko‘rsatishining ahamiyatini inobatga olish, shuningdek, bir xil va teng sharoitlarda pedagogik jarayonlarning rivojlanishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatuvchi ba’zi qism va bo‘g‘inlarni o‘zgartirishga imtiyozlar berish zarur. Pedagogik jarayonlarning umumiy modelini o‘zgartirishda professor-o‘qituvchilar, talabalarning imkoniyatlari, boshlang‘ich tushunchalar va ishonchlariga asoslanish kerak, chunki yangilangan model zamonaviy talablar darajasida talabalarning o‘zgaruvchan ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy ehtiyojlarini qondira olishi, yuqori darajada ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning tajribalarini qo‘llash hamda ularning ilmiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hamda AKT vositalari bilan ta’minlangan muhim shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur bo‘lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish lozim:

- pedagogik jarayonlarni samarali rivojlantirish yo‘llari tasodifiy holda va taxminiy belgilanganda ularning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar subyektlarning qobiliyatlariga, pedagoglarning qulay vaziyatlarni ko‘ra olishi va ularni qo‘ldan chiqarmasligiga bog‘liqligi;
- tizimli obyekt sifatida pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun uni tashkil etuvchi barcha komponentlarning rivojlanish sur’atlarini, subyektlar munosabatlari va faoliyati integratsiyasini ta’minalash hamda muvofiqlashtirishning zarurligi;
- pedagogik jarayonlarning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar mavjud omillarga asoslangan holda professor-o‘qituvchilarning kelajakni ko‘ra olish va rivojlanish imkoniyatlarini oldindan aniqlay olish mahoratlariaga bog‘liqligi;
- murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik jarayonlar rivojantirishga bo‘lgan ehtiyojlar va imkoniyatlarni, subyektlarning qibiliyatlarini va boshlang‘ich tushunchalarini aniqlamasdan pedagogik jarayonlarni rivojlantirish yo‘nalishlarini majburan belgilashning mumkin emasligi;
- kuchli, majburiy va keng qamrovli ta’sir ko‘rsatish usullari asosida

pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash imkoniyatining mavjud emasligi;

- tashkil etuvchi qismlar va bo'g'inlar bo'yicha aniq belgilangan tartibda (lokal) ta'sir ko'rsatish pedagogik jarayonlarning samarali rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga asos sifatida xizmat qilishi.

Polsha oliv tizimi va uning qiyosiy tahlili

Polshaning ta'lim tizimi o'rta asrlarga borib taqaladi. Masalan, Jagiellon universiteti 14-asrda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda Evropadagi eng qadimiy universitetlardan biri hisoblanadi. Polshada ingliz tilida 400 dan ortiq kurslar mavjud, ularning aksariyati bakalavr darajasida.

Polshada ko'plab nufuzli universitetlar, jumladan Jagiellonian universiteti va Varshava universiteti mavjud. Varshava universiteti AQShning Massachusetts texnologiya instituti (MIT) kabi nufuzli universitetlaridan ustun bo'lib, Top Coder xalqaro IT reytingida birinchi o'rinda turadi.

Soni Polshadagi oliv o'quv yurtlari so'nggi o'n yil ichida to'rt baravar oshdi, talabalar soni esa besh baravar ko'paydi. Polshada o'qishni tanlagan xalqaro talabalar tez rivojlanayotgan akademik muhitda sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Polsha universitetlarida oliv ma'lumot sizning davlatingizda o'qishdan biroz farq qiladi. Va birinchi farq, yil davomida ikkita tanishtirish kampaniyasining mavjudligi. Yozgi tanishuv kampaniyasi oktyabrdan avgustgacha, ya'ni yil davomida davom etadi. Ammo qish - atigi ikki oy (yanvar va fevral). Ushbu yondashuv talabalarga kechiktirilgan hujjalarni topshirishga imkon beradi.

Ikkinci ajralib turadigan xususiyat - bu mashg'ulot vaqt. Polshada siz ikki bosqichli tizimga (bakalavr va magistr darajalariga alohida) yoki ajralmas magistr dasturiga yozilishingiz mumkin. To'g'ri, tanlov mutaxassislikka bog'liq, chunki shifokorlar uchun, masalan, ikki darajali tizim mavjud emas.

Yuqorida aytib o'tilgan uchinchi farq, boshqa mamlakatlarda tasdiqlashni talab qilmaydigan Evropa uslubidagi diplomlardir.

Polshada muvaffaqiyatli o'qishning xususiyatlari va afzalliklari

So'nggi yillarda Polsha, aniqrog'i uning universitetlari tobora ko'proq chet ellik talabalarni jalb qilmoqda. Ushbu mamlakatning universitetlari yuqori sifatli ta'lim beradi va ularning diplomlari

Evropaning barcha mamlakatlarida va dunyoning aksariyat mamlakatlarida keltirilgan. Biroq, Polsha universitetlarida o'qish o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu kelajakdag'i talabalar tomonidan hisobga olinishi kerak.

Polshadagi o'quv dasturi talabalar bo'sh vaqtлari ko'p bo'lishlari va yarim kunlik ish topish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun yaratilgan. Polshada o'qish faqat fuqarolar va qutb kartasi egalari uchun bepul. Chet elliq talabalar o'qish uchun pul to'lashlari kerak, ammo ba'zi universitetlar ularga stipendiya dasturlarini taklif qilishga tayyor. Polshada muvaffaqiyatsizlik bilan o'tilgan imtihon haydalishga tahdid solmaydi, ammo uni qaytib topshirish ham oson bo'lmaydi. Talaba yana ushbu intizom kursini o'tashi kerak va, albatta, buning uchun pul to'lash lozim. Polsha universitetlari tegishli bilimlarni bermaydi degan afsona allaqachon rad etilgan. Shunday qilib, agar siz ushbu mamlakatning universitetiga kirishni xohlasangiz, materialni o'rganish va ko'p sonli bilimlarni sinab ko'rish uchun ko'p kuch sarflashingiz kerakligiga tayyor bo'ling.

Qiziqarli ma'lumotlar

Oy yerdan uzoqlashadi. Har yili Oy yerdan deyarli 4 sm ga uzoqlashadi. Bunga ko'plab hodisalar sabab bo'ladi, ulardan biri – yerning aylanish davri kuniga 2 milli sekundga sekinlashadi. Olimlar Oy qanday shakllanganligini bilmaydilar, ba'zilar uni – yer sirtiga milliard yillar ilgari urilgan, yirik kosmik jismi tomonidan urib sindirilgan yer parchasi deya taxmin qiladilar.



37 – rasm. Yer shari ko'rinishi.


Amaliy ishni bajarish tartibi

1-Topshiriq. O'quv reja, baho va baholash fanining mazmuni, maqsad va vazifalarini asoslab bering.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - talabalarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rGANISH yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo'llanilganda talaba kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtiroy etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rGANISHGA va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning o'zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida —kichik guruhlarda ishlashi metodining tuzilmasi keltirilgan.




38 – rasm. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi.

2-Topshiriq.

1. O'quv reja, baho va baholash fani, qaysi yo'nalishda taxsil olayotgan mutaxassislar uchun kerakli?
2. Talabalarni baho va baholash natijasida qanday ijobjiy yutuqlarga etishish mumkin (asoslangan misollar bilan tushuntiring)?

"Davra suhbati"metodi

Davra suhbati metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan talabalar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. Davra suhbati metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabanining bir-biri bilan ko'z aloqasilni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbатida ta'lим beruvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir talaba o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilari:

1-ta'lim oluvchilar

2-aylana stol

39 – rasm. "Davra suhbati"metodi



Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Talabalar bilimini nazorat qilishdan maqsad nima?
2. Pedagogik jarayonlarda AKT vositalarining o‘rni
3. Innovatsion yondashuv nima?
4. Ta’lim muassasasida nazorat va boshqaruv faoliyati qanday amalga oshiriladi?
5. Polsha oliv talim tizimi va uning qiyosiy tahlili?
6. Polshada muvaffaqiyatli o‘qishning xususiyatlari va afzallikkleri?
7. Universitetlarda o‘qish qanday amalaga oshiriladi?
8. Polsha universitetlari tegishli bilimlarga qanday ega bo‘lish mumkin?

TEST

1. Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to‘plami, individual papka qanday nomlanadi?

- a) test;
- b) portfolio;
- c) sillabus;
- d) assesment.

2. Talabaning individual ta’limiy muvaffaqiyatlari aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va boshqalar jamlanadigan portfolio qanday nomlanadi?

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

3. Talaba tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, loyihamalar, tadqiqotlar, ularning natijalarini aks ettiruvchi reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihamalar, ijtimoiy, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyatga doir hisobotlar, talaba tomonidan mustaqil yoki guruhdoshlar bilan hamkorlikda to‘plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joy oladigan portfolio – bu

?

- a) baholovchi portfolio;
- b) taqriz portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

4. Talabaning o‘zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o‘rin oladigan portfolio qanday nomlanadi?

- a) baholovchi portfolio;
- b) taqrizlar portfoliosi;
- c) ishlar portfoliosi;
- d) hujjatlar portfoliosi.

5. Talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantirilib, nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalardan tarkib topadigan portfolio – bu

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;

- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) Online portfolio.

6. Talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyanoma va tavsifnomalar jamlanadigan portfolio qanday nomlanadi?

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) Online portfolio.

7. 1) talabalar tomonidan oliy ta'lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallarni qo'shish; 2) shaxsiy veb-saytlarni yaratish; 3) semestr yakunlari bo'yicha hisobot tayyorlash kabi shakllarda namoyon bo'ladigan portfolio – bu ...

- a) baholovchi portfolio;
- b) natijalar portfoliosi;
- c) taqrizlar portfoliosi;
- d) Online portfolio.

8. Istiqbolli ish o'mniga ega bo'lish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fan olipiadalarda ishtirok etish, nomdor hamda Prezident stipendiyasiga talabgor bo'lish hamda shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishda amaliy ahamiyat kasb etuvchi hujjatlar to'plami qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) pedagoglar portfoliosi;
- b) talabalar portfoliosi;
- c) rahbarlar portfoliosi;
- d) ekspertlar portfoliosi.

9. Talabalar portfoliosining yaratilishi necha bosqichda amalga oshadi?

- a) 2 bosqichda;
- b) 3 bosqichda;
- c) 4 bosqichda;
- d) 5 bosqichda.

10. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) o'zgartirish kiritish;
- b) qo'shimcha kiritish;
- c) yangilik kiritish;
- d) taklif kiritish.

11. Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat qanday nomlanadi?

- a) innovatsiya;
- b) novatsiya;
- c) gravitatsiya;
- d) gradatsiya.

12. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari. Ular nimaning ko'rinishlari sanaladi?

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- c) innovatsiyaning;
- d) loyihalashning.

13. Ta'lif sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar qanday nomlanadi?

- a) ta'lif vositalari;
- b) ta'lif texnologiyalari;
- c) ta'lif metodlari;
- d) ta'lif innovatsiyalari.

14. "Innovatsion ta'lif" tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?

- a) 1919 yilda Berlinda;
- b) 1979 yilda Rimda;
- c) 1920 yilda Vashingtonda;
- d) 1995 yilda Moskvada.

15. Ta'lif innovatsiyalari necha turga bo'linadi?

- a) 2 turga;
- b) 4 turga;
- c) 6 turga;
- d) 8 turga.

16. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lif innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

- a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;
- b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
- c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

17. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

18. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'rata'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

19. Kelib chiqish manbaiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

20. Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmay, faqtgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u nima deb yuritiladi?

a) novatsiya;

b) evrika;

c) innovatsiya;

d) intuitsiya.

21. Ispaniya ta'lim tizimi umum tan olingan yevropa standartlariga javob beradigan qaysi tizimiga asoslanadi?

a) bolonya;

b) uzining ichqi baholash tizimiga;

- c) xechqanday tizimga asoslanmaydi;
d) intuitsiya.
22. Pedagogik monitoring funktsiyalari beshta qismdan iborat?
- a) 7 ta ;
b) 5 ta;
c) 10 ta;
d) 11 ta;
23. Davra suhbat metodi qanday amalga oshiriladi?
- a) Aylana stol atrofida berilgan muammoga o‘z fikr-mulohazalarini bildirish ;
b) Jamoa o‘rtasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirish;
c) xechqanday fikr-mulohazalarini bildirmaydi;
d) Jamoa stol atrofida hamjihatlikda ishlaydi.
24. Reyting tizimining asosiy vazifalari nechta?
- a) 7 ta ;
b) 8 ta;
c) 10 ta;
d) 11 ta;
25. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad nima?
- a) raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishishdan iborat;
b) talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olishdan iborat;
c) raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat;
d) jahon talabilaga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat;
26. Rolli o‘yin metodining bosqichlari nechi qismdan iborat?
- a) 7 ta ;
b) 5 ta;
c) 10 ta;
d) 12 ta;
27. Monitoring so‘zining lug‘aviy manosi?
- a) (inglizcha monitoring — kuzatish, nazorat qilish);
b) (lotincha monitoring — kuzatish, nazorat qilish);
c) (grekcha monitoring — kuzatish, nazorat qilish);

d) (ispancha monitoring — kuzatish, nazorat qilish) ;

28. Portfolioni ishlab chiqish jarayoni asosiy nechi bosqichdan iborat?

- a) 6 ta ;
- b) 3 ta;
- c) 7 ta;
- d) 2 ta.

29. Qanday Portfolio turlari bor?

a) “Hujjatlar portfoliosi”, “Ishlar portfoliosi”, “Taqrizlar portfoliosi”, “Natijalar portfoliosi”, “Baholovchi portfolio”, “Online-portfolio”;

- b) “Ishlar portfoliosi”, “Taqrizlar portfoliosi”;
- c) “Natijalar portfoliosi”, “Baholovchi portfolio”;
- d) “Online-portfolio”;

30. “Taqrizlar portfoliosi” ning vazifasi?

a) pegagoglarning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi.;

b) talabaning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi;

c) professolarning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi;

d) doktorantlarning erishgan yutuqlarini baholashga doir xulosalar, taqrizlar, rezyumelar, esselar, tavsiyanoma va tavsifnomalar taqdim etiladi.;

31. Kurs loyihasida masalalar yechimi nechi bosqichda ko‘rsatiladi?

- a) 6 ta ;
- b) 5 ta;
- c) 8 ta;
- d) 12 ta;

32. Kurs loyihasining asosiy vazifalari nimadan iborat?

a) talabalarda me’yoriy, ma’lumotnomma va boshqa adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish;

b) mustaqil fikrlash va eng maqbul texnik yechimlarni qabul qilishga o‘rgatish;

c) talabalarning ma'ruza, tajriba va amaliy mashgulotlarda, mustaqil faoliyatda olingan nazariy va amaliy ko'nikmalarni amaliy loyihalarni bajarishda qo'llay olishini namoyish etish;

d) Barcha javoblar to'g'ri;

33. Kurs loyihasini bajarishdan maqsad nima?

a) o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muxandislik masalasini mukammal yechishda qo'llashdir;

b) o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza mavzularini umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muxandislik masalasini mukammal yechishda qo'llashdir;

c) o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muxandislik masalasini rivojlantirishdir;

d) o'quv rejasida ko'zda tutilgan muayyan fan bo'yicha ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, umumlashtirish va ushbu bilimlarini konkret muxandislik masalasini amaliyotga joriy qilishdir;

34. So'rovnomalar pedagogik tizimlar turlari bo'yicha nechi xil bo'ladi?

a) 6 ta ;

b) 3 ta;

c) 7 ta;

d) 2 ta;

35. Individuallik so'zining lug'aviy ma'nosi?

a) lotincha so'zdan olingan bo'lib, "individuum" ya'ni "bo'linmas" degan ma'noni anglatadi ;

b) grekcha so'zdan olingan bo'lib, "individuum" ya'ni "bo'linmas" degan ma'noni anglatadi;

c) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "individuum" ya'ni "bo'linmas" degan ma'noni anglatadi;

d) fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "individuum" ya'ni "bo'linmas" degan ma'noni anglatadi.;

36. Alovida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish nima deb yuritiladi?

a) ta'lim jarayonini tashkillashtirish;

- b) ta'lim jarayonini rejalashtirish;
- c) ta'lim jarayonini baholash;
- d) ta'lim jarayonini loyihalash.

36. Pedagogik jarayonni loyihalash qanday uchlikka asoslanadi?

- a) muammo – izlanish – yechim;
- b) loyiha – mazmun – faoliyat;
- c) tashkillashtirish – amalga oshirish – baholash;
- d) bilish – anglash – qo'llash.

37. Ta'lim jarayonini loyihalash necha bosqichda kechadi?

- a) 3 bosqichda;
- b) 4 bosqichda;
- c) 5 bosqichda;
- d) 6 bosqichda.

37. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat qanday nomlanadi?

- a)texnologik yo'riqnama;
- b)texnologik pasport;
- c)texnologik xarita;
- d)texnologik guvohnoma.

38. Ta'lim va tarbiya jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hujjat qanday nomlandi?

- a) texnologik yo'riqnama;
- b) texnologik pasport;
- c) texnologik xarita;
- d) texnologik guvohnoma.

39. Ta'limda real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi nima deb ataladi?

- a) sxema;
- b) loyiha;
- c) model;
- d) dastur.

40. Ta'limda qanday holat hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratishni ifodalaydi?

- a) loyihalashtirish;
- b) modellashtirish;
- c) tizimlashtirish;
- d) konstruksiyalash.

**« O'QUV REJA, BAHO VA BAHOLASH » FANIDAN
GLOSSARIY**

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi
Hatti harakatni o'rGANISH	Real loyixalar bilan guruxlar yordamida ta'lrim olish harakati.	Action learning An approach to learning involving individuals working on real projects with the support of a group (set) which meets regularly to help members reflect on their experience and to plan next actions.	Действие получения образования с реальными проектами с помощью групп.
Hatti harakatni tadqiq etish	O'z amaliyoti asosida tadqiqotlar o'tkazish.	Action research Researching one's own practice in a cyclical manner. See Chapter 28, Case study 1.	Проведение исследований на основании собственной практики.
Faol o'rGANISH	O'quv jarayonini izchil o'rGANISH.	Active learning A process of engaging with the learning task at both the cognitive and affective level.	Последовательное изучение учебного процесса.
Ta'lIM texnologiya lari	bu o'qituvchining o'qtish (tarbiya) vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan	Educational Technology - this trainer, education of students affect their particular circumstances, and it will act as a predefined intensive process of formation.	Воздействие преподавателя в определенных условиях на студента с помощью средств обучения и как конечный продукт этой деятельности

	belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish dir.		интенсивное развитие заранее запланированных качеств личности.
--	---	--	--

Texnologiya	biror ishda, mahoratda, jarayonda, san'atda qo'llaniladigan yo'llar, uslublar to'plamidir (talqinli lug'at).	Technology - Research, technology, skills and techniques used in the process, a set of methods.	Искусство, мастерство, умение, совокупность методов обработки, изменения состояния.
Innovatsiya	Yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati. (inglizcha innovatsion – kiritilgan yangilik, ixtiro). Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruva va mehnatni tashkil etishi kabisochalalar dagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va	Innovation- Updating. Change in process of activity. Updating on the basis of scientific and technical achievements and advanced experience in the field of engineering, technology, management, news, as well as their different reflection.	Внедренное новшество, обеспечивающее качественный рост эффективности процессов или продукции, востребованное рынком. Является конечным результатом интеллектуальной деятельности человека, его фантазии, творческого процесса, открытый, изобретений и рационализации. Термин —инновация происходит от английского

	doiralarida qo'llanishini aks ettiradi.		инновацион – что означает обновление, изобретение.
Kontseptsiya	Maqsadga erishishning xomaki rejasni mazkur sohada mavjud qonuniyatlar bilan asoslab berilgan bosqich kontseptsiya yoki ilmiy asoslangan taxmin deyiladi.	Concept - the purpose of drawing up the plan with the current legislation in this area is the concept stage.	Определенный способ понимания, трактовки какихлибо явлений, основная точка зрения, руководящая идея для их освещения, ведущий замысел, конструктивный принцип различных видов деятельности.

Ixtiro qilish	Yangilik yaratish	Invent - the creation of innovation	Создание новшества
Ixtiro	yangicha g'oya, texnik yechim bo'lib, amaliyotda texnikaning istalgan sohasidagi muayyan muammoni hal qilish imkonini beruvchi ijodiy faoliyat mahsuli.	Invention - new ideas and technical solutions, creative product that allows to solve the specific problem.	Новое решение задачи, техническое воплощение идеи, являющееся результатом технического творчества.
Metodika	Ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui.	Metodika - set of methods and techniques of scientific activity.	Совокупность приемов и методов научной деятельности.

Texnologik xarita	Ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik operatsiyalar ketmakestligini yorituvchi texnik hujjat.	Process plan-technical document containing the necessary information, instruction, performing a process or technical facility services.	Технический документ, содержащий необходимые сведения, инструкция, выполняющего некий технологический процесс или техническое обслуживание объекта.
O'quv-uslubiy majmua	Bu yagona metodologiya bo'yicha o'r ganiladigan fanning mazmuni va uning xususiyatlariga ko'ra o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ta'lim mazmunini va o'zlashtirish jaryonini amalgalashirishda qatnashuvchi barcha vositalar.	Educational methodical complex - all used tools participates in the implementation of the educational process, and achievement-related a learning organization edininstvennoy methodology for covering the meaning and properties of the object being studied.	Все используемые средства участвующие в реализации процесса образования и успеваемости, связанные с организацией обучения по единственной методологии охватывающей смысл и свойства изучаемого предмета.

O'quv rejasি	Ta'larning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassislik bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslari tarkibi, ularni o'rghanishning izchilligi va soatlardagi hajmi belgilangan normativ hujjat.	Curriculum - a normative document that standardized learning activities, learning objects and composition courses, the sequence of their training and the amount of hours a certain direction or specialty education.	Нормативный документ, в котором нормируются виды учебной деятельности, учебные предметы и состав курсов, последовательность их обучения и объем часов определенного направления или специальности образования.
O'quv fani dasturi	ta'lim mazmuni, talabalar tomonidan o'zlashtirishning maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.	The program of the subject - a normative document that shows the meaning of education, development of appropriate methods and sources of the subject by students informsatsii.	Нормативный документ, в котором приведены смысл обучения, приемлемые методы освоения студентами предмета и источники информации.
Metod	O'qituvchi bilan talabalarning ta'limgartibiyadan qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan tartibga solingan, tizimlashtirilgan faoliyatdir.	Method-ordered and systematic activities aimed at the implementation of education and educational goals of the teacher with Students.	Упорядоченная и систематизированная деятельность, направленная на реализацию образовательного сподвига целей преподавателя со студентами.

Ta'lim vositalari	Ta'lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalar.	Learning Tools means helping implement (carry out) the educational process.	Средства, помогающие осуществить (проводить) образовательный процесс.
Bahsmunozara metodi	Biror mavzu bo'yicha talabalar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.	The method of "discussion" methods of training conducted among students in the form of discussions, exchange of views on a topic.	Метод обучения проводимой между студентами в виде дискуссий, обменом мнениями по какой-либо теме.
Muammoli vaziyat metodi	Talabalarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.	The method of "problem situations" - students' teaching method aimed at developing the skills of analyzing the causes and consequences of problem situations and their solution.	Метод обучения студентов направленной на развитие навыков анализа причин и последствий проблемных ситуаций, а также их решение.
Rolli o'yin metodi	Talabalar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shartsharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.	The method of "roleplaying games" - a method of showing the students a variety of life situations by istsenirovaniya.	Метод показа студентами различных жизненных ситуаций путем исценирования.

Loyiha metodi	bu talabalarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir.	The method "Projection" - a method of students gather information, conduct research on the topic, alone or in groups at certain times.	Метод проведения студентами сбора информации, проведение исследований по указанной теме индивидуально или в группах в определенное время.
Davra suhbati metodi	Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan talabalar tomonidan o'z fikrmulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.	The method of "round table discussions" - methods of training conducted at a round table in which students express their views on this issue or question.	Метод обучения проводимая за круглым столом, в которой студенты высказывают свою точку зрения по указанной проблеме или вопросу.
Kichik guruhlarda ishlash metodi	Talabalarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.	The method "Work in small groups" - interested in art work in the classroom, directed to perform a given task, or to study the educational material is distributed in small groups of students in order to increase their activity.	Творческая работа на занятиях, направленная на выполнение заданной задачи или на изучение учебного материала распределяя студентов в маленькие группы с целью увеличения их активности.

Ish bop o‘yin metodi	Berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metoddir.	The method of "Decision-making manager" - method imitation (imitation, reflection, show, simulate) the adoption of management decisions in different situations prepared by the participants of the game, or on the same topic .	Метод иммитации (подражание, отражение, показать, имитировать) принятия управлеченческих решений в различных ситуациях подготовленных участниками игры или на заданную тему.
-----------------------------	---	---	--

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 - son farmoni. Toshkent. - 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirish barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli Qarori.
5. Бочкарева Т.Н. современные средства оценивания результатов обучения. Учебное методическое пособие. Махачкала: Издательство «Апробация», 2019 –108 с.
6. И.Альджанова “Ўкув портфолиоси – бўлажак ўқитувчиларда касбий компитентликни шакллантириш воситаси сифатида” Педагогик таълим журнали, 2012 йил 4-сон, 46-бет.
7. С.Мусаева “Портфолионинг мақсад ва моҳияти” Педагогик таълим журнали, 2013 йил 1-сон, 20-бет.
8. У.Бегимкулов, Т.Шоймардонов и др. Информационно-методическое обеспечение непрерывности образовательного процесса на основе электронного сопровождения. Материалы международной конференции. Санкт-Петербург (Россия), 2012 год, 5 стр.
9. M. Aripov, A. Xaydarov. «Informatika asoslari». — Toshkent. «O‘qituvchi» 2002-yil. 429 b.
10. U. Sh. Begimkulov. Oliy ta‘lim muassasalarining yagona axborot makonini tashkil etish va uni rivojlantirish istiqbollari //«Xalq ta‘limi» jur. №4, 2006 – 4,7 betlar.
11. Абдуқодиров А.А., Пардаев А.Х. Таълим жараёнини технологиялаштириш назарияси ва методологияси. – Тошкент: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2012.
12. Самылкина Н.Н. Современные средства оценивания результатов обучения. - М.: Лаборатория знаний, 2015. 811с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Звонников В.И., Челышкова М.Б. Современные средства оценивания результатов обучения. - М.: Издательский центр «Академия», 2007.
2. Shepard, L. A., Hannaway, J., and Baker, E. (2009). Standards, assessments, and accountability: Education policy White Paper, Washington, DC: National Academy of Education.
3. Чернявская, А.П., Гречин, Б.С. Современные средства оценивания результатов обучения: учебно-методическое пособие. - Ярославль: Изд-во ЯГПУ. - 2008.
4. Гринченко, И. С. Современные средства оценивания результатов обучения / И.С. Гринченко. - М.: Перспектива, 2008. - 132 с.

Axborot resurs manbalari

1. <https://www.creativebloq.com/graphic-design-tips/adobe-illustrator-cs6-review-1233309>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Adobe_Illustrator
3. <http://www.tucows.com/preview/754250/Adobe-Illustrator-CS6>
4. <https://www.techworld.com/download/design-illustration/adobe-illustrator-cs6-v1603-529/>
5. 13436j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8
6. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/14508>
7. <http://uz.infocom.uz/2013/11/25/masofaviy-talim-tizimida-oquvresurslarini-yaratish-imkoniyatini-beruvchi-dasturiy-taminotlar-tahhili/>
8. <https://teach-book-lite.software.informer.com/1.4/>
9. <https://learn.g2crowd.com/what-is-an-ebook>
10. <https://www.computerhope.com/jargon/e/ebook.htm>
11. <http://www.neosoftware.com/products.html>
12. <http://neobook-app.com/>
13. <https://en.wikipedia.org/wiki/AutoPlay>
14. https://en.wikipedia.org/wiki/Adobe_Dreamweaver
15. <http://www.e-dastur.uz/maqola/mashg'ulot/249-mashg'ulot.html>
16. <http://uchebnikionline.ru>
17. <http://www.elkutubhona.narod.uz>

Mutaxassislik talabalari uchun o'quv qo'llanma

“Axborot ta'lim texnologiyalari” kafedrasining
yig'ilishida (2020 y. _____ -sonli
bayonnomasi),

“AKT sohasida Kasbiy ta'lim” fakulteti
o'quv-uslubiy kengashida
(2020 y. _____ -sonli bayonnomasi)
muxokama qilinib chop etishga qaror qilindi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
ilmiy-uslubiy Kengashida
ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiyalandi
2020 yil “_____ , _____ - sonli bayonnomasi

Tuzuvchi: assistent G.R.Hamrayeva

Ma'sul muharrir: T.E.Delov
Taqrizchilar: PhD.dosent Sh.X.Pozilova
p.f.n., B.S.Nuridinov

«Mahalla va oila nashriyoti»

Toshkent – 2021

Nashr uchun mas'ul: B. Mavlonov

Muharrir: U. Yunusov

Badiiy muharrir: F. Sobirov

Dizayner-sahifalovchi: L. Abdullayev

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bichimi 60x84 1/16 Offset qog'ozи.

Times New Roman garniturasи.

Shartli bosma tabog'i 10,75. Nashr hisob tabog'i 6,7.

Adadi 60 nuxsada. Buyurtma № 11-12.



1940

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
M.Ismoilji ko'chasi 1-G uy.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.